
FALAK (QISSA)

Tohir Malik

— Asl oltin olish uchun inson qoni darkor...

— Qonni qaerdan olding?

— O‘zimdan.

— Sen o‘z qoningni hamisha ishlatavermaysan-ku?

— Men asl oltindan har doim uzuk ham qilmayman.

— Bundan buyon oltinga inson qoni ishlatishingni man etaman. Inson qonini to‘kmak tanbehga loyiq ishdir. Va bunday qiluvchi kishining umri qisqa bo‘lur. Ulug‘bek saltanatida inson qoni bezak uchun to‘kilmasligi darkor.



TOPILMA

Uch kundan beri ezib yog‘ayotgan yomg‘ir tindi. Kun botarda qonga belangan ufq endi havoning ochilib ketishini va‘da qilgan edi. Lekin mag‘ribdan esib turgan shamol ko‘p o‘tmay yana qora bulutlarni haydab keldi. Yulduzlarning yuzi to‘siladi. Havo aytarli sovuq emas, biroq kuchsiz izg‘irin badanni junjiktiradi.

Aeroportda navbatchilardan bo‘lak hech kim qolmadi. Shahar tomondan kelgan bo‘sh avtobus haydovchisi bino eshigi og‘zida turgan Sultonga «chiqarmikin» deganday bir-ikki qarab qo‘ydi. Keyin signal berdi-da, yana shaharga yo‘l oldi.

«Oxirgisi bo‘lsa kerak... — o‘yladi Sulton, — nega hech kimdan darak yo‘q? Aslida mehmonxonaga tushaversam bo‘lar ekan. Yo reysni noto‘g‘ri angladimi? Qani, so‘rab ko‘ray-chi...» U ichkari kirib, navbatchiga yaqinlashdi.

— Kechirasiz, singlim, kunduzi hech kim Sulton Umrzoqovni yo‘qladimi?

— Umrzoqov deysizmi?.. Yo‘q.

— Telefon ham qilmadimi?

— Yo‘q.

Sulton rahmat aytib orqasiga qaytdi-da, «yana bir oz kutay-chi», deb pastak kresloga o‘tirdi. navbatchi qiz telefonda kim bilandir gaplasha turib, chakkasidagi sochlari bir tekis oqargan xushmuomala bu yo‘lovchiga qarab-qarab qo‘ydi. Keyin telefon go‘shagini joyiga ila turib, dedi:

— Sizni biror kishi kutib olishi kerakmidi?

— Ha.

— Boradigan joyingizni aniq bilmaysizmi?

— Bilaman. Buloqboshiga borishim kerak.

— Xiyla uzoq ekan. Shaharda bo‘lsa taksi chaqirib berardim.

— Chaqiravering.

Bugun ertalab Sulton Armanistonda edi. U ikki haftadan beri hamkasbi professor Teos Akopyanning iltimosi bilan yangi ochilgan g'ordagi buyumlarni, devorlaridagi suratlarni o'rganishga ko'maklashardi. Ertalab telegramma keldi. «... Buloqboshidagi qabristonni kovlashda ajabtovur buyum topildi. Tez yetib keling. Sizni Andijonda kutib olaman. Asad Mullaev».

Asad Mullaev Sultonning iste'dodli shogirdlaridan, ba'zi topilmalarni tekshirishni Sulton ko'proq shu shogirdiga ishonardi. U telegrammani o'qiboq, yangi jiddiy ish boshlanajagini angladi. Asad mayda-chuyda narsalar uchun ustozini bezovta qilavermasdi. Sulton hamkasbidan uzr so'rab Toshkentga qaytdi.

Havoning aynigani sabab bo'lib, Andijonga bir yarim soat kechikib keldi. Ikki soatdan beri aeroportda Asadni kutadi. Aksiga olib, chaqirilgan taksi ham bu yerga bir soatdan so'ng kelarkan...

Shu payt tashqarida yuk mashinasi to'xtadi. Sulton «keldi shekilli» deb o'rnidan turdi. Yanglishmabdi. Eshik shaxt bilan ochilib Asad ko'rindi.

— Uzr, domlajon, — dedi u shoshib kelib ko'risharkan, — mashina pand berib qo'ydi.

— Hechqisi yo'q. Ketdikmi? — Sulton shunday deb eshik tomon yurdi. So'ng taksi buyurgani yodiga tushib, orqasiga qaytdi:

— Singlim, sizni yana bezovta qilaman. Endi taksiga hojat yo'q.

Tashqarida yomg'ir sevalay boshlagan edi. Bog'i Shamolga yetishganda yomg'ir qorga aylandi. Yo'lning o'ng tomonida adir qorayib ko'rinar, yalang'och daraxtlarning shoxlari iltijo bilan cho'zilgan panjalardek harakatsiz turardi. Buloqboshi yoz kunlari dilxush oromgoh bo'lguchi shu adirning ortida.

Sulton shogirdiga qaradi. U yo'ldan ko'z uzmay boryapti. Motorning bir maromda guvillashi quloqqa chalinadi. Mayda qor uchqunlari oynaga uriladi. Tozalagich shu zahotiyoq ularni surib tashlaydi. Go'yo mashina bilan qor jang qilayotganga o'xshaydi.

Asad kech qolgani uchun izza chekib, domlasiga ko'p gapirmadi. Hol-ahvol so'rash bilan cheklandi. Sulton shogirdini xijolatdan qutqarish uchun uni gapga tutdi:

— «Ajabtovur buyum» nima ekan?

— Toshtobut, — dedi Asad domlasiga tezgina qarab olib.

— Toshtobut?

— Ha. Eski qabristonni buzayotganlarida topishibdi. Bizga xabar qilishdi. Men kecha kelgandim. Ikkita toshtobutni kavlab oldik.

— Sanasi aniqmi?

— Aniq. O'n beshinchi asr.

— Temirzodalarnikimi?

— Bu haqda ma'lumot yo'q.

Chorak soatlardan so‘ng ular Buloqboshiga yetishdi. Shaharchada to‘xtamay, yuqorilashdi. Mashina katta ko‘cha borib taqalgan qabriston oldida to‘xtadi. Ular chiroqlar yonib turgan tomonga loy kechib borishdi. Chodirdan ikki kishi chiqib, ularni kutib oldi. Sulton bu yigitlarni tanidi. Ular Asadga biriktirilgan talabalar edi. Asad ustozini tuproq uyumining orqasiga boshladi. Yigitlardan biri toshtobut ustidagi choyshabni ko‘tardi. Sulton yaqinlashib, arab alifbesida o‘yib yozilgan xatga tikildi. Keyin ovoz chiqarib o‘qidi:

— Jannatiy alloma Shamsibek Ismoil o‘g‘li xusuf kuni shahid bo‘ldikim, qotili ahli mutaassib erur. Vollohi a‘lam, bissavob. O‘n beshinchi zu-l-qa‘da 8... hijriy yil». Ajab, bu Ulug‘bek davri-ku? Toshtobutlar bu yerga qanday kelib qoldi ekan?

— Muzeysdagilar ham yetib kelishgan, ularga nima deymiz?

— Shoshmay turishsin. Toshtobutlarni Toshkentga yuborish kerak. Biofizika institutidagi professor Alievning tajribaxonasini bilasiz-a? O‘sha yerga yuboring. Keyin ma‘muriyatga ayting, ekskavator solmay turishsin. Bu yerlarni jiddiyoq o‘rganish kerakka o‘xshaydi.

Sulton shunday deb iziga qaytdi.

— Mehmonxonadan joy tayyorlab qo‘yganmiz, — dedi Asad.

— O‘sha yerdan Toshkentga qo‘ng‘iroq qilish mumkinmi?

— Ha, telefon bor.

Sulton idora yonidagi mehmonxonaga joylashdi. Ivib qolgan shlyapasini, yomg‘irpo‘shini qoziqqa ilgach, soatiga qaradi: ikki yarim bo‘libdi. Telefon qilsammi yo ertalab gaplashsammi, deb birpas ikkilanib turdi-da, go‘shakni ko‘tardi.

Biofizika institutining yetakchi olimlaridan bo‘lgan professor Jahongir Aliev bu damda elallomaning elektron miyasi qog‘ozga tushirgan satrlarni tahlil qilib o‘tirardi. Jahongir bu hayratomuz kashfiyotini yaratishga kirishganida asosiy vazifa — asbobni ixtiro qilish, uyog‘i tarixchilar bilan kriminalistlarning ishi deb o‘ylagan edi. To elalloma yaratilguncha uning sochlari to‘kildi, peshonasiga uch-to‘rt chiziq tortilib, tajang odamga o‘xshab qoldi. Nihoyat, yigirma yillik mehnati o‘tgan oyda ilk samara berdi. Elalloma to‘rt kun burun vafot etgan odamning ruhiy dunyosini to‘la tiklay oldi. Biroq, bir necha yillik murdani o‘rganishda asbob ko‘p g‘o‘ng‘illadi-yu, tayinli gapni kam yozib chiqardi. Elalloma suyaklari chirib qolgan murdaning faqat ismiyu olamdan ko‘z yumgan yilini aniqlab berdi. Asbob tarixga murojaat etgan sari ishga yaroqsizlanib, professorning umidini bulut pardasiga o‘rab qo‘yayotgan edi.

Jahongir satrlarga tikilib, shu haqda bosh qotirib o‘tirganida telefon jiringladi. Go‘shakni ko‘tardi. Sultonni ovozidan tanib, ajablendi.

— Tinchlikmi? — dedi u salom-alikni unutib.

— Tinchlik. Men senga Buloqboshidan telefon qilyapman.

— Buloqboshidan?

— Ha, Armanistondan to‘g‘ri shu yerga keldim. G‘alati narsa topildi. Bu yerdagi go‘ristonni buzishayotganidan xabaring bormidi?

— Yo‘q. Bir haftadan beri tahlil bilan bandman. Nima topilibdi?

— Ikkita toshtobut chiqibdi. Yozuviga qaraganda tobut ichida Shamsibek ismli shahid alloma yotibdi. Ikkinchisida Mahfuza ismli ayol. Toshtobutlarni tajribaxonangda ochsak, devdim. Ertaga Toshkentga jo‘nataman. Kutib ol. O‘zim kechga yaqin yo‘ninga ertalab yetib boraman.

Do‘stining yarim tunda yetkazgan bu yangiligi Jahongirning tinchini oldi. Ertalab tajribaxonaga borib, toshtobut ortilgan mashinani oqshomgacha kutdi. To uni tushirib, ichkariga olib kirishgunlariga qadar Sulton ham yetib keldi.

TOSHTOBUT

Katta xonaning ikki qavat shaffof plastmassa oynak bilan o‘ralgan yeriga tobutlarni qo‘yishdi. Jahongir uch quloch kattalikdagi boshqaruv stoliga yaqinlashdi-da, o‘ng tomondagi rang-barang murvatlarning birini buradi. Shaffof oynak tutashgan xona devorining bir tomoni yig‘ilib, tobut turgan yerga xunuk maxluqni eslatuvchi manipulyator-robot kirib keldi. Manipulyatorning qovurg‘aga o‘xshash boshqaruv uskunalari joylashgan uzun to‘rtburchak «gavda»siga to‘rtta temir oyog‘u ikkita «qo‘l» ulangandi. Uning oyog‘i sakrashga chog‘lanib turgan chigirtkani eslatar, ikkita «qo‘l»i esa, qisqichbaqa panjasiga o‘xshardi. Qo‘llar orasiga o‘rnatilgan chiroq kezi kelsa lazer to‘pponchasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin edi. Birinchi manipulyatorning orqasidan yana uchta kirgach, devor berkildi. Dam o‘tmay xonaning bu qismidan havo butunlay so‘rib olinib, harorat pasaytirildi.

Manipulyatorlarning harakatini Jahongirning o‘zi boshqardi. Avval uning qo‘llaridagi nurli «pichoq» bilan tobutning chokini «so‘kdilar». Toshtobut bir-biriga juda mustahkam, havo kirmaydigan qilib yopishtirilgan bo‘lsa-da, «pichoq» uni sariyog‘ kesgandek tilib o‘tdi. Keyin manipulyatorlar ikkita-ikkita bo‘lib, tobutning qopqog‘ini ko‘tarishdi.

Xonadagilar shaffof oynak oldida to‘planib, bir zum hayratda qoldilar. Tobutlarning birida shohona libos kiygan yigit yotardi. Ikkinchisida yotgan go‘zal ayol ham shohona kiyimda edi. Ular bir necha yuz yil oldin dunyodan ko‘z yumgan odamga emas, hozirgina uyquga ketgan kelin-kuyovga o‘xshashardi. Murdalarning boshi sal ko‘tarilgan edi.

— Boshlaridagi yostiqmi? — dedi Sulton Jahongirga qarab. Jahongir «hozir ko‘ramiz», deb boshqaruv stoliga qaytdi. Murvatni buradi. Manipulyatorlar murdalarning boshini ehtiyotlik bilan ko‘tarib, qavatlab taxlangan matolarni olib yoyishdi. To‘planganlarning hayrati yana oshdi. Yostiq o‘rniga qo‘yilgan ko‘m-ko‘k matoda tilla rangidagi ajoyib tasvirlar bor edi. Matolarning ikkovi ham bir xilda bo‘lib, o‘rtasida kungaboqarni eslatuvchi katta doira, qolgan yerlarida yulduzga o‘xshovchi belgilar bor edi.

— Kelinlarning palagimi? — dedi xonadagilarning biri.

Sulton yelka qisdi. Jahongir matolarga tikilib qoldi. Keyin:

— Ha, bu falaknuxxa palak, — dedi. — Osmonning ko‘rinishi. O‘rtadagi doira — quyosh, doiraga yopishgan halqachalar — uning nuri, doira atrofiga tikilgan ko‘pqirra — yulduzning tasviri. Quyosh majmuasiga kiruvchi sayyoralar bo‘lsa kerak. Qolgan tasvirlar boshqa

yulduzlarni aks ettirgan bo'lsa ehtimol.

— Ajab! U holda bu tasvirga tushirilgan geotsentrik nazariya bo'lib chiqadi-ku! — dedi Sulton.

— Nazarimda buning ajablanarli yeri yo'q. Ulug'bek o'z risolasida aniq bo'lmasa ham, har holda shu nazariyaga shama qilib o'tgan.

— Gap Ulug'bekning fikri to'g'risida emas, falak haqida ketyapti. Falakni Ulug'bek tikmagandir, axir?

— Qizishma, do'stim, qizishma. Hozir bahsning o'rni emas. Tajribani boshlasak, yaqin kunlar ichida hammasi ma'lum bo'ladi. — Jahongir Sultonni bilagidan ushlab, eshik tomon boshladi. Keyin to'xtab, assistentiga yuzlandi: — Haroratni yana pasaytiring. Lekin muzlatib qo'ymang. Hamma narsa tajribani boshlashga taxt tursin.

— Qachon boshlaymiz?

— Balki ertaga, balki bir oydan keyin. Bu aniq emas.

Ular uzun dahliz bo'ylab borib Jahongirning chog'roq xonasiga kirdilar.

— Biror narsa ichging bormi? — dedi Jahongir.

— Yo'q, ovora bo'lma, — Sulton shunday deb kresloga o'tirdi-da, o'ng tomondagi radioning murvatini buradi.

— Ishlamaydi, — dedi Jahongir unga qarab, — tajribaxona radioto'lqindan muhofaza qilingan.

— Tajriba boshlash muddatini nega noaniq deb aytding?

— Bir qarorga kelolmayapman. Elalloma tarixga qaytgan sari ishga yaroqsiz bo'lib boryapti. Fikrimcha, bu murdalarning chirib qolganidan bo'lsa kerak. Agar yanglishmasam, bu safar to'la ma'lumot olishim mumkin. Jasad yaxshi saqlanibdi.

— Bo'lmasa boshlayver.

— Yo'q, bu safar shoshilmayman. Men tajribani yangi usulda boshlash niyatidaman. Shunda asboblarning ishlashi ham, murdalarning ruhiy dunyosi ham to'la o'rganiladi. Men elallomalar qatoriga o'zimni ham qo'ysammikin, deb turibman.

— O'zimni deysanmi? Tushunmadim?

— Bu ko'p mushkul ish emas. Kichik operatsiya va miyaga ikki juft jajji elektrod o'rnatish kifoya. Elektrodning biri tiklovchi elallomadan ma'lumotlarni qabul etsa, ikkinchisi meni faqat tajriba paytida ortiqcha xayollardan xalos qiladi.

— Keyin-chi?

— Keyin... Murdalarning ko'rgan-kechirganlarini qayta tiklayman.

— Elalloma bunga qodir emasmi?

— To'la darajada emas. U yuragi bilan his etish, mantiqan tahlil qilish qudratidan mahrum.

— Albatta o'zing bo'lishing shartmi? Boshqa kishidan foydalansang-chi?

— Masalan?

— Masalan...

— Faqat o'zingni aytma.

— Buni xayolimga ham keltirganim yo'q, xavotir olma. Balki, To'lqinni taklif qilarsan?

— To'lqinni? Uning bu ishga nima aloqasi bor?

— Har holda yozuvchi odam. Elalloma tiklagan ma'lumotlarni durustgina mantiqiy tahlil

qilishi mumkin.

- Yo‘q, unga aytolmayman. Tajribadagi butun xavf-xatarni o‘z yelkamga olishim kerak.
- Har holda bir aytib ko‘r. Balki o‘zi ham shu istakdadir.
- Istagi bo‘lsa, balki uni ham...
- «Uni ham...» emas. Menimcha, tajribang uchun bir kishi yetadi.
- To‘g‘ri aytasan. Mayli, bu haqda keyinroq yana batafsil gaplasharmiz.
- Men erta-indin ekspeditsiya bilan Buloqboshiga jo‘nayman.
- Unda oqshom biznikiga kel. To‘lqinni ham chaqiraylik.
- Yaxshi. Boshqa gaping bo‘lmasa, qaytaylik. Tong yorishib qoldi.

Toza havoda yuraylik, deb piyoda ketishdi. Bulutlar ko‘k yuzini artib o‘tganday — yulduzlar miltirab yonib turardi. Shahar osmoni doimo shunday tiniq bo‘lavermaydi. Yulduzlar so‘nik ko‘rinadi. Balki shahar chiroqlarining nuridan shunday tuyular? Bugun chiroqlarni barvaqt o‘chirishibdi.

Yengil izg‘irin ularning yuzlarini chimchilar, yupqa qor oyoqlari ostida g‘ijirlardi.

QILICH VA QALQON

Oqshom uchovlari jam bo‘lishdi. Ular bir ko‘chada ulg‘ayishib, bir sinfda o‘qigan bo‘lsalar-da, intilishlari turlicha edi. Jahongir biofizikani, Sulton arxeologiyani, To‘lqin yozuvchilikni tanladi. Keksayish pallasiga ham ular turlicha qadam qo‘ydilar. Sulton ko‘proq yurganidanmi, yo ochiq havoda ko‘p ishlaganidanmi do‘stlariga qaraganda baquvvat ko‘rinardi. Qotma jussasi, harakati, qarashidagi tetiklik va yashirin shiddat uni ancha yosh ko‘rsatardi. Faqat oqargan chakka sochlariyu qisq ko‘zlar chetidagi ajin umrning ko‘p qismi ortda qolganidan darak berib turardi.

Jahongir yoshligida ham jikkak edi. Qarigach, yana kichrayganday bo‘lib qoldi. To‘lqin esa do‘stlarining aksi, sochlari qirqni qoramayoq to‘kilib bitdi. U haddan ziyod semirgan, kichikroq qalam go‘shtdor barmoqlari orasida ko‘rinmay ketardi.

Ilgari oyda ikki marta uchrashishni odat qilishgandi. Keyin bir marta, so‘ng ikki-uch oyda bir ko‘rishadigan bo‘lishdi. Umr o‘tgan sayin ish kamayish o‘rniga ko‘payib, uchrashuv va ziyofatlarga vaqt yetishmay qoldi.

Mana bugun ham ikki oylik tanaffusdan so‘ng Jahongirning tajribasi bahona bo‘lib yig‘ilishdi. Avvaliga choy ichib, o‘tgan-ketgan gaplarni eslashdi. To‘lqin yangi yozmoqchi bo‘layotgan asarini gapirib berdi.

- Bu ishingni tezroq tugat. Jahongir senga yetti uxlab tushingga kirmagan bir mavzu topib qo‘ygan, — dedi Sulton.
- Demak, mensiz uchrashibsanlar-da?
- Ha, kecha Jahongirning tajribaxonasiga borgan edim. Uni tabriklashing mumkin.

To‘lqin o‘rnidan turib quchoq ochdi.

— Nega boyadan beri indamay o‘tiribsan! — deb do‘stini bag‘riga oldi. — Mana endi va‘dangning ustidan chiqasan. Yangilikni o‘zim e‘lon qilaman.

— Qaysi va‘da?

— Ie, elallomangning qurilishini, ish usulini sinovdan o‘tgach tushuntiraman, demaganmiding?

— Degandim. Seni shuning uchun taklif qildim. Undan tashqari, bir maslahatli ish ham bor. Mayli, uni keyinroq aytaman. Bo‘lmasa eshit: sodda qilib aytganda, elalloma radioto‘lqinlarni qabul qilib oluvchi asbobga o‘xshaydi. Ular orasida asosan ikkita farq bor: avvalo, elalloma ulardan bir necha yuz barobar sezgir, ikkilamchi va eng muhimi, elalloma bioto‘lqinlarni qabul qilishga mo‘ljallangan. Biotok, bioto‘lqin, biomaydon Yerda hayot boshlangandan beri mavjud. Odam gapiradi. Ovoz havo zarralarini ma‘lum masofada tebratgach, uni quloq qabul qilib oladi. Bu jarayon radiostantsiyaga va u ajratgan radioto‘lqinga o‘xshamaydimi? Bioto‘lqinda esa, kuchli radiostantsiya rolini bosh miya bajaradi. Har bir kishining miyasi ma‘lum miqdorda to‘lqin ajratadi. Menimcha, shu to‘lqinning kuchi o‘sha odamning buyukligini yo iqtidor darajasini belgilaydi. Miyadan to‘lqin ajraladi, deganimga telepatiya ham asos bo‘lishi mumkin. Boshqa bir kishining fikrini o‘qish, yoki fikran buyruq berib, uning harakatlarini boshqarish shu to‘lqin orqali amalga oshiriladi.

Radiostantsiya ishdan to‘xtashi bilan to‘lqin so‘nmaydi. Radiopriyomnik qabul qila olmaydigan darajada kuchsizlanib, ma‘lum muddat fazoda yuradi. Ba‘zi to‘lqinlar yillab yo‘qolmasligi mumkin. Odam ham shunday. Miya faoliyatini to‘xtatgach, biomaydon butunlay yo‘qolmaydi. Lekin shu yerda bir masala ustida aniq xulosaga kelolmayapman. Men so‘zimning avvalida to‘lqinning kuchi odamning buyukligini belgilaydi, dedim. Agar shu farazim to‘g‘ri chiqsa, buyuklarning ruhiy dunyosini tezroq tiklash mumkin bo‘ladi. Buloqboshidagi qabristondan ikkita toshtobut chiqqan ekan. Kecha ochib ko‘rdim. Jasadlar yaxshi saqlangan.

— Tajriba boshlasang men bexabar qolmay, — To‘lqin anchadan beri ushlab o‘tirgan sigaretasini labiga qistirib gugurt qidirdi. Sulton yonidan yoqqich olib, unga tutdi:

— Agar istasang, tajribada bevosita ishtirok etishing mumkin.

— Qanday qilib? Men texnikani yaxshi bilmayman-ku?

— Bilishing shart emas. Kichik bir operatsiya va miyanga o‘rnatilgan ikki juft elektrod yetarli.

To‘lqin, hazillashayapsanmi, deganday, Sultonga qarab qoldi. Keyin Jahongirga yuzlandi:

— Bu nima deyapti? Miyaga elektrod qo‘yish taqiqlangan-ku!

— Zarur paytlarda ruxsat olish mumkin.

To‘lqin endigina yondirgan sigaretasini kuldonga qo‘ydi.

— Bu gaping menga to‘g‘ri kelmaydi. Miyaga elektrod qo‘yish kashf qilinganidayoq men unga qarshi chiqqanman. Bu g‘ayriinsoniy kashfiyot deganman, esingdami?

— Kashfiyot sen o‘ylaganday g‘arazli emasdi. Taraqqiyotga, xususan fanga xizmat qiladigan foydali tomonlari ham bor edi.

- Bo‘lsa bordir. Lekin men fikrimdan haligacha qaytganim yo‘q. Shuning uchun taklifingni qabul qila olmayman. Har holda bu gap sendan chiqqan. Jahongir bunday ishga qo‘l urmaydi.
- Agar majbur bo‘lsa-chi?
- Chin aytyapsanmi? — dedi To‘lqin hayratini yashirmay. Lekin javob kutmay qo‘shib qo‘ydi. — U holda... tajriba uchun zarur bo‘lsam...
- Men faqat yozuvchiligingni nazarda tutib tajribani mantiqan xulosalashga yordaming tegarmikin, deb o‘ylovdim. Agar o‘zingda xohish tug‘ilsa, taklifni qabul qilishing mumkin.
- U holda meni faqat kuzatuvchi va sharhlovchi muxbir sifatida qabul qil.

Ular tajriba xususida bo‘lak gapirmadilar.

Mehmonlar ketishgach, Jahongir o‘zida horg‘inlik sezdi. Xonasiga kirib, yechinmay yotdi. Bir ozdan so‘ng eshik asta chertilib, xonaga o‘g‘li Jamshid kirdi.

- Dada, kechirasiz, men tasodifan suhbatlaringizni eshitib qoldim. Tajribangizda miyasiga elektrod o‘rnatilgan odamdan foydalanmoqchimisiz?
- Hali bir fikrga kelmadim. Nima edi?
- Elektrodni menga o‘rnatsangiz...

Jahongir o‘rnidan turdi. O‘g‘lining to‘satdan bu fikrga kelishiga tushunolmadi. Jamshid yoshligidan otasining kasbiga qiziqardi. Ammo ikkinchi kursda bionikaga havasi ortib, shu sohaga o‘tib ketdi. Endi muhim bir yangilik ustida ish olib borayotgan edi. Jahongir o‘g‘lining ilmga berilganidan xursand, lekin uning mustaqil so‘qmoq izlashidagi harakatidan qoniqmas edi. «Fanda mening etagimni tutma, o‘z yo‘lingdan bor. Chinordan barg uzaman demay, chinor bo‘lishga harakat qil», derdi. Jamshid bu o‘gitlarga amal qilar, lekin bari bir, oz bo‘lsa-da, otasiga suyanardi. Jahongir o‘g‘lining hozirgi fikridan ham shuni uqdi.

- Sabab? — dedi o‘g‘liga.
- Tajribangizga qatnashsam... balki ilmiy ishimga turtki bo‘lar.
- Buning ilmiy ishingga hech aloqasi yo‘q-ku?
- Bilaman, aloqasi yo‘q. Ammo tezlashishiga yordam berarmikin... Axir bu jasoratga bog‘liq narsa...
- Ilmiy ishni tezlatishga shoshilma. Puxtaroq qilishni o‘yla. Jasorat haqidagi gapingni men boshqa eshitmay. Quruq jasorat bilan olim bo‘lishni xayol qilsang, boshqa ish bilan shug‘ullan.

Jamshid alamidan oqarib ketdi.

- Dada, siz...
- Xo‘sh?
- Siz meni o‘ylamayapsiz. Vaqt ketyapti. Tengdoshlarim allaqachan dissertatsiyalarini yoqlab bo‘lishgan.
- Demak, ular senga nisbatan qobiliyatliroqdir? Buni o‘ylab ko‘rmadingmi?
- O‘ylab ko‘rdim. Lekin... ilmiy ish, kashfiyot bir joyda to‘xtab qolmaydi-ku? Daraja olingandan keyin ham davom ettirish mumkin-ku? Bir og‘iz so‘zingiz bilan...

Jahongir qovog'ini uyib, teskari qaradi.

— Menda bo'lak gaping yo'qmi? — dedi gapini kesib. Jamshid javob bermay chiqib ketdi.

Jahongir bir necha daqiqa harakatsiz turib qoldi. Yo'q, u o'g'lining gaplariga achchiqlanmadi. Jamshid maktabni bitirganidan so'ng bu xildagi yordamni ko'p so'ragan, har safar ham rad javobini olgan edi. Eng avval dorilfununga kirish paytida yordam so'radi. «Manzilga qadar aravangni mustaqil tortishga ko'zing yetsa kir, bo'lmasa hayotda yashashning osonroq yo'llari ko'p, o'shalardan birini tanla», degan javobni eshitsa ham o'qish istagidan voz kechmadi.

O'qib yurgan kezlari talabalarning ilmiy jamiyatida bionikaning kelajagi xususida ma'ruza qildi. Birinchi darajali mukofotni olishga yakkayu yagona nomzod bo'lib turganida, boshqa bir toliba unga nisbatan ustunroq darajada ma'ruza qildiyu mukofotni olib ketdi. Jamshid o'shanda ham otasidan yordam kutgan edi. Bu safar o'zi aytishga botinmay, onasini o'rta qo'ygandi. Er-xotin yolg'iz o'g'ilning taqdiri xususida o'zlaricha turli fikrda bo'lganliklari uchun, ikkinchi marta sen-menga borishdi. Shunday bo'lsa-da, Jahongir o'g'li va xotiniga bildirmay hay'at a'zolari bilan uchrashgan, har ikki ma'ruza bilan tanishgan edi. Tolibaning ma'ruzasidagi fikrlar, shubhasiz a'lo edi. Qiz fotosintezga asoslanib, quyosh nuridan kiyim va ozuqa olish yo'llari haqida bir qancha farazlarni ilgari surgandi. Jamshid esa jonivorlarda mavjud bo'lgan exolokatsiya to'g'risidagi umumiy fikrlari bilan cheklangandi. Hay'at Jahongirning obro'yini inobatga olib, mukofotni Jamshidga berishi ham mumkin edi. Lekin Jahongir bunga yo'l qo'yolmasdi. Uning o'zi hozirgi darajasiga mustaqil, hech kimga orqa qilmay erishgan, o'g'lining ham shunday bo'lishini istardi. Xotini o'g'lining taqdiri xususida gap ochsa, «ter to'ksin, yengil yutuqqa o'rganmasin», deb gapga nuqta qo'yardi.

U o'g'lining tirishib o'qiyotganini bilsa ham, talabni yanada qattiqroq qo'yaverardi. Qaysi bir yili dorilfunun uni maxsus fan bo'yicha dars o'tishga taklif etdi. Tasodif uni Jamshidning kursiga ro'para qildi. Imtihon paytida a'lochi talaba bo'lmish o'g'liga to'rt baho qo'yganida barcha hayratda qoldi. Jamshid indamadi. Lekin uning uchun ham onasi gapirdi. Oqibatida Jamshid uch kishilik komissiyaga imtihonni qayta topshirdi. A'lo baho oldi. Ana shunda u «otamdan yordam so'ramayman», deb qaror qilgan edi. Lekin o'qishini bitirgach, otasiga yana ro'para bo'ldi:

— Meni dorilfununda olib qolishmoqchi, — dedi.

— Juda yaxshi. Tabriklayman, — dedi Jahongir.

— U yerda qolish istagim yo'q.

— Nega?

— Men ilmiy-tekshirish institutining aspiranturasiga kirmoqchiman.

— Nima maqsadda?

Shunda Jamshid otasiga qalin daftar berdi. Daftardan uning bionikaga oid faraz va taxminlari, eng muhimi — exolokatsiyaga asoslangan yangi mashina yaratish fikri jamlangan edi. Jahongir daftarni o'qib chiqqach, o'g'liga oq yo'l tiladi.

Mana, ikki yildan beri Jamshid aspiranturada. Ularning institutlari yonma-yon joylashgan. Ish paytida deyarli ko‘rishmaydilar. Lekin Jahongir o‘g‘liga sezdirmagan holda uning ishidan hamisha boxabar bo‘lib turardi. Darhaqiqat, Jamshidning ishi sekin siljiyapti. Nailoj, muammo murakkab, uni osonlikcha hal etish mumkin emas. Lekin o‘g‘li shoshilyapti. Jahongir buni bugungi suhbatsiz ham anglab yurardi. Shoshqaloqlikning boisini izlardi. Barcha fikrlari uni «shuhratparastlik» degan tushunchaga olib kelardi. U o‘g‘lida g‘alaba nashidasidan mast bo‘lib yurish, shuhrat libosiga o‘ralish fikrlari borligini ko‘p yil burun payqagan edi. Shuhrat ketidan quvishning yomon natija bilan tugashini Jahongir biladi. Uning ko‘p iste’dodli tengdoshlari mana shuning qurboni bo‘lishdi. Bilimlarini takomillashtirish o‘rniga obro‘ talashish bilan o‘ralashib, oqibatda fan olamidagi kelajaklaridan mahrum bo‘ldilar.

Jahongir mana shularni o‘ylab, diqqati oshdi. Ko‘nglidagi g‘ashlikni uyqu bilan quvmoqchi bo‘ldi. Ammo uyqusi ham o‘chgan edi. Oshxonaga kirib qahva qaynatdi. O‘g‘lining xonasidagi chiroq o‘chmagan, aftidan u ham uyg‘oq edi...

Ertalabga yaqin ko‘zi ilingan ekan, o‘g‘li uyg‘otdi:

— Dada, nonushta tayyorladim.

Nonushtadan so‘ng Jamshid dasturxonni yig‘ishtirishga turdi.

— O‘tira tur, — o‘g‘li qayta o‘tirgach, Jahongir so‘zini davom ettirdi. — Men kechagi gaplaringni o‘ylab ko‘rdim.

— Men ham o‘yladim.

— Qanday xulosaga kelding?

— Siz istagan xulosaga. Sizdan yordam so‘ramasligim kerak edi.

— Gap bunda emas. Sen ilmga o‘zingni butkul bag‘ishlamasang, ilm senga hech nima in‘om qilmaydi. Sen buni unutmasing kerak. Shuhratni o‘ylash — o‘z yo‘lingga o‘zing g‘ov qo‘yding, degan gap.

— Men bularni tushunaman, dada. Lekin siz kashfiyotingiz bilan o‘ralashib atrofga befarq qaraydigan bo‘lib qolgansiz. Hozir ilmlarini emas, mansab va darajalarini ham qilich, ham qalqon qiladiganlar ko‘p.

— Ilgari yo‘q edi, deb o‘ylaysanmi? Sen bundaylarning qilich-qalqonidan qo‘rqma. Bu qilich-qalqon mo‘rt, bolalarning o‘yinchog‘i kabi soxta. Chinakam qilich-qalqon ilmda bo‘ladi. Sen uni faqat o‘zing yaratishing lozim.

— Nima uchun men maqsadimga og‘ir so‘qmoqdan borishim kerak?

— Nima uchun yengil yo‘ldan borishing kerak? Yo‘q, o‘g‘lim, kalta o‘ylabsan. Men istagan xulosaga kelmabsan. Sen daraja va unvon uchun emas, fanda yangilik yaratish uchun kurash. Daraja va unvon egasi bilan qabrga kiradi. Lekin kashfiyot yorug‘ dunyoda qoladi. Shuni unutma. Bu mavzuda bo‘lak bahslashmaylik. Xayolingni bo‘lmag‘ur gaplar bilan chalg‘itma.

...Ular avtobusgacha birga ketishdi. Keyin Jamshid institutga, Jahongir esa akademiyaga yo‘l oldi.

Jahongirning miyasiga elektrod oʻrnatib, elallomalar qatori tajribada qatnashishi bir oz qarshilikka uchrasa-da, har holda ilmiy kengashda maʼqullandi. Oradan oʻn ikki kun oʻtgach, YuNYeSKOdan ruxsat qogʻozini keldi. Shundan soʻng u ikki haftani neyroxirurgiya klinikasida oʻtkazdi.

Miyaga elektrod oʻrnatish neyrofiziolog va neyroxirurglar hamkorligining natijasi edi. Neyrofiziologlar, ruhiy toʻlqinga asoslanib, miya boʻlimlariga, xususan gipotalamus va gippokampga kuchsiz elektr quvvati bilan taʼsir etish mumkinligini aniqlashgach, neyroxirurglar miyaga bir necha juft jajji elektrod oʻrnatish yoʻlini izlay boshladilar. Neyroxirurglar jonivorlarning miyasiga elektrod oʻrnatayotgan damlardayoq dunyo olimlari bu ish yuzasidan ikki guruhga boʻlinishdi. Baʼzilar elektrod oʻrnatishga mutlaq qarshi, ayrimlar esa bu tadqiqotga xayrixoh edilar. Dastlabki tajribalar muvaffaqiyatli yakunlangach, fidoyi bir kishi topilib, uning miyasiga oʻn ikki juft jajji elektrod oʻrnatildi-da, jahon neyroxirurglarining anjumanida namoyish etildi. Elektrodlar miyaning maʼlum boʻlakchalaridan birini qitiqlab uygʻotar, qolgan qismlardagi ruhiy toʻlqinning, yaʼni his-hayajonning uygʻonishiga esa yoʻl bermas edi.

Katta anjuman oʻtayotgan saroy sahnasiga chiqqan kishi miyasiga elektrod oʻrnatilgan odamga sira oʻxshamas, barcha kabi soʻzlar, fikrlar, kular edi. Ammo maxsus radiomarkaz ishga tushishi hamon u butunlay oʻzgardi. Dastlab haykal kabi qotib turdi. Elektrodlar boshqaruvchining buyrugʻini qabul etgach, u markaz hukmiga itoatkorona boʻysuna boshladi. His qilish, oʻylash, fikrlash, quvonish huquqidan mahrum boʻldi. Radiomarkaz ishini toʻxtatgach, u yana avvalgi holiga qaytdi.

Anjuman ahlining bir qismi bu kashfiyotni tabriklagan boʻlsa-da, oradan koʻp oʻtmay, qator taraqqiyparvar davlatlar va nihoyat YuNYeSKO bunday tajribani taqiqlash toʻgʻrisida qaror qabul qildilar. Odamni tirik robotga aylantirish, uning erki, huquqini poymol etish man etildi. Biroq, ilmiy izlanishlar va tajribalar uchun, zarur paytda, maʼlum muddatga maxsus ruxsat olish mumkin, ammo ijozat vaqti tugagandan soʻng miya elektrodan xoli qilinishi shart edi.

Miyasiga elektrod oʻrnatilgach, Jahongir Toʻlqin oʻylagandek tirik robotga aylanmadi. Chunki Jahongirdagi elektrodlar miyaning kichik bir boʻlagigagina taʼsir koʻrsatar, uni his qilish huquqidan mahrum etolmas, eng muhimi faqat tajriba onlari ishga tushib, boshqa paytda miya faoliyatiga taʼsir koʻrsatish kuchini yoʻqotar edi.

Operatsiya professor kutganidan ham yengil oʻtdi. Shuning uchun tajribani paysalga solmay boshlab yubordi. Yangi tajriba tafsilotlarini qayd qiluvchi kundalik daftarning sahifalariga ilk satrlar bitildi:

«19... yil 16 aprel. OʻzFA Biofizika ilmiy-tekshirish instituti. Professor Alievning tajribaxonasi.

Soat 12.10. professor tajribaxonaga toʻgʻri neyroxirurgiya klinikasidan keldi. Kutib turgan

o'g'lini ham qabul qilmadi. U haddan ziyod o'ychan edi. Tibbiy komissiya tajribani boshlashga ruxsat berdi. Professorning yurak urishi mo'tadil. Miyada og'riq yo'q. Professorning ko'rsatmasi bilan tajriba avval bir jasad ustida olib boriladi.

Ikki elalloma murda turgan havosiz xonaga qo'yilgan. Professor qo'shni xonaga yotqizildi. Mushaklariga elallomadan keluvchi o'n to'qqizta sim ulandi. Miyasidagi ikki elektrod ham murdaning ruhiy qiyofasini tiklovchi elallomaga ulangan. Tajribaxona radioto'lqinlarni o'tkazmaydigan parda bilan muhofaza qilindi.

Soat 12.45. Tajriba rahbari, fizika-matematika fanlari nomzodi Mansur Xalilovning ruxsati bilan elalloma ishga tushdi.

Soat 20.20. Tajribaning birinchi bosqichi tugadi. Professor o'zini yaxshi his qilyapti. Tajriba davomida elalloma uzluksiz ishladi. Tajriba xulosasi hali noma'lum. Professor xulosalarni o'z kundaligiga yozib borajagini aytdi. Tajribaning ikkinchi bosqichi ertaga belgilandi».

Jahongir yaxshi tush ko'rgan odamday tiniqib turdi. Mushaklariga o'rnatilgan simlardan xalos bo'lgach, murdalar va elalloma joylashgan xonaga chiqdi.

— Elalloma qanday ishladi? — deb so'radi u shogirdidan.

— O'zgarish yo'qqa o'xshaydi...

— O'xshaydimi yo aniqmi? — Jahongir shunday deb, shaffof plastmassa oynakka yaqinlashdi. Yigitning jasadiga tikilib qoldi. — Yanglishmayapsanmi?

— Balki menga shunday tuyulgandir?

— Bo'lishi mumkin. Sen elalloma tiklagan voqealardan bexabarsan-ku... G'aroyib olamga kirib qoldim. «Arki Oliydan o'tganingizdan so'ng Sarduatik mavzeida bir-biriga ro'baro' madrasa va xonaqohni ko'rasiz. Ular osmon g'ashini va Chin suratxonasining rashkini keltirar darajada baland va bezaklari go'zal. Binoning mustahkamligi bilan ustunlarning nozikligini, naqshlar va xushxat lavhalarni na yozuv qalami, na bayon raqami tasvirlashga qodir...»

— Kechirasiz, domla, so'zlaringizga tushunmadim. Aytganlaringiz biror asardan parcha emasmi?

— Yo'q, bu yigitning miyasiga o'rnashib qolgan gaplar. Samarqandga yo'l olganida kimdandir eshitgan. Men Registondagi Sherdor madrasasi o'rnida ilgari Ulug'bek qurdirgan xonaqoh bo'lgan, deb eshitgan edim. Shu xonaqohni yigitning ko'zi bilan ko'rdim. Elalloma ishga tushgach, meni xuddi uyqu bosganday tuyuldi. Keyin ko'z oldimda tushunarsiz qizil tasvirlar gavdalandi. So'ng katta karvon safida otda ketayotganday bo'ldim. Quyosh nuridan yelkam kuydi. Otdan anqib turgan ter hidini aniq his etdim. Men hamma narsani unutdim. O'n beshinchi asrga xuddi shu yigit bo'lib qaytganga o'xshab qoldim. Yigitning gaplarini go'yo men aytdim. Go'yo Samarqand tuprog'ida o'zim yurdim, ajoyib narsalardan o'zim ta'sirlandim, odamlarning gaplarini ham o'zim eshitdim. Eng muhimi bu narsalarning hammasi xotiramda yaxshi saqlanib qoldi. Bunday bo'lishini sira kutmagan edim.

— Demak, elalloma yigitning ruhiy dunyosini to'la tiklab ongingizga yo'naltira olibdi-da?

— To'la emas. Ayrim yerlarda uzilishlar bor. Nazarimda yigitga unchalik ta'sir etolmagan oddiy voqealarni tiklashga elallomaning qurbi yetmagan.

- Biomaydonning kuchi kishining ta'sirlanish darajasiga bog'liq emasmikin?
- Balki shundaydir. Tajribaning navbatdagi bosqichlari hali oldimizga ko'p muammolarni tashlaydi shekilli.
- Tajriba tahlilini qachon o'tkazamiz?
- Hozircha bir narsa deyishim qiyin. Barcha xodimlar belgilangan ishlarini vaqtida tahlil etib, xulosalab turishsin. Men ko'rgan, eshitganlarimni yozib boraman. Elallomaning ishlash jarayonini tiklangan voqealarga solishtirib tahlil qilamiz. — Jahongir shunday deb eshik tomon yurdi. Tajribaxona yo'lagida uni o'g'li kutib turgan edi. Ota-bola uygacha piyoda ketishdi. Jahongir tajriba paytida ko'rganlarini o'g'liga aytmadi. Jamshid dadasining gapni bir-biriga ulanmagan turli voqealarga burayotganidan tajriba haqida so'z ochish niyati yo'qligini sezdi. Ikkovlon anhor bo'yidagi yemakxonada ovqatlanishdi. Jamshid bir aylanib kelaman, deb otasi bilan xayrlashdi. Jahongir esa uyiga yo'l oldi. Xonasiga kirib qalin daftarni ochdi. Oq sahifada husnixat bilan yozilgan dastlabki satrlar paydo bo'ldi.

SABOQDOSHLAR (KUNDALIKNING BIRINCHI SAHIFASI)

Qorabayirni yetaklab kelayotgan yigit madrasaga yaqinlashib to'xtadi. Yelkasidagi beqasam to'nni qo'liga oldi-da, hayrat bilan binoga tikilib qoldi. To'rt gumbazli, to'rt minorali, ikki qavatli imorat uning hushini olgan edi. U mo'jizaga duch kelganday kiprik qoqmasdi: madrasaning peshtoqi gumbaz bilan, moviy gumbaz esa osmon bilan payvasta, yigitning nazarida madrasa gumbazi samoni ushlab turganday, bino vaznidan esa go'yo Yerning umurtqasi qirsillab ketayotganday edi. Devordagi naqshlar mag'ribga bosh qo'ygan quyoshning ojiz nurida ko'zni olguday tovlanardi...

- Yigit madrasadan chiqib kelgan uzun choponli, katta oq salla o'ragan basavlat kishiga yaqinlashdi. Salom berdi. Kishi muloyimgina, qiroat bilan alik olgach, so'rashga jazm etdi:
- Taqsir, aybga buyurmaydilar, men tolibi ilmlardan birini istab kelib edim.
 - Kimni?
 - Mulla Abdulvahobni.
 - Abdulvahobnimi?! — Kishining qoshi sal chimirildi. Yigitga boshdan-oyoq razm soldi. Bu o'zgarishni yigit sezdi. — U kimingiz, akangizmi?
 - Akam emas, saboqdoshmiz. Padari buzurgvorlarining duolarini yetkazmoqchi edim.
 - Shunday deng... — kishi yana bir oz jim qoldi.— Abdulvahobni bu yerdan topa olmaysiz.
 - Sabab?
 - Do'stingiz saboq olmoq o'rniga ko'rnamaklik qildi. Shakkokligi uchun jazoga loyiq edi. Lekin davlatpanohning marhamati nasib etib, Xudo bir asradi. Ilm olish istagi yo'q ekan, madrasadan yuz o'girdi.
 - Uyga ketdimi?
 - Uni hozir balki xonaqohdan toparsiz.
 - Manavi yerdanmi?
 - Yo'q, u bu yerga kelmaydi. Shahriston etagidagi xonaqohni qarang.

Ot burnini kerib pishqirdi. Yigit uning bo'yniga erkalab shapati urib qo'ydi-da, orqasiga

qaytdi. Asr namoziga hali vaqt bor, shu bois u avval karvonsaroyga qo'nib, keyin namoz payti masjidga chiqishni ixtiyor qildi. U Samarqandga yo'l olganida Abdulvahobga suyangani edi. Musofirlik tuzini endi totayotgan yigit uchun shahristonda tanish kishisining borligi ancha dalda bo'lardi.

Abdulahoblarning yeri ularnikiga tutash, lekin uch-to'rt barobar katta edi. Qishloqning aksar ahli Abdulvahoblarning yerida ishlar edi. Andijon yo'lidagi adirda ham, O'sh tevarigidagi tog'larda ham shularning chorvasi o'tlardi. Yigit Abdulvahob bilan bir maktabda tahsil olgan edi. Abdulvahobning xotiri zaifroq, uquvi aytarli baland emasdi. Madrasaga borish istagi bo'lmasa-da, otasining po'pisasidan qo'rqib, rizolik berdi. Besh yil muqaddam ota-bola Samarqandga yo'l olishdi. Boybuva og'zi qulog'ida xursand bo'lib qishlog'iga qaytdi. Endi uning o'g'li haqida gap ketsa «mulla Abdulvahob» deb tilga olinadigan bo'lgan edi. Madrasaga kirganidan beri Abdulvahob qishlog'iga birrov bo'lsa-da, kelib-ketmadi. Boybuvaning o'zi ikki marta Samarqandga borib keldi.

Mana shu qo'shni yigit tahsildan yuz o'giribdi. Uning yo'ldan ozgani musofir umidiga soya sorsa ham, u hamqishlog'i bilan uchrashish istagidan voz kechmadi. Bir tomondan, qishloqdan olib kelgan omonatni topshirmog'i lozim bo'lsa, ikkinchi tomondan, uni qalandarlik jandasida ko'rmoqchi edi.

Yigit qorabayirni otxonaga bog'lab, tepadagi hujraga joylashdi. Keyin pastga tushib, hovuz labida turgan obdastani oldi-da, tahoratga o'tdi... Obdastani o'rniga qo'ya turib, unga razm soldi. Qorniga chertib qo'ydi.

— Ha, mehmon, xush yoqdimi? — dedi yelkasiga sochiq tashlagan yag'rindor kishi.

— Misi toza ekan, — dedi yigit.

— Ha... mendagi mollarning bari asl. Misgarmisiz, deyman-a?

— Yo'q, zargarman.

Namoz vaqti yaqinlashgani uchun yigit gapni qisqa qilib ko'chaga chiqdi. Masjidga yetguncha uchragan qalandalarga qarab bordi. Biroq, istagan odamini uchrata olmadi. Masjidda odam ko'p edi. Yigit namozni poygastroqda o'qidi.

Yuziga fotiha tortib, boshqalar qatori o'rnidan turgach, ko'zi minor tarafdagi ikki qalandarga tushdi. Abdulvahobni shulardan so'rab bilay-chi, deb o'sha tomonga yurdi. So'rashga og'iz juftlagan ham edi-ki, qalandalardan biri unga peshvoz chiqdi:

— Shamsibek!

Yigit hayrat bilan unga qaradi: Abdulvahob! Qorayibdi, ozibdi. Yonoq suyaklari turtib chiqib, ko'zlari kirtayib qovoqlari salqib qolibdi. Faqat ovozi o'zgarmabdi. Yuzidagi kulgichi ham sal sezilib turibdi... Ko'rishishdi. Keyin bozorga kiraverishdagi choyxonaga borishdi. Abdulvahob xursand edi. Har holda Shamsibek hamqishlog'i, undan ota yerining isi keladi. Shamsibek esa na xursand, na xafa edi. Saboqdoshidan ko'z olmay, undan ilgarigi Abdulvahobni qidirardi.

Olti yil oldingi Abdulvahobdan deyarli hech narsa qolmabdi.

— Madrasani tark etdingizmi?

— Men din-shariatning puturini ketkazgan do‘zaxilar davrasidan qaytdim. Oxirat andishasini deb, pirimning etaklaridan tutdim. Bandalarga haqdan imon so‘rab, ibodat qilishdan ulug‘ savob yo‘q!

Shamsibek miyig‘ida kulib, chinni piyoladagi ko‘k choydan bir ho‘pladi. Keyin fonusning nurida yaltirayotgan botiq ko‘zlarga qarab, dedi:

Yorab, loyimni-ku, qorgan o‘zingsan,

O‘rish-arqog‘imni o‘rgan o‘zingsan.

Yomonmanmi, yaxshi, men qandoq qilay?

Taqdir manglayini bergan o‘zingsan.

Abdulvahobning choynak tutgan qo‘li titrab ketdi.

— Astag‘firulloh! — dedi ovozi ko‘tarib. — Tavba qiling!

Narigi so‘rida o‘tirganlar ularga qarab qo‘yishdi.

— Tavbaga na hojat? — dedi Shamsibek xotirjam. — Bu so‘zlarni Umar Hayyom aytgan. Men gunoh ish qilsak ham, savobga qo‘l ursak ham Haq-talodan demoqchi edim. O‘zgalar uchun ibodatga berilib, umrni xazon qilishdan na foyda? Har banda o‘z gunohi uchun o‘zi istig‘for aytmagi durust emasmi? Ilmdan yuz o‘girib, umrni juvonmarg qilmoq gunoh emasmi?

— Tilingizni tiying! Do‘zaxilarning so‘zini aytmang!

— Xo‘p, sizningcha bu do‘zaxilarning so‘zi, yo‘lingiz esa tariyqat ekan, unda avvalgi yo‘lingiz-chi? Ilm olish sizningcha gunohmi?

Abdulvahob suhbatdoshiga yovqarash qildi-yu, javob bermadi. Ular jim qolishdi. Shamsibek narigi so‘rida gurunglashayotganlarga qarab o‘tirar, Abdulvahob esa qo‘lidagi tasbehga tikilib qolgandi.

Shamsibek saboqdoshining so‘zlarida sun‘iylik sezdi. Abdulvahobning yoqa ushlashi, kalima keltirishi kimlargadir taqlid qiluvchi masxarabozni eslatardi. Uning «oxirat andishasini deb, bandalarga imon so‘ramoq uchun» qalandarlikni kasb qilganiga shubha uyg‘ondi.

Abdulvahob tabiatan bunday emasdi. U ko‘proq otasiga tortgandi. Boybuva bir mo‘‘jaz masjid soldirib, ustalarning yarim haqini bermay, o‘zidan ketgan pulni ham qishloq ahlidan undirib olgan edi. Abdulvahob maktabga kelganida qo‘ynida oq kulcha non bo‘lar, bolalar bor ovoz bilan saboqni takrorlashga tutinishganida u o‘g‘rincha non tishlab o‘tirardi. Buning uchun boshiga tayoq kelgan paytlar ko‘p bo‘lardi. U hech mahal o‘rtoqlarini siylamasdi.

Aksincha chaqimchiligi uchun hamma uni yomon ko‘rar edi. Kunlarning birida otasi berib yuborgan payshanbalik pulning bir tangasini yashirganidan xabar topgan bolalar, o‘ch olish qasdida bu qilmishini darhol domlaga yetkazgan edilar. Ham domlasidan, ham otasidan jazo olgan Abdulvahob shundan so‘ng saboqdoshlarini battar yomon ko‘rib qolgan edi.

Madrasaga ketadigan yili Shamsibeklarning qo‘rg‘oniga o‘t tushgan, yon qo‘shni bo‘la turib

na otasi, na o‘zi hattoki devor oshib qarab qo‘yishgan edi.

U mana shu kabi gunohlari evaziga endi tavgaga yuz o‘girdimi?

Nahotki?

Oq yaktakli kishi choyni yangilab ketgach, Abdulvahob Shamsibekka qaradi:

- Kelishingizning boisi nima?
- Davlatpanoh yo‘qlabdilar. Sababi qorong‘u.
- Ko‘hakka bormog‘ingiz lozim ekan.
- Sabab?
- Bu oqshom iblislar bilan suhbat qurgani Bog‘i maydonga yo‘l solganlar.
- Fikringizni anglamadim?
- Yulduz sanaydilar.
- Ko‘hak olismi?
- Yo‘q.
- Hamroh bo‘la olasizmi?
- Maylingiz. Saharda yo‘lga chiqamiz.

Sovuqqina xayrlashishdi.

Tongda sovuqqina omonlashishdi. Abdulvahobning ulovi bo‘lmagani uchun ikkovi ham piyoda ketishdi. To shahardan chiqishgunicha Abdulvahobga kim bitta non, kim chaqa berdi. Shamsibek otini yetaklab sal orqada yurdi. Yo‘lda Abdulvahob dini islomning xokisor bo‘layotgani haqida gapirib bordi. So‘z oralarida benamozlarni qarg‘adi. Obi rahmatga yaqinlashganda, yo‘l chetidagi naqshinkor choyxonada to‘xtashdi. Ariqdagi tiniq suvda yuvilib, tolning soyasidagi so‘riga o‘tirishdi. Do‘ppisining piltasi ko‘rinib qolgan, sal oqsaydigan puchuq bola choy-non olib kelib qo‘ydi.

Ariq labidagi supada davra qurgan mo‘ysafidlarning biri qo‘liga tanbur oldi. Mayin kuy taraldi. Do‘ppisini tizzasiga qo‘ygan ko‘zi yumaloq kishi likopchani chertib, kuyga jo‘r bo‘ldi:

Ul kimu go‘zallarga xandon lab bermish,

Dard ahliga jigar qonin zap bermish.

Qismatimiz shodlik bo‘lmasa ne g‘am,

Shodmiz, chunki g‘amni ming-minglab bermish...

Xonandaga hushi ketgan Shamsibekning xayolini Abdulvahob bo‘ldi:

— Yo Olloh! Musulmonlar fisqu-fujurga berilib, oxiratni unutishdi. O‘zing kechir, yo parvardigor, hech kim uzlatga chekinishni istamaydi... — U yana nimalarnidir pichirladi.

Keyin ovozini ko'tardi: — Arvohlarning qarg'ishiga qolyapmiz... Qiyomat yaqin, qiyomat... Bandalar mahsharini eslamay qo'yishdi... — Abdulvahob tasbeh o'girib, Shamsibekka qaramay gapirardi. — Davlatpanohingizga hazrat Qusom arvohlarining qarg'ishi tegdi.

— Unday demang!

— Deyman! Har bir sulton uchun yilda bir marta hazratning qabrlarini ziyorat qilish ham farz, ham qarz. Davlatpanohingiz bu safar udumni buzdi. Hazratning dahmalariga bosh qo'yishni o'ziga ep ko'rmadi.

— Buni kim aytdi?

— Muhtasibimiz Sayid Oshiq masjidda yolg'iz o'zlari tilovot qilib o'tirgan ekanlar. Arzu samo3 birdan qisirlab ketibdi. Shohizinda tomonda chaqmoq chaqibdi. Hazratning qabrlari ustida bir soya qad rostlabdi-da, muhtasibimizga qarab: «Sulton Ulug'bek ziyorat qilmoqni lozim topmay, shariatga shak keltirdi. Bundan musulmon ahlini ogoh qil. Samarqandliklar bu gunohni qon bilan yuvmagunlaricha boshlari kulfatdan chiqmas!» debdi...

— Yana tuhmatning uyasini kovlayapsanlarmi?

Narigi so'rida ularga orqa o'girib o'tirgan kishiga e'tibor berishmagan ekan. Mahobatli bu sipoh Abdulvahobning so'zlarini eshitib, g'azabga kelgan edi. Qovog'i uyulganidan peshanasidagi ajinlar yig'ilib, qalin qoshlari tutashib ketgandi. U Abdulvahobni yelkasidan tutdi:

— Qani, yur-chi, gaplaringni shahriyor ham eshitsinlar!

Abdulvahob «yo-hu!» deb jazavaga tushdi. Odamlar: «Qalandarga tegma!» deyishsa ham, sipoh: «Qalandar bo'lsa toat-ibodat qilsin, sultonning muborak nomlarini bulg'amasin!», deb turtib-turtib yo'lga soldi. «Sen ham yur!» degach, Shamsibek noiloj oldinga tushdi.

Suv yoqalab xiyla yuqorilashdi. Ko'hakning etagidagi bog' qo'ynida qad rostlagan qasrga yetib kelishgunicha sipohning jag'i tinmadi. Gaplaridan Abdulvahobni kaltaklashga ham tayyor edi-yu, lekin bir andisha uni ushlab turardi: u «xudoning gadolari»ga qo'l ko'tarmoq aybligini bilardi.

Sipohni Bog'i maydon darvozasi oldidagilar to'xtatishmadi. Nozik did bilan bino qilingan bog' oralab bir oz yurilgach, ajib imorat qarshisidan chiqdilar. Ustunlari toshdan bo'lgan oshiyonning to'rt tarafi ayvon edi. Ulug' ayvon ichida toshdan ishlangan bir ulug' taxt bor edi. Abdulvahobga bu yerlar tanish. U qarshisidagi imoratning Chilstun deyilishini, sal narida izarasi tamom chinni bo'lgan Chinniy qasr borligini bilardi. Shamsibek esa bundan bexabar. U kecha Ulug'bek madrasasini qanday taajjub, havas, iftixor bilan ko'rgan bo'lsa, hozir ham bu ajabtovur imoratga shunday zavq bilan tikilib qoldi. Atrofdagi zar to'nli odamlar ko'pam e'tiborini tortmadi. Sipoh ularni bog' ichkarisiga olib o'tib, boshqa bir sipohga topshirdi-da, iziga qaytdi. Peshin namozini shu yerda o'qib olishdi. Namozdan keyin ularni olib kelgan sipoh yana paydo bo'ldi.

— Qani, haligi gapni shahriyorning o'zlariga ayt-chi!

Yana Chilstun qarshisidan chiqishdi. Endi bu yer gavjum edi. Ayvonda yurt akobirlari, taxtda

esa, samovash to‘n kiyib, ixcham salla o‘ragan muloyim chehrali bir kishi o‘tirardi. Shamsibek uni ilgari hech ko‘rmagan bo‘lsa-da, davlatpanoh ekanini his qilib, tiz cho‘kdi. Abdulvahob sal egilib qulluq qildi.

Ulug‘bek indamadi. Uning yonidagi xiyol bukchayib qolgan oq soqolli qariya sipohdan so‘radi:

— Bularni haydab kelishingning boisi nima?

Sipoh ta‘zim qilgandan keyingina so‘zlashga jur‘at etdi:

— Taqdir, bu fosid xayollari shahriyorning muborak nomlarini bo‘htonga bulg‘ayotgan ekanlar.

Qalandarga tikilib turgan Ulug‘bek jilmayib qo‘ydi:

— Qamariddin, eski tanishni yana olib kelibsan-da? — dedi. Sipoh bir qalandarga, bir Shamsibekka qaradi-yu, shahriyorning so‘zlarini anglamadi.

— Sen ilgari Xudoning bu gadosini tolibi ilm libosida olib kelib eding. Tahassurkim2, mullavachchalik yo‘lidan butkul qaytib, libosini endi topibdi.

— Qani u nimalarni so‘zlayotgan ekan?

— Arvoh qon tilaganmish...

Sipoh bor gapni aytishga istihola qildi. «Sulton Ulug‘bek gumroh, dahriy» degan gapga tili aylanmadi. Ammo shahriyor gapning mazmunini uqdi. Shamsibek uning g‘azablanishini, qalandarni jazoga buyurishini kutgan edi, lekin ne ajabki, sulton g‘azablanish o‘rniga jilmaydi.

— Shuginami? Xudoning telba gadosini behuda bezovta qilibsan-da, — Ulug‘bek shunday deb, qalandarga yuzlandi. — Xo‘sh, Abdulvahob, sen bu kulohu jandani qay maqsadda kiyib eding?

— Oxiratni deb, toat-ibodatni deb...

— Balli. Vazifang — bandalarning gunohini Haqdan so‘rab, ibodat qilish. Sen esa fisqu fujur bilan bandsan. Bu holda ibodating o‘z gunohingni ham yuvishga yetmaydi-ku?

— Fisqu fujurdan Ollohning o‘zi asrasin. Men osoyishtalikni ko‘zlab, bandalarni arvohning talabidan ogoh qilayapman.

— Avvalo, raiyat osoyishtaligiga sen qayg‘urma. Bu sultonning yumushi. Sen arvohning so‘zidan qay holda ogoh bo‘la qolding? Uni o‘zing ko‘rdingmi?

— Yo‘q, pirim ko‘rganlar.

— Uni faqat piring ko‘ribdi-da? Ajab!.. Arvoh yana nima debdi? Ha, ziyorat qilmadi, debdimi? Agar shunday bo‘lsa, u ham aldabdi. Piring ham aldagan. Sababki, ul kuni Barhayot shoh qabrlari yonida tilovat qilganimga Haq-taoloning o‘zi shohid... Endi o‘zing ayt, senga qanday jazo beray?

Abdulvahobning o‘rniga sipoh javob qildi:

— Hazrat shahriyor, bu telbaning tashhizi xotiri uchun darra zarur.

Ulugʻbek «jim» deganday oʻng qoʻlini sal koʻtarib qoʻyib, Abdulvahobga tikildi. Abdulvahob shahriyorga tik qarashga jurʻat etdi:

— Mening jonim Ollohning omonati. Lozim boʻlsa bul omonatni sizning qilichingiz bilan oladi.

Ulugʻbek kulimsirab bosh chayqadi:

— Yoʻ-oʻq... Qilichim qonsiragan emas. Sohibqiron bobom shamshirini har narsaga ham uravermas edi. Men ham urmayman. Qamariddin, uni koʻchaga uzatib qoʻy. Ammo tega koʻrma. Jazosini Tangrining oʻzi bergay.

Shamsibek «Shahriyor Abdulvahobni jazolamasa edi», degan xavotirda turardi. Yoʻq, u doʻstiga achinmasdi. Aksincha, qalandar jazolansa, sultonga qarshi yangi igʻvolarning bosh koʻtarishidan xavfsirardi. Qamariddin Abdulvahobning yelkasiga asta turtib, darvozaga olib chiquvchi yoʻlga imladi. Keyin Shamsibekka yuzlandi.

— Taqdir, hazrat shahriyorga arzim bor edi, — dedi Shamsibek shoshib.

— Qanday arz?

Shamsibek qoʻynidan moʻʻjaz poygir chiqardi. Qamariddin shohona muhrni koʻrib, uni darrov Shamsibekning qoʻlidan oldi-da, taʼzim bilan borib sultonga uzatdi.

— Shamsibek Ismoil xoji oʻgʻliman, degin. Nechun barvaqtroq aytmadig? — dedi Ulugʻbek maktubga koʻz yugurtirgach.

Shamsibek javob oʻrniga taʼzim qildi. Chunki voqea ravshan, sababni aytish oʻrinsiz edi.

Ulugʻbek poygirni yonidagi navisandaga berib, yana Shamsibekka qaradi:

— Qalandarga hamroh boʻlishingning sababi nedur?

— Saboqdoshmiz, shahriyorim.

— Ajab, ikki doʻstning biri davlatimning ajnihiida igʻvo bilan, yana biri fuqaroni aldash bilan mashgʻul, — Ulugʻbek shunday deb aʼyonlariga qarab oldi. Katta-kichik salla oʻrganlar bosh irgʻab tasdiq ishorasini qildilar. Davlatpanoh qarshisida taʼzim qilib turgan Shamsibek boshini koʻtarib, unga savol nazari bilan qarashga jurʻat etdi.

— Sen misni qalbaki oltinga aylantirish ilmidan xabardor emishsan?

— Xabarim bor, shahriyorim. Misni oltinga aylantirishim rost. Sochdan kumush olishim ham rost.

— Shu yoʻl bilan fuqaroning koʻzini boʻyab, boylik toʻplashing-chi?

— Agar shul gap chin desangiz, xazinam siznikidan ancha moʻl boʻlmogʻi lozim edi. Ammo ustodlarim meni fuqaroga xiyonat qilmoqqa oʻrgatishmagan. Tavbalari qabul boʻlgur bobom har yangi ishga qoʻl urganimda fotiha berib, shunday derdilar:

To qaygʻu qoʻlidan ichmasdan sharob,

Quvonib ichmadim aslo mayi nob.

Hech kimning tuziga non botirmayman,

To oʻz jigarimdan yemayin kabob.

Ulugʻbekning yuzida kulgi oʻynadi. Bunday paytda uning koʻzlari yana ham mehrli boqardi. U soqolini silab, yonidagi kishiga dedi.

— Mavlono, taxminingiz tahsinga loyiq. Yigit siz aytganday qobil. Ajnihimizga chaqirib yanglishmabmiz.

Shamsibekning yonida turgan Qamariddin uni sal turtib qoʻydi. Shamsibek Ulugʻbekka yaqinlashib, tiz choʻkdi. Zangori shohiga sariq zar bilan bezak berilgan toʻnning etagini oʻpib, koʻziga surtdi. Shu topda ustozining gapini esladi: «Oxiratda Xudo yorlaqagur sohibqiron hayot ekanliklarida mirzo Ulugʻbek Qozizodayi Rumiyning ilmlarini hurmatlab, etaklaridan oʻpgan ekanlar. Shunda sohibqiron juda ranjib «shahzodalarning etak oʻpmoqligi butkul nojoʻya. Dunyo sening oyogʻingni oʻpmogʻi lozim», degan ekanlar. Shahriyor bobolarining oʻgitlarini quloqqa olsalar ham, ilm ahliga boʻlgan eʼtiborlarini kamaytirmaganlar. Ajab emas, siz ham sultonning panohida unib-oʻssangiz...»

Ulugʻbek Shamsibekning yelkasidan yengil ushlab turgʻizdi-da, aʼyonlari bilan bir-bir tanishtirdi. Soʻng haligacha qoʻl qovushtirib turgan sipohning yoniga qaytdi:

— Qamariddin, mehmonimning aduvbandi ekansan, uni oʻzingga topshiray. Bir oz hordiq chiqargach, oqshomgi suhbatimizga olib kelursan.

Ular taʼzim qilib, tislaniib chiqishdi.

UNUT BOʻLGAN «QARINDOSH»

«19... yil, 17 aprel. OʻzFA Biofizika ilmiy-tekshirish instituti. Professor Alievning tajribaxonasi.

Soat 11.00. Tajribaning ikkinchi bosqichi boshlandi. Professor oʻzini yaxshi his qilyapti. Yurak urishi moʻʼtadil. Meditsina komissiyasi uning miyasida oʻzgarish qayd qilmadi.

Soat 19.35. Tajribaning ikkinchi bosqichi tugadi. Elallomalarning ishlashida noaniqlik sezilmadi. Professor oʻzini yaxshi his qilyapti. Bugun matbuotda tajribaning boshlangani va elallomalarning ishlash xususiyati haqida maqola berildi. Professor bundan negadir ranjidi. Sababi nomaʼlum.

Tajribaning uchinchi bosqichi ertaga boshlanadi».

Quyosh baland imorat ortida koʻrinmay qolgan, shahar oqshom ogʻushiga kirib borardi. Havodagi mayin bir ilqlik Jahongirda piyoda sayr qilish istagini uygʻotdi. U koʻchaning narigi betiga oʻtgach, oʻgʻlining ovozi eshitib toʻxtadi.

— Hormang, dada, — dedi Jamshid yetib kelgach. — Sizni kutib turuvdim. Chiqqaningizni sezmay qolibman. Bugun tajribaxonangizga kirmoqchi edim, qoʻyishmadi.

— Toʻgʻri qilishibdi. Kirib nima qilarding?

— Har holda...

— Oʻz ishingni oʻyla.

Ular jim qolishdi. Jahongir gulini to'kib chim barg chiqargan beg'ubor novdalarga suqlanib boqardi. Jamshid esa otasiga, uning o'ychan ko'zlariga qaraydi. Odamlar unga «ko'zing dadangga, gavdang tog'alaringga o'xshaydi», deyishadi. Darhaqiqat, Jamshid otasiga qaraganda balandroq, yelkalari keng, baquvvat yigit bo'lgan edi.

— Dada, — dedi Jamshid o'rta tushgan jimlikni buzib, — biz faqat ishda ko'rishib, xizmat yuzasidangina gaplashadigan odamlarga o'xshaymiz. Shuni hech sezganmisiz?

— A? — Jahongir bu savolni taajjub bilan kutib oldi. Darrov javob qaytarmadi. «Faqat ish yuzasidan... Darhaqiqat, keyingi paytlarda shunaqa bo'lib qoldim, shekilli? Lekin bu o'tkinchi narsa». Jahongir shularni xayolidan o'tkazib, o'g'liga e'tiroz bildirdi: — Gaping noo'rin. Ahil ota-bola o'rtasida bo'ladigan munosabat bizda ham bor. Ish haqida ko'p gapirishimiz ham tabiiy. Fan bizning butun borlig'imiz bo'lib qolgan, shunday emasmi?

— Shunday. Lekin shu yaxshimi?

— Gapingga tushunmadim?

— Ota-o'g'il o'rtasida mehru oqibat bo'lmasligi kerakmi?

— Bizda yo'qmi?

— Bilmadim. Sizning mehringizga shak keltirolmayman. Lekin mening mehrim uchun o'rin bermaysiz.

— Ya'ni?

— Ya'ni, ayrim paytlarda farzand otasini o'ylasa, otasi haqida qayg'ursa-yu, ota ishingni qil, desa.

— Juda to'g'ri. «Ayrim paytlarda» ota bemor bo'lsa yoki og'ir ahvolga tushib qolsa, bo'lak gap. Lekin sen aytgan «ayrim paytlarda» ota sog'-salomat, boshqalar kabi xizmatini o'tayapti, hech qayg'urishga o'rin yo'q. Bunday paytda farzand otaning so'zlarini quloqqa olishi kerak.

— Jahongir shunday deb kuldi-da, o'g'lining yelkasiga qoqib qo'ydi. Keyin bugun matbuotda e'lon qilingan maqoladan so'z ochib, uning fikrini so'radi. Jamshid gapirayotganida otasi kabi ko'zlarida o'ychanlik paydo bo'lardi. Shoshilmay so'zlardi. Mantiqsiz gaplar tilidan deyarli uchmasdi. Jahongir o'g'lidagi bu xislatni hurmat qilar, ammo buni aytib maqtamasdi.

Yoshligida mahallalarida bir befarzand qariya bo'lardi. U kun bo'yi eshigi og'zida qurut, pista, papiros sotib o'tirar, bolalarni pista bilan siylab turgani uchun atrofi gavjum bo'lardi. Otadan yetim qolgan Jahongirning onasi qanotida ishlashi, o'qishi bu qariyaning nazariga tushgan, bu oila xususida qalarda gapirsa «Ollohning bandalariga bergan ne'mati ko'p. Ammo ne'matlarning eng ulug'i — farzandlarning aslligidir», derdi. Bu maqtovni Jahongirning o'zi ham eshitgan, qariyaga mehri ortib, uzoq vaqt quvonib yurgan edi.

Hozir negadir shu qariyaning so'zlarini eslab, xuddi o'sha damdagiday xursand bo'ldi.

Anhor yoqasiga yetishganida Jamshid to'xtadi.

— Dada, bugun o'rtoqlarim bilan uchrashmoqchi edik.

— Yaxshi. Faqat kechikma.

Jamshid xayrlashib, ketdi. Jahongir sohildagi bo'sh kursiga o'tirdi. Sal naridagi majnuntol panasida bir-birining pinjiga kirib o'tirganlarga ko'zi tushib, o'rnidan turdi-da, nari ketdi.

Xayolini elalloma tiklagan bugungi voqealar egalladi...

«...Fanimiz taraqqiy etib ketdi... Bu jumлага ba'zan «olamshumul yutuqlar», «beqiyos darajada...» degan sifatlarni qo'shib qo'yamiz. Ha... biz bugunni, kelajakni o'ylab, o'tmishni unutayotibmiz... Insu jinslari ming yil ilgari ham ma'lum bo'lgan ekan. Hozir bir yuz ellik ming marta katta qilib ko'rsatuvchi zarrabinlarz bilan mikroblar xillarga ajratiladi. U paytlarda oddiy ko'z bilan qanday farqlashdi ekan? Yo tafakkur bilan aniqlanganmikin? Bunday deyilsa, tafakkur ham dalillarga suyanadi-ku? Roziy fojiasi to'g'ri bo'lib chiqyapti. Ko'pchilik: «Qariganda muttasil o'qishning ta'siridan ko'zi ko'rmay qolgan», derdi. Bu faraz isbotlanmadi. Roziy ko'zining operatsiya qilinishi ham chin bo'lib chiqishi ehtimol. Ajab, ming yil ilgari ko'zni operatsiya qilishga botinganlar... Bizning yutuqlarimiz esa ko'z ko'rib, quloq eshitmagan bo'lib chiqyapti...»

Jahongir xayollari bilan bo'lib, uyiga yaqinlashganini sezmedi. Uning fikrini qiroat bilan berilgan salom buzdi:

— Assalomu alaykum, qarindosh!

Jahongir qarshisidagi devsiyat, mo'ylovdor kishini darrov taniy olmadi.

— Tanimadilar shekilli-a, qarindosh, men Akbarman.

Jahongir tog'avachchasini shundan keyingina tanidi.

— E, Akbar aka, omonmisiz, — deb so'rashdi-da, ichkariga boshladi. Akbarning oyog'i og'riq ekanmi, yo oyoqlar bu og'ir gavdani ko'tarishga qodir emasmi, har holda u zinadan oqsoqlanib, sal bukilibroq chiqdi. Jahongir uchinchi qavatda turar, shuning uchun liftidan foydalanmasdi.

Akbar ne azobda yuqori ko'tarilib, manziratni kutmayoq ichkari kirdi. U o'tirgan yumshoq kursi g'ijirlab ketdi. Cho'ntagidan g'ijimlangan ro'molcha olib, hansiraganicha terlarini artadi. Akbar Jahongirning kichik tog'asiga to'ng'ich farzand bo'ladi. Ularning oralaridagi farq to'rt oy bo'lsa ham, Jahongir uni «Akbar aka» deyishga odatlangandi. Jahongir ikkinchi kursdaligida onasidan ham ajraldi. Ko'ngli yarimta bo'lganidan tog'alarinikiga tez-tez kelardi. Ayniqsa onasining sevimli ukasi bo'lmish kichik tog'asini ko'p ko'rgisi kelardi. Ammo oradan ikki-uch yil o'tgach, tog'asining xushlamaygina kutib olishini sezdi. Uylanish haqida gap chiqa boshlaganida, kelin ayasining «Jahongirjon, hamma ham o'z aravasini o'zi tortishi kerak», degan gapini eshitdi-yu, bu yerga qadam bosmay qo'ydi. Tog'asi ham uning holidan xabar olmadi.

Jahongir oshxonaga kirib choy qo'ydi. Javondan shirinliklarni oldi. U ko'p yillardan beri unut bo'lib qolayotgan qarindoshining bu tashrifidan taajjubda, o'ylab o'yiga yetolmasdi. Akbar esa o'z uyida o'tirganday edi.

— Shu deng, salkam uch soat kutdim-ov. Endi ketaman, deb turuvdim, — dedi u bir tishlam nonni murabboga botirar ekan. Keyin uni og'ziga solib, bir-ikki chapillatib chaynadi-da, gapida davom etdi. — Bugun gazitda siz haqingizdagi narsani o'qib qolib, tinchimni

yo‘qotdim. Shunaqa paytda muborakbod qilish bizdan lozim dedim-u, uyingizni so‘rab-istab kelaverdim. Ammo boshim arshi-a‘loga yetdi. Urug‘imizni olamga mashhur qildingiz. Lekin xafa bo‘lgan tomonimiz ham bor, — u murabboga yana non botirdi. — Olimlikka berilib, qarindoshchilikni unutib qo‘ydingiz. Qariganda gina-kuduratni unutib bordi-keldi qilaylik. Bizdan keyin bolalarimiz begona bo‘lib ketishmasin.

— Gapingiz haq. Allaqachon shunday qilishimiz kerak edi. Ayb ikkimizdan ham o‘tdi.

— Ha-da, beayb parvardigor, deydilar. Endi bizning vazifamiz...

— Akbar aka, aybga buyurmaysiz, sizni bir oz xoli qoldiraman. — Jahongir shunday deb yana oshxonaga chiqdi. Qozonga sabzi-piyoz bostirgach qaytib kirdi. — Akbar aka, ozib-yozib bir kelgansiz. Endi shuning sharafiga, a? Ko‘ngil qanaqasidan tusaydi? Yulduzi qizilidanmi, oqidanmi?

— E, e, qariganda-ya? Ha, mayli, qarindoshlik hurmati, sazangiz o‘lmasin. Qizili salomatlikka to‘g‘ri kelmaydi. Bosim chatoq. Andak oqidan bo‘lsa kifoya.

— Yana bir uzr. Men uchun ham... o‘zingiz... olasiz. Hozir tajriba payti, ilojim yo‘qroq...

Akbar mezbonni bir-ikki qistagan bo‘ldi-yu, keyin «taqdirga tan berib», qadahni bo‘shatdi. To‘rtinchi qadahdan so‘ng rangiga qizil yugurib, og‘zi gapdan bo‘shamay qoldi. Jahongir oshni damlab kirgach, navbatdagi qadahni ola turib:

— Bola-chaqang ko‘rinmaydimi? — deb so‘radi.

— O‘g‘lim o‘rtoqlari bilan birga...

— Ha... bolang bitta edi-ya? Bizniki yettita. Qurmag‘urlarning birontasi ilm demadi-ya! Ha, mayli, nonini topib yesa bo‘ldi bizga, a, labbay?

— Ha, endi...

— Xotining ham ko‘rinmaydimi? — Jahongir yalt etib mehmonga qaradi. Lekin Akbar undagi o‘zgarishni sezmay, kulimsirab gapiraverdi: — Qariganda ham o‘tiraveradimi, bir oyog‘ining chigalini yozmoqchi bo‘lgan-da. Bizning xotin ham shunaqa...

— Akbar aka! — Bu safar Jahongirning ovozi balandroq va dag‘alroq eshitildi. — Kelingizni bir yarim yil burun yerga qo‘yganmiz...

— A? — Akbar qo‘lidagi qadahni stolga qo‘yib, yuziga fotiha tortdi. — Buni qara, xabarsiz ekanmiz. — U shunday deb, qo‘lini qovushtirdi-da, qiroat bilan qur‘on o‘qiy boshladi.

Jahongir o‘rnidan turib oshxona tomonga yurdi. «Qariganda ham esini yig‘ib olmabdi», deb o‘yladi. Akbar yigit chog‘larida ham shunday edi. Ichib, kayfi oshganda chala yarim o‘rganib olgan qur‘onni bor ovozi bilan duch kelgan yerda o‘qir, keyin odamiylik haqidami, tuproqni ulug‘lash haqidami, hurmat yoinki burch haqidami nasihat qilar, o‘tirganlarni farosatsizlikda ayblardi. Shuning uchun Jahongir «piyon qori» laqabini olgan tog‘avachchasi ishtirok etuvchi ziyofatlarga iloji boricha yaqinlashmasdi.

Osh yaxshi dam yemasa ham suzib kelaverdi. U mehmonning tezroq turishini istab qolgan edi. Bir tomondan uning jirkanch qiliqlariga nafrati uyg‘ongan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kundalikning davomini yozishi, ertalabgacha tiniqib dam olishi kerak edi.

Ovqat vaqtida mehmon non-nasiba haqida va‘z aytib o‘tirdi. Nihoyat, osh orqasidan bosib uch-to‘rt piyola choy ichgach, fotihaga qo‘l ochdi.

- Mashinangizni chaqirsangiz kelarmikin? — dedi u oʻrnidan turayotib.
- Menda mashina yoʻq.
- Ie, shunday katta olimda-ya?
- Ishxonam yaqin. Hojati yoʻq, deb olmaganman.
- Chakki qilibsiz. Bu kerakli mol. Olib qoʻyish kerak.

Akbar tashqariga chiqib ham, boshi-keti yoʻq gaplar bilan Jahongirni ushlab turdi. Jahongir uning bir dardi borligini sezgan, lekin sir boy bermayotgan edi. Akbarning bu darajadagi ezmaligidan soʻng, soʻrashga majbur boʻldi:

- Siz hali menga bir narsa aytmoqchi edingizmi?
- Ha... e, umi, mayli, keyin aytsa ham boʻlar...
- Hozir aytavering.
- Bilasizmi, jigar, bugun gazitda gʻalati mashinangizni yozishibdi. Togʻangizni, yaʼni bizning padarni ham bir tajriba qilsangiz-chi?
- Nega?
- Endi, sizga aytmasam boʻlmaydi, yaqin qarindoshmiz, — dedi Akbar unga yaqinroq kelib. Jahongir uning bir sensirashiga, bir sizlashiga eʼtibor bermadi. U yoshligida ham shunday edi.
- Oʻzing bilasan, otam savdoda uzoq yil ishlab, u-bu narsa orttirgan ekanlar. Lekin qoʻlga tushib, yashirgan narsalari bizga qorongʻu boʻlib qolgan, — Akbar endi ovozi pastlatib, deyarli shivirlab gapirardi. — Bilishimcha, oz-moz tilla ham berkitgan ekanlar. Shu topilsa, siz ham jiyansiz, qonuniy ulushingiz bor... Qolaversa, bizday odamga yetti bolani uyli-joyli qilish hazilakam gap emas. Endi bular keyin aytilsa ham boʻlardiyu, oʻzingiz qoʻymadingiz. Xoʻp, mayli, hozir boshingizni qotirmay, men ketdim.

Jahongir rad javob berishni ham, soʻkib, haydashni ham bilmay, garang boʻlib turib qoldi. Akbar shoshib, uning qoʻlini olib qisdi-yu, lapanglab yurib ketdi. Jahongir boʻlib oʻtgan noxush uchrashuv va suhbatni xayolidan chiqarish uchun uy atrofida bir oz yurdi. Koʻcha jimjit. Bayram arafalarida yonib turuvchi rang-barang chiroqlar ham oʻchgan, yoʻl chetidagi mayda favvoralarining suvi kuchsizgina otilib turardi.

U qancha yurmasin, xayolini jamlashga harakat qilmasin, boʻlmadi. Akbarning soʻnggi gaplari qulogʻi ostida jaranglab, gʻazabini oshiraverdi. Nihoyat, bugun ishlay olmasligini sezib, uyga kirib ketdi. Dam oʻtmay Jamshid kirdi. U otasidagi oʻzgarishni payqasa ham, sababini soʻramadi. Yarim tunda koʻzi uyquga ilingan boʻlishiga qaramay, Jahongir erta tongda oʻrnidan turib, yozuv stoliga yaqinlashdi-da, kundalikni qoʻliga oldi...

ASL OLTIN VA INSON QONI (KUNDALIKNING IKKINCHI SAHIFASI)

Shamsibekni bu safar Chilstun tomonga boshlamadilar. Soʻl tomondagi gulzor yoqalab, favvora otilib turgan sahnga chiqishdi. Quyosh ufq sari bosh qoʻygan, uning kuchsiz nuri bir-biriga urilayotgan marvarid suv tomchilarida aks etardi. Favvoradan sal naridagi shohsupada Ulugʻbek mutolaa qilib oʻtirardi. Shamsibek sultonga halal bermay, deb turib qoldi. Buni sezgan Qamariddin unga sekingina:

— Davlatpanohning o‘zlari buyurganlar, boravering, — dedi. Shamsibek ildam yurib, supaga yaqinlashdi-da, tiz cho‘kib qulluq qildi.

Ulug‘bek kitobdan bosh ko‘tardi. U oddiy sariq to‘n kiyib olgan, shu topda sultonga emas, ko‘proq mudarrisga o‘xshab ketardi. Shamsibek to‘nning barini o‘pdi. Ulug‘bek unga joy ko‘rsatdi. Qamariddin suhbatdan voqif bo‘lishga ehtiyoj yo‘qligini anglab, ta‘zim bilan orqasiga qaytdi.

Ulug‘bek xontaxta ustidagi kitob bilan qog‘ozlarni ehtiyotlab olib qo‘ydi.

— Bu tun Mirrix Yerga yaqinlasha boshlaydi, — dedi u yigitga qarab. — Rasadxona ahli shu uchrashuvga tayyorlanyapti. To yulduz toshguncha sen bilan yaqinroq tanishay, deb edim.

— Qulingizman, shahriyorm.

— Sen mening emas, Ollohning qulisan. Bul haqiqatni zinhor unutma. Seni dastlab ta‘riflashganda, ulusni aldashingni ayta turib: «U imonsiz gumroh hamdur», deyishib edi. Bu ta‘rifning boisi nedur?

Shamsibek darrov javob bermadi. U shariat taqiqlagan kitoblarni mutolaa qilgani uchun shahriyorning qahri kelar, deb o‘ylamasdi. Aksincha, Ulug‘bekning shariat peshvolari so‘zini ko‘pam inobatga olavermasligini bilardi. Uni boshqa bir sir sukut saqlashga majbur etgan edi. Shamsibek o‘zi haqidagi bu qadar batafsil ma‘lumotning olampanoh qulog‘iga qay yo‘sinda yetib kelganini bilolmay garang edi. U sultonning tik nazariga qarashga botinmay, boshini egib gapirdi:

— Men «Maxariq al-anbiyo» bilan «Xiyol al-mutanabiyin» mutolaa qilib, mazmunini ba‘zi do‘stlarimga tushuntirib edim.

— Demak, payg‘ambarlarning muborak nomlariga til tegizibsan-da?

— Men ustozimning fikrlarini o‘zimcha talqin etdim, xolos.

— Ustod dedingmi? Ar-Roziy ustodlikka arzigulik alloma!

Shamsibek xontaxta ustidagi kitoblarga beixtiyor ko‘z qirini tashladi. Ularning biri Abu Rayhon Beruniyning «Qonuni Mas‘udiy» ikkinchisi — Batlimusning «Al-Majistiy» asari edi. Shamsibek Batlimusning kitobini ko‘rdiyu xayoliga kelgan bir fikrni aytishga jur‘at etdi:

— Ar-Roziy Batlimusu Aflotunu Aqliduslar bilan ilm bobida bellashadigan alloma.

— Balli! Haq gap aytding. Uni-ku, ustoz deb bilibsan, sharaf senga. Vale, Abu Ali ibn Sino ham ar-Roziyni ustoz deb bilganini unutma. Tahassurkim, shunday ulug‘ allomaning yo‘lini tutganlar g‘oyat kam erur.

— Ammo falakiyot ilmiga siz kabi ixlos qo‘yganlar bisyor.

Ulug‘bek yigitga tikilib qoldi.

Shamsibek, nojo‘ya gap aytdim shekilli, deb o‘rnidan turib, qo‘l qovushtirgancha uzr so‘radi. Ulug‘bek qo‘li bilan joy ko‘rsatgach qaytib, omonatgina o‘tirdi.

— Fikringcha, falakiyot ilmi tabobat yoki riyoziyot yoinki kimyodan past darajadami? —

Ulug‘bek yigitning yana turishga chog‘langanini ko‘rib, qo‘shib qo‘ydi. — Ilm haqida

gapirganda o'zingni erkin tut.

Shahriyor erkin so'zlashga ijozat bersa-da, Shamsibek fikrini ochiq bildirishga botinmas, har bir so'zini aql tarozisida o'lchab, keyin aytardi.

— Tabobat va kimyoda ustozning tengi yo'q edi. Men ham ustoz kabi ko'proq Yer ilmlaridan bahramand bo'lishga ixlos qo'yganman. Raiyat uchun shu ilmlarning nafi bor deb o'ylayman. Ayniqsa tabobat ilmi fuqaroning ofiyati, uchun zarur. Ustoz ar-Roziyga qadar insonlar chechak bilan og'rib ko'p ozor ko'rganlar. Ustoz chechakni qaytaruvchi em yo'lini kashf etdilaru bu azoblar barham topdi. Tabobat ilmi xastaliklarni tarqatuvchi insu jinslarni kashf etdi. Afsuskim, odamlar bulardan hanuz bexabarlar. Hakimlarning so'zlari quloqqa olinmaydi. Shu bois o'lim ko'p, umr qisqa. Agar davlatpanohning ixtiyorlari-la tabobat bilan kimyo ilmi rivoj topsa, nur a'lo nur bo'lur edi.

— Ya'ni?

— Ya'ni, dorulshifoiyalar qurilsa raiyat ofiyati bisyor xo'b bo'lurmi, deyman.

— Istaging ko'p ma'qul. Ammo falakiyotni nazarga ilmaganing chakki. Bir barmoqning kuchi hech qancha emas. Ilm ham shunday. Zamin ilmlarining bari bir-biriga omuxta. Donishmand alloma bu ilmlarning barchasidan xabardor bo'lmog'i darkor. Ustozing shunday edi. U falakiyotning tabobatga ko'p ta'siri borligini ham bilgan. Yerda xastalik tarqab, qirg'in boshlanishiga falakdagi o'zgarishlarning sabab bo'lishini o'ylab ko'rmagan ekansan. Bilki, gavhari anjum samoga shunchaki sohib yuborilgan emas. Ular Ollohning irodasi bilan turkum-turkum bo'lib o'rnashganlar va bir-birlarini aql bovar qilmovchi kuch bilan tortib tururlar. Kurrai arzni ham bo'lak sayyoralar tortib turur. Agarchi tortib turuvchi bu kuch bo'lmas ekan, yulduzlaru sayyoralar qorishib ketur edilar. Shuningdek, bu kuch mavjudlikdan yo'qolsa, osmonga otilgan toshdan tortib to'morigacha zaminga qaytib tushmas edi. Samoning bul kuchi kurrai arz ilmlarini ham bir-biriga monand tortib turur. Biri biridan uzilsa muddaoga erishilmaydi. Xo'sh, fikringcha, tabobat umr uzaytira olishga hozir qodirmi?

— Ojiz, shahriyorim.

— Sabab? Sen Abu Ali ibn Sino tariyqini xato deb bilursanmi?

— Zinhor! Ibn Sino tariyqi — uzoq umr ko'rishning yagona yo'li. Lek hech kimsa bunga to'la amal qilmaydi. Bu birlamchi. Ikkilamchi — hakimning asabni ehtiyotlash haqidagi qonunini bajo keltirmoq mumkin emas. Asab asta-asta ishdan chiqib borib, umrni egovlaydi.

— Demak, bandalarning orzusi siniq ekan-da?

— Bedavo xastaliklarga shifo bermoqqa sababchi bo'lguvchi tabobat bu muammoni ham hal qilur.

— Insha Olloh.

— Ungacha balki yuz yil, balki undan ko'proq yillar o'tar, hakimlar bu sirdan ham voqif bo'lurlar. Aytaylik, tanbur torlari hadeb chertilaversa, oqibat soz buziladi. Odam asabi ham shunday. Bola tug'ilganida asablar sozlangan bo'ladi. Yillar o'tavergach, soz buziladi. Ana shu paytda yana bir qayta sozlansa, umr uzayur.

— Barakalla! Tabobatdagi zehningni menga aytishmagan edi. Iqtidoringni fikrlaring oshkor qilib qo'ydi... Soxta oltin quyishingdan xabar topib edim. Ammo sen ishlagan bir uzukni ko'rib taajjubda qoldim. Oltinni soxta desam, sohibi iyorı bunday toza oltinni to hanuz

uchratmaganman, deydi. Bu muammoga tushuna olmadim.

— Shahriyorm, darhaqiqat men soxta oltin, soxta kumush quya olaman. Bu ham ustozimning ta'siri. «Kitob sirr-al-asror»daz bayon qilingan usullarni xo'p anglab olganman. Ustoz raiyatni aldab boyishni o'zlariga ep ko'rmaganlar. Men ham u kishining chizgan chiziqlaridan chiqmadim. Asl oltin bilan kumushga muhtoj bo'lmagan buyumlarga bezak uchungina soxtasini ishlatdim. Sizdagi uzukka ishlatilgan oltinni ar-Roziyning shogirdigina olishi mumkin.

— Qay yo'sinda? Sir emasmi?

— Buni amalda ko'rsatib bermagani uchun Xuroson hokimi Abu Solih Mansur ar-Roziy boshiga kitob bilan urdirib ko'r qilgan ekan.

— Donishmandni jazolash iblisning ishi. Shoh nufuzi bilan donishmanddan ustun bo'lsa, donishmand shohdan bilimi ila ulug'. Donishmandning shohga ehtiyoji yo'q, ammo shoh donishmandga hamisha muhtojdir. Allomaga jazo bergan sultonda na aql, na imon bo'ladi.

Oraga sukut cho'kdi. Ulug'bekning bu so'zidan keyin Shamsibek sirni ochishga ehtiyoj sezdi. Zotan Ulug'bekning bu sirdan voqif bo'lishi, Shamsibekning nazarida, foydadan holi emasdi.

— Afv eting, shahriyorm, mening bunday fikrim yo'q edi. Faqat ustoz fojiasi xayolimga kelganidan aytdim... Asl oltin olish uchun inson qoni darkor...

— Qon?

— Ha, sizga yuborgan uzukning oltinini qayta quyib, quritilgan qon bilan sifat berganman.

— Qonni qaerdan olding?

— O'zimdand.

— Sen o'z qoningni hamisha ishlatavermaysan-ku?

— Men asl oltindan har doim uzuk ham qilmayman.

Shu topda azon chaqirig'i eshitildi. Asr namozining vaqti bo'lgan edi. Ulug'bek yuziga fotiha tortib, o'rnidan qo'zg'aldi. Shamsibek ham turib, qo'l qovushtirganicha shahriyorning yurishini kutdi. Ulug'bek bir-ikki qadam tashlab, to'xtadi-da, haligacha hurmat yuzasidan qo'l qovushtirib turgan Shamsibekka yuzlandi:

— Bundan buyon oltinga qon ishlatishingni man etaman. Qon to'kmak tanbehga loyiq ishdir. Va bunday qiluvchi kishining umri qisqa bo'lur. Ulug'bek saltanatida inson qoni bezak uchun to'kilmasligi darkor. Uqdingmi?

— Xo'p bo'ladi, shahriyorm.

— Ertaga dam ol. Shanba nonushtadan so'ng zargarlarga bosh bo'lib, xazinadagi oltin-kumushlarni saralaysan. So'ng dorulshifoia uchun shahardan joy tanla. Tabobat ilmiga ixlos qo'yganlarni, eng zukko hakimlarni to'playmiz. Samarqand tabobat ilmining ham markazi bo'lsin.

— Ma'qul. Ammo joy tanlamoq uchun bir necha qo'zi so'yish lozim.

— Sabab?

— Go'shtlarni shaharning hamma dahasiga, ochiq havoga ilib qo'yamiz. Go'sht qaysi dahada sekin buzilsa, o'sha yerga dorulshifoia qurish mumkin.

— Barakalla! Zehning tahsinga loyiq.

— Shahriyorm, yana bir uzrim bor.

- Ayt.
- Men istaklaringizni bajo keltirsamu uyga qaytsam.
- Sabab?
- Ko‘garchini erkinlikni sevadi.
- Ammo toza osmondagi beozor ko‘garchinga nodon qirg‘iylar hamla qilishi mumkin.
- U holda qishloqqa borib kelishga ijozat bersangiz. Oilamni olib qaytsam.
- Bu ishing ma‘qul. Qamariddin safar anjomlaringni tayyorlab beradi. O‘zi ham hamroh bo‘ladi. Xazinani qaytib kelganingdan so‘ng saralaysan.

Shamsibek asr namozini saroy ahli, mirzoning shogirdlari bilan o‘qidi. Tun yoyilganda Qamariddin uni qo‘noqqa uzatib qo‘ydi. Yo‘l-yo‘lakay Shamsibek shahriyor bilan bo‘lgan suhbatni hikoya qildi. Qamariddin buni eshitib:

- Ha, dunyoda ulug‘lar ko‘p, ammo Ulug‘bek bitta, — deb qo‘ydi.

XATO VA HAQIQAT

«19... yil, 18 aprel. O‘zFA Biofizika ilmiy-tekshirish instituti. Professor Alievning tajribaxonasi.

Soat 11.00. Bugunga belgilangan tajriba qoldirildi. Meditsina komissiyasi professorning asab hujayralarida o‘zgarish qayd qildi. Uning yurak urishidagi mo‘tadillik ham bir oz buzilgan.

Tajribaning uchinchi bosqichini ertaga davom ettirish mo‘ljallandi».

Meditsina komissiyasining xulosasi kutilmagan zarba edi. Jahongir tajribaning dastlabki bosqichlarida shunday uzilish bo‘lar, deb o‘ylamagandi. U a‘zolaridagi o‘zgarishning boisini bilgani uchun vrachlarning davolanish xususidagi o‘gitlarini loqaydlik bilan eshitdi. Hamshira tomiriga em ignasini sanchganda ham og‘riqni sezmad. Komissiya raisi, «endi borib dam oling» degach, o‘rnidan turib dahlizga chiqdi-da, tajribaxona tomonga yurdi. Oq xalat kiygan yigit-qizlar bilan gavjum bo‘lguvchi xona bo‘m-bo‘sh edi. O‘rtada, shaffof devor ichidagi toshtobut va ikki elalloma, chapda boshqaruv stoli, o‘ngda kumush rangga bo‘yalgan asosiy elalloma. «Tajriba qoldirilgani uchun hammaga javob berib yuborishganga o‘xshaydi», deb o‘yladi Jahongir. U asta yurib, asosiy elalloma yoniga bordi.

Elektron allomaning ishlash jarayoni nazariy jihatdan hal qilingach, tajribaxona xodimlari uning bo‘lajak shakli haqida ko‘p bahslashishgandi. Ba‘zilar oddiy robot shaklida bo‘lsin, deyishdi, ba‘zilar zamonaviy radiopriyomnik shaklini taklif etishdi. Lekin Jahongirga dorulfununni yangigina bitirib kelgan qizning taklifi ma‘qul keldi. Natijada elalloma shu qiz aytgan shaklda sakkiz qirralik qilib bunyod etildi. Asbob ichi o‘n olti katakdan iborat arining uyasini eslatar, har uyadagi uskunalar bir bosqichni amalga oshirar, bir bosqich amalga oshirgan natija keyingi uyaga o‘tardi. Elalloma agar robot shaklida bo‘lganida har bir jarayon uchun bir robot talab etilardi. Bu ham joyni ko‘p egallardi, ham tajribaning bir me‘yorda borishiga halal berishi mumkin edi.

Jahongir shu topda nima uchundir shakl xususidagi o'sha bahslarni esladi. Shogirdlarining kuyib-pishib tortishishlari ko'z oldiga kelib, kulimsiradi. U yoshlarning ilm borasida bahslashishlarini xush ko'rardi. «Astoydil, jonu dili bilan, ammo mantiqiy asoslarga suyanib bahs qiluvchi yoshlarga yaxshi olim bo'lib yetishadi». Ustozning bu gaplari uning uchun ham qonunday bo'lib qolgan edi. Ana shu bahslar natijasida kashfiyot yaratildi — elalloma shakllandi.

Jahongir orqaga qaytib, eshik yonidagi kresloga o'tirdi. Yana elallomaga tikildi. «Chakki ish bo'ldi, — deb o'yladi u, — holimga qaramagan ekanman. Aslida elektrodnlarni Mansurga o'rnatib, tajribaga rahbarlik qilaverishim mumkin edi. Mansur hali yosh, har qanday og'irlikka chidash bera olardi. Shuni chuqurroq o'ylab ko'rmabman. Hali ham unga aytammikin? Qanday aytaman? To'lqinga o'xshab javob qaytarsa-chi?.. Yo'q... Nima bo'lganda ham tajribani oxiriga yetkazishim kerak.

Qiziq... Elalloma bir xilda — o'zgarishsiz ishlayapti. Avvalgi murdalarda ham shunday ishlagandi. Qabul qilish, tiklash, uzatish, tahlil, xulosalash davridagi kuchlanish o'zgarmayapti. Lekin ikki tajriba natijasidagi farq osmon bilan yercha. Sababi nimada? Murdalardami? Yoki tashqi muhitdan biror ta'sir bo'ldimikin?..»

Eshik ochilib, Jahongirning fikri uzildi.

— Men ketib qoldingizmi, deb o'ylabman, — dedi xonaga kirgan chuvakkina yigit. Bu Jahongirning iste'dodli shogirdlaridan biri, tajribani boshqarayotgan Mansur Xalilov edi.

— Ketganimcha yo'q, endi nima qilishni o'ylayotgan edim. Qani, o'tir, xo'sh, nima gap?

— Tajriba usulini bir oz o'zgartirsakmikin?

— Nima uchun?

— Siz...

— Qanday taklifing bor?

— Elallomaga robot ulasak qanday bo'larkin?

— «Qanday bo'lishini» o'ylab ko'rmadingmi?

— Hisoblab chiqdim. Agar robot ulasak, tajribaning borishi tezlashadi. Undan tashqari, bu ishdan psixorobiklar ham manfaatdor bo'lishadi.

— Robot tayyorlash uchun ketadigan vaqtni inobatga oldingmi?

— Yangi robot yaratmay, tarjimon robotlarni moslasak-chi?

— Mumkin emas. Bu ish uchun maxsus robot yaratish kerak. Lekin sen aytgan usulni ham qo'llab ko'ramiz. Bu tajriba tugagach, robot yordamida yana qaytaramiz. Keyin natijasini solishtiramiz. Shunday qilsa, psixorobiklar uchun ko'proq foyda bo'ladi. Undan tashqari, vaqt o'tishi bilan bioto'lqindagi o'zgarishlarni ham aniqlab olamiz. Sen Kibernetika institutining psixorobika tajribaxonasi bilan bog'lan. Tajriba uchun kerakli robot yaratishda yordamlashishsin.

— Xo'p, bugunoq gaplashaman.

«19... yil, 19 aprel. O'zFA Biofizika ilmiy-tekshirish instituti. Professor Alievning tajribaxonasi.

Soat 15.30. Tajribaning uchinchi bosqichi boshlandi. Professor bugun o'zini yaxshi his qilyapti. Yurak urishi mo'tadil. Meditsina komissiyasi bugun uning miyasida va asablarida o'zgarishni qayd qilmadi.

Soat 20.15. Tajribaning uchinchi bosqichi yakunlandi. Elallomalar reja asosida uzluksiz ishladi. Professorning sog'lig'i yaxshi. Tajriba ertaga davom etadi».

Ko'cha odatdagidan gavjumroq edi. To'p-to'p bo'lib kelayotgan yoshlar qattiq-qattiq gapirib, nimanidir muhokama qilishardi. «Darvoqe, bugun futbol bor edi». Jahongir xiyobon bo'ylab asta yurib borar, tajribaning murakkablashayotganini o'ylardi: «Shamsibek Ulug'bekdan tayin vazifa oldi-yu, uyiga qaytdi. Hozircha Ulug'bek bir marta suhbat qurdi. Shu bilan tamommi? Shamsibek Buloqboshida, o'z uyida shahid bo'ladi? Palak-chi? Bu haqda hozircha ma'lumot yo'q. Tajriba hali uzoq davom etadigan ko'rinadi. Quvvatim yetarmikin? Asablar bo'shashyapti. Yoki dam olsammikin? Yo'q, dam olishga fursat bor. Elalloma yaxshi ishlayapti. Biroq, bari bir mukammal emas. Uning uchun faqat chirimagan jasad lozim ekan. To'qimalarda gap ko'p. Men shuni hisobga olmabman. Endi elallomaning sezgichini taxminan sakson-to'qson barobar oshirish kerak. Shunda u jasad tanlamaydi. Sezgichni kuchaytirish uchun qo'shimcha moslamalar o'rnatilsa asbob o'n barobar kattalashadi. Shunda hozirgi tajribaxona torlik qilib qoladi. Yangi bino so'rash kerak. Hozir so'rasam, kelgusi bahorgacha berishar...

Jamshid bugun kelmadi. Futbolga borgandir. Ishi nima bo'ldi ekan? Juda qiynalib ketdi. Men yoshligimda bunchalik qiynalmagandim. U shubhasiz zo'r iste'dod egasi. Qiziq, men buni bila turib o'ziga aytmayman. Ko'proq ishlashga majbur qilaman. Uning yangi avtomobili jahon miqyosidagi kashfiyot bo'ladi. O'shanda unga oq fotiha beraman. Shundan so'ng mening o'gitlarimga hojat qolmaydi. Istasam-istamasam shuhrat libosiga o'raladi. Faqat o'zini tutib tursa bas.

O'g'limning kashfiyoti har qanday avtomobil halokatiga chek qo'yadi. Exolokatsiyadan shu darajada foydalanish bionikaning katta yutug'i. U bunga ikki yil ichida erishyapti. Yaxshi natija. Lekin tajribalari ko'ngildagidek chiqmayapti...»

Jahongir anhor tomonga burildi. U xizmatdan qaytar mahali ko'pincha shu sohilda hordiq chiqarardi. Hozir ham suyanchiqsiz kursiga o'tirib, suvga tikildi. Anhor to'lib oqyapti. Loyqa suvning yuzasida xas-cho'plar qorayib ko'rinadi. Jahongir hech narsani o'ylamay tiniqib olish maqsadida qirg'oqqa ship-ship urilayotgan to'lqinchalarni kuzatdi. Shu zaylda o'tirdi. Keyin uyi tomonga yo'l oldi. Muyulishda bir qiz bilan turgan o'g'lini ko'rib, ularni xijolat qilmaslik uchun orqasiga qaytmoqchi edi, ulguradi. Jamshid otasini ko'rib, u tomon yurdi.

— Dada, telefon qilsam, tajriba tugamadi, deyishdi. Keyin borsam, chiqib ketgan ekansiz. Hayron bo'lib turuvdim, — dedi u yaqinlashib. So'ng qizni tanishtirdi. — Lolaxon, birga ishlaymiz.

Qiz salom berdi.

- Endi men boray, — dedi ko‘zini yerga tikib. Jahongir xayr, deb yo‘lida davom etdi. Jamshid sal o‘tmay unga yetib oldi.
- Uni kuzatib qo‘ymadingmi? — dedi Jahongir.
- Unamadi. Uyi yaqin...
- Ishlaring qalay?
- Ishlarim... yomon emas.
- Yashiryapsanmi?
- Aytganimning foydasi yo‘q. Faqat ishingizga xalal beradi.
- Aytaver.
- Qisqasi... Tajribalarimni to‘xtatish haqida buyruq chiqdi.
- Nega?
- Keyingi tajribalar ham yaxshi natija bermadi.
- Buyruqni kim berdi?
- Kim bo‘lardi, ilmiy rahbarim. Dissertatsiya mavzuini ham o‘zgartir, deb aytdi.
- Bo‘lmagan gap! Bunday qilishga uning haqqi yo‘q!

Jahongir uyga kirib, bir piyola choy ichdi-da, o‘rnidan turdi.

- Sen ovqatga harakat qil. Men darrov qaytaman, — deb Jamshidning ilmiy rahbari Suhrob Xo‘jaevnikiga yo‘l oldi. Jahongirning bu olim bilan eski tanishligi bor. Biroq salom-aligi ko‘pdan beri yo‘q edi. Jahongirning kechki payt yo‘qlab kelishi Suhrobni hayron qoldirmadi. Mehmonni sun‘iy iliqlik bilan qarshilab, ichkariga boshladi. Jahongir dasturxon tuzamoqchi bo‘lgan ayolga e‘tiroz bildirdi. Xoli qolishgach, so‘z boshladi:
- Nima uchun kelganimni payqagandirsan?
- O‘g‘ling masalasidadir?
- Yo‘q, yosh olimning taqdiri masalasida. Sening yosh olimga bo‘lgan munosabating haqida gaplashgani keldim. Jamshid menga begona bo‘lganida masalangni akademiyaga qo‘ygan bo‘lardim.
- Men shu darajada katta gunoh qilibmanmi?
- Seningcha gunohmasdir. Lekin tajribani to‘xtatish haqidagi buyrug‘ing, meningcha, fan oldida katta jinoyat. Tajribani to‘xtatishga haqqing yo‘q!
- Tajriba boshi berk ko‘chaga kirib qoldi. Endi undan yangilik kutish qiyin. Men davlat pullarini shamolga sovurolmayman. Mening tajribaxonam bexato ishlashi kerak.
- Bu o‘zingning fikringmi yo biror ko‘rsatma bormi?
- Bu fikr emas, printsip! Men shu asosda ishlayman. Xatolarga tobim yo‘q.
- Mana shu «printsip» sening qusuring. Sen hamisha yengil yo‘lni izlarding. Boshqalardan ham shuni talab qilasan.
- Men ustozman. Shogirdlarimni istagan yo‘limga boshlayman. Ular aniq va bexato ishlashlari kerak.
- Xatoga yo‘l qo‘ysalar-chi?
- U holda bu sohani tashlashlari kerak yo mavzuni o‘zgartirishlari lozim.
- Yo‘q. Haqiqat yo‘lida ko‘p xatolar bo‘ladi. Agar birgina xato deb, haqiqat yo‘li to‘silaversa biz haligacha ibtidoiy davr chegarasidan hatlamagan bo‘lardik. Biofizika tarixi o‘n yettinchi asrga, Dekartning fikrlariga borib taqaladi. Biofizika instituti esa ilk marta 1919 yilda asos

topdi. Shu vaqt orasida qancha kashfiyotlar qilindi, qancha xatolar ro'y berdi. Agar shu fikringda tursang, Leonardo da Vinchini ham surib tashlashing kerak. Axir u taklif qilgan po'lat qush hech amalga oshmaydigan ish-ku? Holbuki o'sha qush keyinchalik samolyot yaratish fikriga turtki bo'ldi. Endi uni bionikaning asoschilaridan deb tan olasizlar-ku?

— Tarixiy misollarni jinim yoqtirmaydi. Bu bilan aql o'rgatishga tirishma. Undan tashqari, sening o'g'ling Dekart ham emas, Leonardo da Vinchi ham emas.

— Senga ko'p narsalar yoqmaydi. Lekin dunyo sening istaging bilan tirik emas.

— Balki shundaydir. Lekin hozircha senikiga nisbatan mening istaklarim ro'yobga chiqyapti.

— Masalan?

— Masalan, akademiya saylov paytida sening emas, mening nomzodim o'tdi. Sen shuning alamiga meni tanqid qilib, chalish yo'lini izlayapsan. Sendan iltimos, bunday puch gaplar bilan meni bezovta qilma. Men bekorchi odam emasman.

Jahongir shasht bilan o'rnidan turdi. Vujudi g'azabdan titrab ketdi. Ammo indamadi. Eshik tomonga yurdi. Ostonaga yetganda, Suhrob uni to'xtatdi:

— Hamma gap omadga bog'liq ekan. Bir zamonlar sening omading kelib, baxting kulgan edi. Omad endi menga kulib boqdi.

Jahongir uning ko'zlariga tikildi. Bir paytlar u shu ko'zlaridan yosh to'kib «Ma'rifatni sevaman, usiz yashay olmayman, uni tinch qo'y», degan edi. Lekin Ma'rifat Jahongirni tanlagan, shu-shu ular orasidagi bordi-keldi yig'ishtirilgan edi. Suhrob buni o'ttiz yildan beri ko'nglidan chiqarmagan ekan. Mana, hozir vaqtni boy bermay o'ch olganidan xursand. Jahongir uning shodligini sezdi. Ostona hatlab tashqariga chiqdi. Ikki qadam qo'ydi-yu, orqasiga qarab: «Ablah ekansan!» dedi.

Suhrob tirjayganicha eshikni qattiq yopdi.

Jahongir duch kelgan mashinani to'xtatdi-da, uyiga ketdi. Jamshid ovqat tayyorlab, kutib o'tirgan ekan. Unga «o'zing yeyaver, ovqatlanib keldim», deb xonasiga kirdi. Qog'oz-qalam olib, Fanlar akademiyasining prezidiumiga maktub yozdi. Keyin tajriba kundaligini ochdi.

BEKOR QILINGAN HUKM (KUNDALIKNING UCHINCHI SAHIFASI)

Ular Bibixonim masjidiga kirishib bomdod nomozini o'qishdi-yu, yo'lga chiqishdi.

Shamsibek ketish oldidan Abdulvahobni yo'qlamoqchi edi, topolmadi. Masjidda ham uchratmadi... Shahar darvozasidan chiqaverishda otning tizginini tortdi. Pastakkina tolga suyanib, mudrab o'tirgan Abdulvahobni tanib, unga yaqinlashdi. Tuyuq tovushini eshitib, Abdulvahob ko'zini ochdi. Erinibgina o'rnidan turdi.

— Uyga qaytyapman, olib ketaymi? — dedi Shamsibek.

— Ishingiz bitdimi?

— Yo'q, zavjamni olib kelaman.

— Zavjamni? Uylanganingizni aytmovdingiz-ku?

— Ha... mavridi bo'lmovdi.

- Kinga uylangansiz?
- Sherbek zargarning qiziga.
- Mahfuzasigami?
- Ha.

Shamsibek Abdulvahobning Mahfuzaga odam qo‘yganini bilardi. Ammo Sherbek zargar Abdulvahobni xush ko‘rmay, shogirdini — Shamsibekni kuyov qildi. Samarqandda yurgan Abdulvahob, albatta, bundan xabarsiz edi. U Mahfuzani ko‘rmagan bo‘lsa-da, ko‘nglida Shamsibekka nisbatan rashk uyg‘ondi. «Mahfuzasigami?» deganida Shamsibek Abdulvahobning ko‘ngliga yomon fikr oralaganini sezdi. Lekin sir boy bermadi. Qamariddin tomoq qirib qo‘ydi. Shamsibek gapni qisqa qilish kerakligini tushunib:

- Borasizmi? — dedi.
- Yo‘q.
- Nima deb qo‘yay?
- Hech narsa... ko‘rmadim, deng.

Shamsibek otning boshini burdi. Abdulvahob mung‘ayib turib qoldi. Uning ko‘zlarida alam bor edi...

Ular katta karvonga qo‘shilib olishdi. O‘ttizga yaqin tuya oldinda uzoq va og‘ir yo‘l borligini bilganday vazmin yuradi. Har oyoq tashlashganida qo‘ng‘iroqlari bo‘g‘iq jaranglaydi. Tuyakashlar ahyon-ahyonda ovoz chiqarib qo‘yadilar. Quyosh karvonni erinmay kuzatadi. Odamni uyqu bosadi. Shamsibek bilan Qamariddin tizginni bo‘sh qo‘yishgan, otlar boshlarini egib, tuyalar yonida borishadi.

- Haligi telba gadoni olib ketmoqchi edingizmi?— dedi Qamariddin.
- Ha. Bu ahvoliga odam achinadi.
- Juda ko‘ngilchan ekansiz, uka. Haddan ziyod ko‘ngilchan bo‘lish ham yaramaydi. Shahriyoremiz mehri issiqlik qilib bu devonavashlarni erkin qo‘ydilar. Mana oqibat: ular tuhmatu ig‘vodan bo‘shamay qolishdi. Fasod toshlarining bari sultonimizga otilyapti.

U bir oz jim yurgach, yana so‘z ochdi:

- Ammo, shahriyoremiz muhtasibni xo‘b mot qilgan-da, eshitganingiz bordir?
- Yo‘q.
- Ana xolos... Hammaning og‘zida duv-duv gapku... Uch-to‘rt oy burun shahriyor bilan Bibixonim masjidiga juma namoziga bordik. Namozdan so‘ng muhtasib davlatpanohning sha’niga nojo‘ya gaplarni aytdi. Bu gaplarni eshitib, men g‘azabdan titrayapman-ku, shahriyor esa kulimsirab o‘tiribdilar. Muhtasib so‘zini tugatgach, shahriyor o‘rinlaridan turdilar. Masjidga yig‘ilganlar, shahriyor hozir muhtasibni jazoga buyuradilar, deb o‘ylashdi. Biroq kutilmaganda shahriyor muhtasibni savolga tutdilar: «Aytadilarkim, piringiz sizni hazrati Muso darajasiga qiyoslabdilar, shu rostmi?» Sayid Oshiq tasdiq ishorasini qilgach, shahriyor davom etdilar:
- Siz o‘zingizni hazrat Musodan ustun deb bilasizmi?
- Yo‘q.

— Balli. Endi ayting-chi, Fir'avni ulug'mi yoinki menmi?

— Siz.

— Balli. Ollo taolo «Fir'avnga qattiq-qattiq gap aytma, hatto u bilan muomalani yumshoq qil», deb hazrat Musoga farmoyish berganida, nima uchun hazrat Musodan past bo'lgan janobingiz Fir'avndan balandroq bo'lgan kaminaga bu qadar qo'pollik qilyapsiz?

Muhtasib og'iz ocholmay qoldi. Nazarimda yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadi. Men xaloyiq oldida mulzam bo'lishdan o'limni afzal ko'rardim. Muhtasib aqli qusurligini shunday namoyish etdi-qo'ydi.

Qamariddin yaxshi hamroh edi. Shamsibekni zeriktirmadi. Kezi kelganda ilm bobida ham bahslashdi. Bahsda har yengilganida iyagini qashib, «yoshligimda o'qimadimda», deb qo'yardi. U tug'ma polvon edi. Samarqandning manman degan sherbilaklari haligacha uning kuragini yerga tegiza olmagandi. Qamariddinni ko'tarib yerga urish uchun ham uncha-buncha kuch kifoya qilmasdi. Agar otga o'tirsa, chetdan qaragan kishiga xuddi jonivorning beli sinib ketayotganday tuyulardi. Lekin kurashlar, qilich chopishlar haqida ko'p gapirmadi. Uning suhbatidan bahra olgan Shamsibek «agar purdil bo'lib tug'ilmasa, albatta, alloma bo'lib tug'ilardi», deb qo'ydi.

Karvon hamon ilgarilaydi. Qo'ng'iroqlar hamon bo'g'iq ovoz chiqaradi. Andijonga yaqinlashishdi. Hademay ular katta karvondan ajrab, yo'lni bog' ko'chaga burishadi. Qamariddin otni yetaklab boryapti. Shamsibek bir maromda qadam tashlayotgan tuyalarga tikiladi. Ularning qatori buzilmaydi. Tuyalar taqdirga tan bergan — bo'yin egganlaricha olg'a yurishadi. Faqat o'rtadagi tuya ba'zi-ba'zida to'xtamoqchi bo'ladi. Bo'taloq yelinga intiladi. Tuya esa to'xtolmaydi. Burunduqning arqoni oldingi tuyaga bog'langan. Burunduqlar hamma tuyalarda bor. To birinchi tuya to'xtamaguncha, ular dam olisholmaydi. Birinchi tuyaning izni ham o'zida emas.

Shamsibek onasiga talpinayotgan bo'taloqdan, bolasiga sut berolmay, yurak azobida osmonga qarab bo'kirib qo'yayotgan tuyadan ko'z uzmay qoldi. «Odamlar ham shundaymilar? — deb o'yladi u o'zicha, — ularning burunlaridan ham ko'rinmas halqa o'tkazilganmi? Halqalar bog'langan arqonning uchi shahriyorning qo'lidami? Agar biror kimsa haq yo'ldan toysa, u tortib qo'yadimi? Men-chi?.. Kindik qonim to'kilgan yerni tashlab, shahristonga kelishga majbur bo'lyapman-ku?! Nahot odamning izmi o'zida bo'lmasa? Odamni bog'lagan halqaning nomi tirikchilikmi? Odam shu tirikchilik vajidan boshqa bir kimsaga bo'yin egadimi? Onadan hamma bir xilda yalang'och, bir parcha jish bo'lib tug'iladi. Lekin birovi zarga o'raladi, birovi churuk laxtakka. Bu muammoga shahriyor ham javob berolmasa kerak... Fuqaroning barini zarga o'rab bo'lmaydi...»

Shamsibekning xayolini Qamariddin buzdi:

— Anavi yerda katta qishloq borgan o'xshaydi-a? — dedi u qamchini bilan mag'ribni ko'rsatib.

— Ha, bor, — dedi Shamsibek. Keyin o'sha tomonga tikilib qoldi.

— To'y bo'lyapti shekilli, — dedi Qamariddin yonayotgan mash'alalarga ishora qilib.

- Yo‘q, to‘y bo‘lsa, katta gulxan yoqishmaydimi? Qishloq notinch ko‘rinadi.
- Bo‘lmasa boraylik.

Ular ot yo‘rttirib ketishdi. Olomon to‘plangan besh paxsalik devor oldiga kelib tizginni tortdilar. Devor ostida yaktaklari yirtilgan, yuzlari mo‘mataloq yigit bilan durrachasini yuziga to‘sib dir-dir titrayotgan qiz, sal narida esa, katta salla o‘ragan, qora soqolli bir kimsa tasbeh o‘girib turardi. Hamma kimnidir kutardi.

Qamariddin odamlar orasidan o‘tib, sallali kishiga yaqinlashdi-da, salom berdi.

- Taqsir, bu yig‘ilishning boisi nima?
- Ahli islom gumrohlarni jazolagani to‘plangan.
- Gumrohl shularmi? — dedi Qamariddin yigit bilan qizni ko‘rsatib.
- Ha.
- Jaroyimi nedur?
- Buni ahli islomdan so‘rang.
- Men sizdan so‘raydurman.

Tasbeh ushlagan katta sallali kishi bo‘sh qo‘li bilan soqolini silagan bo‘lib «astag‘firulloh», deb pichirladi-da, unga qovoq uyib qaradi.

- O‘zlari kim bo‘lurlar? Musofirga o‘xshaydurlar? Musofir izzatini bilmog‘i darkor.
- Aybga buyurmaydilar, taqsir, biz shahriyorning amri oliylari bilan Samarqanddin Andijon sari yo‘l olganmiz. Bu olomon sabab bo‘lib to‘xtab edik. — Qamariddin shunday deb, yaktagining ich cho‘ntagidan Ulug‘bek muhri bosilgan poygirni chiqardi. O‘pib, ko‘ziga surtdi-da, sallali kishiga uzatdi. U ham poygirni ehtiyotlab olib, o‘pib ko‘ziga surtdi. Keyin ochib, undagi shohona muhrni ko‘rdiyu so‘zlarini o‘qimayoq, bukilib ta‘zim qildi.
- Biz osiylarni aybga buyurmaydilar.

Bu kishining ta‘zim qilganini ko‘rganlar ham beixtiyor ta‘zimga berildilar.

Shamsibek to‘pning chetrog‘ida turardi. Bu manzarani ko‘rib kulimsiradi. Yonidagi mo‘ysafiddan asta so‘radi:

- Bularning jaroyimlari nima ekan?
- Bu yigit shu muzofotning pahlavoni edi. O‘tgan bozorda qozikalonning polvonini dast ko‘tarib yerga qo‘yibdi. Eshitishimizcha, qozikalon bu kurashdan ko‘p narsa umid qilgan ekan. Bugun ertalabdan bechoralarni azoblaydilar.
- Nechun?
- U nikohlangan qiz bilan don olishibdi chog‘i.
- Jaroyimini o‘zlaring ham bilmaysizlarmi?
- Hammaning og‘zida har xil gap. Qay biriga ishonishni bilmay qoldik.

Shamsibek «vo‘ajab!» deganicha olomon orasidan o‘tib borib, Qamariddinga yaqinlashdi.

- Taqsir, — dedi Qamariddin katta sallali kishiga, — bularning jaroyimlaridan meni hanuz voqif qilmadilar-ku?

— Aybsitmaysiz, hozir hamma gapni bayon qilaman. Ko‘rib turganingiz bu qiz chorshanba kuni Ahmadboyvachchaga nikohlangan edi. Kecha to‘y arafasida anavi iblis qizning boshini aylantirib olib qochmoqni xayol qilibdi. Odamlar ushlab huzurimga keltirishdi. Biz «Devorga bostirilsin!» deb hukm chiqardik.

— Ularni ayb ustida ushlashibdimi? — so‘radi Shamsibek.

Katta sallali kishi Qamariddinga savol nazari bilan qaradi.

— Taqsir, bu yigit shahriyorning eng suyuqli shogirdi. Shahriyor bu kishini qanotlari ostiga olganlar, — deb izoh berdi Qamariddin.

Davra sallali kishi boshchiligida endi Shamsibekka ta‘zim qildi.

— Ahmadboyvachcha bilan nikohga qizning o‘zi rozi bo‘lib edimi?

— Ha, men o‘zim guvohman.

Shamsibek qizga yaqinlashib, engashdi:

— Singlim, ayting-chi, Ahmadboyvachcha nikohiga o‘zingiz rozi bo‘lib edingizmi? — Qiz indamadi. Qo‘rquv va dahshat hali ham uning vujudini muzlatib turar edi. — Ayting, singlim, qo‘rqmang.

Qiz asta «yo‘q», deb bosh qimirlatdi.

Shamsibek iziga qaytdi.

— Taqsir, ojizaning rizoligisiz o‘qilgan nikoh inobatga o‘tadimi? Bu nikoh shariatga xilof emasmi?— deb so‘radi u sallali kishidan.

— Nikoh shariatga xilof bo‘lsa ehtimol. Ammo ularning harakatini nima deb baholamoq kerak?

— Ayblaridan o‘tmoq mumkin emasmi? Yosh umrlarini xazon qilmoq ham gunohi azim sanaladi-ku?

— U holda dinimiz pokligini qay holda saqlamoq kerak? Bandalarni zinodan qanday qaytarmoq lozim?

— Adolat yo‘li bilan, — Shamsibek shunday deb sallali kishiga savol nazari bilan tikildi: — Taqsir, o‘zlari bularni zinokor deb hisoblaydilar mi?

— Ayni rost.

— Shunga ko‘ra jazo belgiladilar mi? Fikri ojizimcha, devorga bostirmoqqa hukm qildilar mi?

— Ayni rost. Ikkovi beliga qadar ko‘milib, so‘ng ustlariga, ko‘rib turganingiz devor yiqitilur.

— Taqsir, hukmingiz shariatga andak xilof emasmi?

— Bizning qo‘limiz shariat hukmida qat‘iydur, — dedi sallali kishi, savollardan norizo ekanini yashirmay.

— Agar malol olmasangiz, shariat hukmiga doir bir-ikki savolni so‘rasam, — Shamsibek shunday deb Qamariddinga qarab oldi. Sallali kishi ham «Bu yigit haddidan oshmayaptimi?» degan ma‘noda Qamariddinga qaradi. Qamariddin «so‘rayvering», deganday im qoqqach, Shamsibek yana sallali kishiga yuzlandi:

— Taqsir, ma‘lumingizkim, janobi payg‘ambarimiz alayhissalom bir odamni zinoda

ayblamoqdan avval obdon so‘rab-surishtirganlar. Bu xususdagi hadisi shariflarni janobingizga eslatmoqning zarurati yo‘qdir. Bu bandalarning zino qilganlari, ya‘nikim, shahvatlarini harom yo‘l bilan qondirganlariga guvohlar bormi?

— Bor, — sallali kishi o‘zidan sal narida turgan ikki yigitni imlab, yoniga chorladi. — Guvohlar shular.

Shamsibek yaqinlashgan yigitlarning salomlariga alik olgach, yana kishiga yuzlandi:

— Taqsir, guvohlik uchun to‘rt odil musulmon erkak lozimligini unutganingiz yo‘qdir? — Sallali kishi javobdan bo‘yin tovlab, nazarini olib qochgach, Shamsibek yigitlarga yuzlandi: — Sizlar bularni qandayin sharmandali holda ko‘rdinglar?

Yigitlar «kim javob beradi?» degandek, bir-birlariga qarab olishgach, mo‘ylovi o‘sinqirab tepa labini bosayozgan yigit, o‘ziga ham ishonmagan tarzda gap boshladi:

— Boy otam buyurdilarki... nikohlariga olganlarini bir boshi buzuq olib qochgan ekan... «Quvinglar», dedilar. Keyin «ushlangu ushlagan yeringizda o‘ldiring» ham dedilar. Omma, biz o‘ldiradag‘on jallod emasmiz. Bularni shahar yo‘lida tutdigu izlariga qaytardik. — Sizlar ko‘rganingizda qanday holda edilar? — deb savolini takrorladi Shamsibek. — Qiz ot ustida, yigit jilovni ushlab olgan, pastda, piyoda edi. — Demak, ularni sharmandali holda ko‘rmadingiz? — Yo‘q, taqsir. — Taqsir, endi gunohkor deyayotganingiz yigitni chorlang-chi, bu hukmda zinokorning iqrori ham darkor.

Sallali kishining ishorasi bilan yigitni boshlab keldilar. U Ollohning nomini zikr etgani holda qasam ichib, qo‘yilmish aybni inkor etgach, Shamsibek yana sallali kishiga murojaat qildi:

— Taqsir, avvalo shuki, bularning zinokor ekanliklari tasdiq topmadi. Yana shuki, yigit hali uylanmagan, qizning nikohi esa shubhali, avvali — uning nikohga rizoligi yo‘q, so‘ng esa nikohlangani bilan er-xotin sifatida yashamagan, demakkim, u ham oilasiz maqomidadir. Shundoq ekan, ular zinokor bo‘lgan taqdirlarida ham, siz lozim topganingiz hukm — belga qadar ko‘mib, so‘ngra ustlaridan devor bostirmoqlik bularga emas, besoqolbozlarga xossatandir. Yana shuki, bular g‘o‘rlik qilib noma‘qul yo‘lga kirishga urinibdilarkim, bunga jazo — ta‘zirdir, o‘n darra kifoyadir.

Qamariddin Shamsibekning mantiqiy tahliliga qoyil qolib, «Nima der ekan?» degan ma‘noda sallali kishiga qaradi. U javob bermay, tasbehini aylantiravergach, Shamsibek Qamariddinning qulog‘iga shivirladi. Qamariddin hamrohiga ajablanib qaradi-da, so‘ng sallali kishiga yuzlanib:

— Taqsir, bu yigit purdil emish, shu rostmi? — deb so‘radi. — Ha, bu iblisda filning kuchi bor. — U holda men uni sinab ko‘rayin. Men shahriyoremiz uchun purdil yigitlarni tanlab yurib edim. — Ixtiyoringiz, — dedi sallali kishi e‘tiborsiz ohangda. — Yigitga og‘irlik qilmasmikin, ancha azob chekkan, — dedi Shamsibek.

— Purdil azob degan narsani bilmaydi, — dedi Qamariddin. Keyin yigitga yaqinlashib, so‘radi: — Bel olishmoqqa chog‘ingiz bormi?

Yigit Qamariddinga burgut qarash qildi. Uning qo‘l-oyoqlarini yechib qo‘ydilar. U bilaklarini uqalab o‘rnidan turdi.

— Qiyiq beringlar! — dedi kimdir.

Darrov qiyiq uzatishdi. Yigit belini mahkam bog‘lab, Qamariddinga yaqinlashdi. Shamsibek shundagina uning Qamariddindan qolishmasligini sezdi.

Qamariddin harifini bir necha muddat bo‘sh qo‘ydi. Yigit ham shoshilmadi. Ikkovlari bir-birlarining belbog‘laridan mahkam ushlaganlaricha bir yerda aylanishar, go‘yo qulay payt poylashardi. Odamlar maydonchaga yaqinlashib davra hosil qilishgan, hammaning e‘tibori kurashchilarda edi. Bu kurash katta to‘ylar yoki bo‘lak marosimlardagi kurashlarga o‘xshamasdi. Odamlar «Qani, ko‘tar endi!», «Bo‘sh kelma!», «Ha, barakalla!» deb qichqirishmas, quvonishmas, bahslashishmas edi. Kurash osoyishta boshlanib, osoyishta davom etardi. Xaloyiq kurashning nima maqsadda boshlanganidan, g‘olibni nima kutishidan hali bexabar edi.

Qamariddin uch-to‘rt aylangach, yigitni o‘ziga tortdi. Yigit hushyor edi. Beli bukilmadi. Shunda Qamariddin dahanini yigitning yelkasiga qattiq tirab uning belini bor kuchi bilan qisdi. Bel bukilmadi. Qamariddin yigitning oyog‘ini bir oz bo‘lsa-da, yerdan uzib yonboshga olmoqchi bo‘ldi. Yigit zarang daraxtday edi. Oyog‘i yerdan uzilmadi. Qamariddin endi astoydil kurashga berilgan, yigit bo‘lsa unga javob qilishga shoshilmasdi. Bu orada davraning osoyishtaligi buzilgan, ayrim betoqatlar «nega qarab turibsan!» deb baqira boshlashgan edi.

Boshini Qamariddinning yelkasiga tirab olgan yigit yalang oyoqlari bilan yerni paypaslaganday bo‘ldi. Bir zum harakatdan to‘xtadi. Qamariddin uning hamlaga tayyorlanayotganini sezdi. Diqqatini to‘pladi. Darhaqiqat, soniya o‘tmay yigit kuch ishlatdi. Qamariddinning beli bukilmadi. Shunda yigit o‘zini sal orqaga tashladi-da, Qamariddinni aylantirmoqchi bo‘ldi. Eplay olmadi. Davraning hayajoni oshdi. Yigitga kuyunganlar unga dalda bera boshlashdi. Kurashchilar maydonni halqaday o‘rab turganlarga yaqinlashishdi. Odamlar o‘zlarini orqaga tashladilar. Shu damda yigit o‘ng oyog‘ini Qamariddin sari tashlab harifiga yaqinlashdi-da, shu onning o‘zida uni qattiq kuch bilan siltab tortdi. Qamariddinning beli bu kuchga bas kelolmadi. Yigit «yo, pirim!» dedi-da, uni dast ko‘tardi. Olomon xursandchilikdan qichqirib yubordi. Qamariddin yigitning qo‘lida — qarshilik ko‘rsatishga ilojisiz edi. Yigit uni yonboshga ham olmadi, yerga ham qattiq urmadi. Asta yerga qo‘ydi. Polvonlar orasida bunday tantilikni faqat o‘ziga ishonganlar qila olardi. Qamariddin yigitni bag‘riga bosdi. Yigit uning bag‘ridan bo‘shagach, yana joyiga borib o‘tirdi.

— Taqsir, ijozatingiz bilan men bu yigitni shahriyor huzuriga olib ketsam, — dedi Qamariddin katta sallali kishi davrasiga qaytgach.

— Men shariat hukmini buzolmayman. Hukmga ahli islom guvoh bo‘lgan.

Qamariddin olomonga yuzlandi:

— Aziz fuqaro, — dedi u baland ovozda, — bular o‘z jigarbandlaring ekan. G‘o‘r ekanlarki, gumrohlik qilibdilar. Ayblaridan o‘tsa bo‘ladimi?

Har tomondan «bo‘ladi, aybidan o‘ting, taqsir!» degan ovozlar keldi.

— Ana, taqsir, ahli islom rozi. Siz ham rozi bo‘ling. Shahriyor marhamatidan bahramand bo‘lursiz.

«Shahriyorning marhamatini» eshitgach, sallali kishi tasbeh ushlagan qo‘lini ko‘tarib:

— Gunohlari bo‘lsa, u dunyoda Tangri oldida o‘zlari javob bergaylar, — dedi.

Olomon asta tarqala boshladi. Qiz bilan yigit oldiga hech kim yaqinlashmadi. Shamsibek hukm bekor qilingani hamon to‘dadan ota-onalarning otilib chiqib, farzandlari tomon intilishini kutgan edi. Lekin bunday bo‘lmadi. Katta sallali kishi ta‘zim bilan Qamariddinga yuzlandi:

— Taqsir, qadam ranjida qilib, g‘arib kulbamizni charog‘on etsangiz, xizimatingizda bo‘lsak, — dedi u tavoze bilan.

— Qulluq, — dedi Qamariddin yarim ta‘zim bilan, — marhamatingizdan boshimiz ko‘kka yetdi. Bu kech manzilga yetishimiz lozim. Qo‘nib o‘tishga fursatimiz yo‘q.

Yana bir qancha mulozamatlardan so‘ng ular tarqalishdi. Shundagina daraxtzor tomonda turgan ayol va ikki mo‘ysafid ularga yaqinlashishga jur‘at etishdi. Qiz yuzini devor tomonga o‘girib, yigit esa boshini quyi egib o‘tirardi. Ayol qizning boshiga qora to‘n yopdi.

Mo‘ysafidlar yigitni qo‘ltig‘idan olishdi. Qamariddin bilan Shamsibek ularga yaqinlashishgach, yigit qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi-da, bosh egdi:

—Qulluq, taqsir, — dedi yo‘g‘on ovoz bilan.

Uning bu ta‘zimida mag‘rur minnatdorlik sezilib turardi.

— Sizlar har nechuk bu zo‘rlarning volidlaridursizlar? — dedi Qamariddin mo‘ysafidga yuzlanib.

— Yo‘q, taqsir, — dedi qariyalarning biri, — ko‘rib turganingiz shu yigit biznikida qo‘noq edi. Jannatmakon otasi bilan biz ulfat edik. Ko‘rib turganingiz bu ayol esa zaifamiz bo‘ladilar.

— Qizning volidayniz nechuk ko‘rinmaydi?

— Taqsir, bu voqeadan keyin qizlarini oq qilganlar.

— Ismi nasabing nima? — deb so‘radi Qamariddin yigitdan.

— G‘animurod To‘xtamurod o‘g‘li, — dedi mo‘ysafid yigit o‘rniga javob berib.

— G‘anipolvon, tongga qadar yo‘l hozirligini ko‘rib qo‘y. Bomdoddan so‘ng yo‘lga chiqamiz.

— Karvonsaroygacha hali ko‘p yuramizmi? — deb so‘radi Shamsibek.

— Ha, xiyla bor.

— Taqsir, — dedi gapga aralashmay qo‘l qovushtirib turgan mo‘ysafid. — Aybga buyurmaydilar, biz g‘ariblarga iltifot ko‘rsatib, ko‘nglimizni tog‘day ko‘tardingizlar.

Karvonsaroy xiyla uzoqda, shu boisdan yana marhamatlarini ayamay, bizga qo‘noq bo‘lsalar. Borimizni baham ko‘rsak.

- Bajonidil. Ammo sizlarni bezovtalab qo‘ymasak edi...
- Kambag‘alning uyi tor bo‘lsa ham, ko‘ngli keng, taqsim.

Chog‘roq hovliga kirib kelishdi. Ayollar tez- gina ichkariga o‘tib ketdilar. Mehmonlar uchun qora chiroq yonib turgan, qizil sholcha solingan uyga joy qilindi. Dam o‘tmay hovliga odam to‘plandi. Qo‘y so‘yildi. Aftidan uy egasining qo‘ni-qo‘shnilari ham «marhamatli kishilar»ning qo‘noq bo‘lganini eshitib, topgan-tutganlarini olib chiqishgan edi.

Mo‘ysafid tashqariga yo‘nalishi bilan Shamsibek hamrohidan: «Ulamolarning gapini nechuk yerda qoldirdingiz?» — deb so‘radi.

— Ular ham Sayid Oshiq kabi odamlar-da, so‘zi shirinu tilida zahar bor. Ko‘ngli qora. Bergan bir burda noni menga singmaydi.

— Harakatingizdan taxmin qilib edim, to‘g‘ri chiqdi, — dedi Shamsibek kulimsirab. Keyin eshik og‘zida ko‘ringan mo‘ysafidga qarab: «Eshigingizda to‘y bo‘lib ketdi, shekilli?» — dedi.

— Albatta, albatta, sizdek tabarruk zotlar keladiyu to‘y bo‘lmaydimi?

— Siz G‘anipolvonga valid o‘rnida ekansiz. Shu yig‘inni uning to‘yiga aylantirsak-chi?

— Ajab bo‘lar edi, — dedi mo‘ysafid quvonib. — Agar G‘anijonni olib ketish chindan xayolingizda bo‘lsa, nikohini ko‘rib qolsak...

— Domlani chaqiraering, — dedi Qamariddin uning so‘zini bo‘lib.

— Taqsim, o‘zlari mullo ko‘rinadilar, — dedi mo‘ysafid Shamsibekka murojaat qilib. — Agar malol kelmasa, o‘zingiz o‘qisangiz. Qishlog‘imiz domlasi jur‘at etolmaydi.

— Maylingiz, — dedi Shamsibek. — Qiz tomonga ham xabar qiling, hozirlik ko‘rib qo‘ysunlar.

Mo‘ysafid chiqdi. Bir ozdan so‘ng nikoh marosimi boshlandi.

Hovliga katta gulxan yoqildi. Yigitlar G‘anipolvonni o‘t atrofida aylantirib yor-yor aytishdi. Ichkaridan ham ayollarning yor-yori eshitildi. Hamma marosim bajo keltirilgach, odamlar tarqalishdi. Qamariddinning xohishi bilan katta o‘rik ostidagi supaga joy qildilar. Mo‘ysafid ham supa chetiga yakandoz soldi.

— G‘anipolvonning validlaridan joy qolmaganmidi? — deb so‘radi Shamsibek yotar chog‘i.

— E, taqsim, buning tarixi uzun, — dedi mo‘ysafid supa chetiga omonat o‘tirib. —

G‘anijonning dadalari ham nom chiqozg‘on polvon edilar. Es-es bilaman, buvalarining ham kuraklari yerga tegmagan. To‘xtamurod polvon kurash tusharmish desa, muzofotning odamlari yog‘ilib kelardi. Mard odam edi. Harifiga sira shikast yetkazmasdi.

Bu gapni eshitib Qamariddin maydondagi voqeani esladi-da, bir qimirlab oldi. Mo‘ysafid hikoyasini davom ettirdi:

— Bir kuni deng, shu Ahmadboyvachchani dadalari sunnat qildirgan kunlari edi shekilli, uloq berdilar. Muzofotning o‘n chog‘li nomdor polvonlarini ham ayttingan ekanlar. Katta kurash bo‘ldi. To‘xtamurod yonimizda jilmayib turaverdilar. Qarasak, maydonga tushgulari yo‘q. Polvonlar ham, odamlar ham shu kishiga qarashdi. Oxiri boybuving o‘zlari chaqirdilar, maydonga tush dedilar. «Aybsitmang, boybuva, bugun tusholmayman», dedilar To‘xtamurod.

Shunda boybuva xunuk soʻzlarni aytvordilar. Toʻxtamurodning hamiyatlari kuchli edi. Belbogʻni mahkam bogʻlab oʻrtaga tushdilar. Ikki-uch aylantirishda davraning zoʻri boʻlib turgan polvonning kuragini yer tishlatib, belbogʻni yelkalariga tashlab, sovrinni olmayoq chiqib ketdilar. Orqalaridan bordik. Avvaliga kurashga tushmaganlarining boisini soʻradik. Toʻxtamurod toʻnni yechib, yaktakni koʻtardilar. Bellariga deng, ikkita yongʻoqday chipqon chiqqan ekan, haligi kurashda belbogʻ siqib yuboribdi. Biz toʻyga qaytdik. Toʻxtamurodning sovrinni olmaganlari boybuvaga qattiq tekkan ekan. Haligi polvonlarni sarxush qilib, Toʻxtamurodga yuboribdilar. Nomardlar deng, u kishini ayamay doʻpposlashibdi. Ertalab borsak, Toʻxtamurodning boshlari yorilgan, qoʻli singan. Qaytar mahalimiz Toʻxtamurod «Endi bu qishloqdan boshimni olib ketaman. Shahristonga boraman», deb qoldilar. Ertasiga kelib koʻch-koʻlonlarini aravaga ortib berdik. Toʻxtamurodning issiqlari baland, koʻzlari kirtaygan, biror kun qoling, desak ham koʻnmadilar. Aravaga zavjalari bilan endi tilga kirgan Gʻanijonni chiqarib, oʻzlari otni yetakladilar. U kishidan oʻn olti yo oʻn yetti yil darak boʻlmadi. Oʻtgan qovun pishigʻida Gʻanijon kirib keldilar. Eski aravada volidalari. Margʻilondagi bir kurashda Toʻxtamurodning bellari qattiq lat yeb, qazo qilibdilar. Gʻanijonning volidalari xasta ekanlar, uch kundan keyin omonatlarini topshirdilar. Ularning eshiklarini Ahmadboyvachcha oʻziniki qilib olgan edi. Marhumani shu oʻzimizning eshikdan chiqardik... Agar aybga buyurmasangiz, sizdan bir narsani soʻrasam.

— Marhamat.

— Bilishimcha, bu tong yoʻlga chiqasizlar. Gʻanijonni olib ketish niyatidasizlar. Chillalik deganday...

— Darvoqe, bu tomonini oʻylamabmiz-ku? — dedi Qamariddin.

— Qaytar mahalimiz kirib oʻtsak-chi?

— Maʼqul gap. Ammo nojinslar...

— Xotirjam boʻlaversinlar, taqsir, bu yoqda biz bor. Endi ular sharʼiy nikohdalar, jurʼat qilolmaydilar.

Oʻrtadagi gulxan asta oʻchib bordi. Bir-ikki uchqun sachratgach, qizil choʻgʻ ham soʻna boshladi. Sachragan uchqunlar xuddi yulduz boʻlishga shaylanganday, koʻkka sapchidi-yu, lekin yerdan bir quloch uzilmay yengil kulga aylanib zaminga qoʻndi. Borliq qorongʻilik qaʼriga singdi. Shamsibek uzoq vaqt itlarning xurishiga quloq tutib yotib, koʻzi ilinganini sezmadi.

Bomdodga turishganida moʻysafid safar jabduqlarini tayyorlab qoʻygandi. Nonushtadan soʻng otlarni yetaklab tashqariga chiqishdi.

— Manzillaringiz Andijonmi, taqsir? — deb soʻradi moʻysafid.

— Andijondin ikki yigʻochi yoʻl. Buloqboshi degan qishloq, — dedi Shamsibek.

Xayr-xoʻshlashib yoʻlga tushdilar. Bir-biriga koʻngil qoʻygan qiz bilan yigitni qovushtirib qoʻyganlaridan ikkovlari ham xursand edilar...

MAJBURIY TANAFFUS

«19... yil, 20 aprel. O‘zFA Biofizika ilmiy-tekshirish instituti. Professor Alievning tajribaxonasi.

Soat 14.30. Tajribaning to‘rtinchi bosqichi boshlandi. Meditsina komissiyasi professorning asablaridagi o‘zgarishni qayd qildi. Lekin ushbu bosqichdan so‘ng dam olish sharti bilan tajribani davom ettirishga ruxsat berdi.

Soat 18.35. Professorning yurak urishi tezlashyapti.

Soat 18.50. Elallomaning tahlillash va xulosalash bo‘limidagi kuchlanish o‘zgardi. Professor yuragining urishi mo‘tadillashmayapti.

Soat 18.53. Elallomaning tahlillash va xulosalash bo‘limidagi ogohlantirish chiroqlari yonib o‘cha boshladi. Professorning yurak urishi yanada tezlashdi. Tajribani to‘xtatishga buyruq berilishi bilan elallomadagi uzatgichlarda uchqun ko‘rindi. Asbob butunlay to‘xtab qoldi. Professor o‘rnidan turib ketdi. Hamma simlarni uzib yubordi. Meditsina komissiyasi uning asablarida katta o‘zgarish sodir bo‘lganini aniqladi. Tajriba noma’lum muddatga kechiktirildi».

Jahongir sakkiz kun shifoxonada yotdi. Dori-darmondan so‘ng titrog‘i yo‘qoldi. Shundan keyin «Tinchroq joyda bir oy dam olishingiz zarur», deb unga ruxsat berishdi. Eshik og‘zida uni Jamshid kutib oldi. Otasidan hol-ahvol so‘radi. Jahongir uning barcha savollariga «yaxshi, durust, bir navi» deb javob berdi-da, «ishlaring nima bo‘ldi?» deb so‘radi.

— Yaxshi, — dedi Jamshid otasiga taqlid qilib.

— Akademiyadan yo‘qlashdimi?

— Kelishdi. Komissiya tuzib tekshirishyapti.

— O‘zingni himoya qila olasanmi?

— Ha. Qaerda xatoga yo‘l qo‘yganimni ham taxminan aniqladim.

— Yaxshi.

— Akbarali aka degan qarindoshimiz bor ekanlar.

— Keldimi?

— Ikki marta yo‘qladilar. Qaerdaligingizni aytmadim.

— Yaxshi qilibsan.

— To‘lqin aka bilan Sulton akalarga ham aytmovdim. Tajribaxonadan so‘rab bilishibdi.

— Chakki qilibsan. Ularga aytish kerak edi.

To uyga yetgunlaricha gurunglashib bordilar. Jamshid choyga qaradi, ovqatga unnadi. Soat o‘n bo‘lishi bilan televizorni o‘chirdi-da, shifoxonadagi navbatchi vrach kabi qat‘iy qilib: «Dada, endi yotishingiz kerak», dedi.

Jahongir kulib qo‘ydi-da, buyruqqa bo‘ysinib, xonasiga kirib yotdi. Yarim soatlardan so‘ng Jamshid xonaga asta mo‘raladi. Otasining ko‘zlari yumuq, tinchgina uxlar edi. Jamshid asta eshikni yopdi. Mehmonxonaning chirog‘i o‘chdi. Jahongir o‘g‘lining albatta tekshirishini bilib o‘zini uyquga solib yotgan edi. Uydagi chiroqlar o‘chgach, o‘rnidan turib deraza va

eshik pardalarini yopdi. Keyin yozuv stoliga o'tirdi-da, tajriba kundaligining davomini yoza boshladi.

IJRO ETILGAN HUKM (KUNDALIKNING TO'RTINCHI SAHIFASI)

Andijonga oqshom qo'na boshlagan mahalda kirib bordilar. Tunni karvonsaroyda o'tkazib, viloyat podshohining huzuriga qaytishda kiramiz, degan qaror bilan, tongda Buloqboshini qoralab, otlarga qamchi bosdilar. Adirga yetishganda Qamariddin jilovni tortdi.

— Hech narsa o'zgarmabdi, — dedi u atrofga nazar tashlab.

— Bu yerlarga ilgari ham nazaringiz tushib edimi? — dedi Shamsibek uning yonida to'xtab.

— Tavbalari qabul bo'lgur padari buzrukvorim shu yerda shahid bo'lganlar.

— Qaysi muhorabada shahid bo'lib edilar?

— Sakkiz yuz o'n yettinchi yilning muharramasi edi. Biz u damlar norasida edik. Padari buzrukvorim meni o'zlari bilan olib yurardilar. Shahriyor mirzo Amirak Ahmad ustiga qo'shin tortgan edilar. Axsi qal'asining muhosara qilinganini o'zim ko'rdim. Axsi mening nazarim tushgan qal'alar ichida eng ulug'i edi. «Qal'a mezanalaridan falak boshloqlarini termoq mumkin, undan arshi a'zam elizning g'ulg'ulasi eshitilur», degan kalimalarni ko'p tinglaganman. G'alabayor lashkar qal'ani egallagach, onhazrat raiyatga tinchlik maydoni va omonlik makonidan o'rin berib, Andijon sari yo'l oldi. Mirzo Amirak Ahmad davlatpanohning qahridan qo'rqib, tog'lardan makon topgan edi. Shahriyor amir Musako ixtiyori bilan amir Muhammad Tobonlarni ayolatni idora etmoqqa tayinlab, Samarqandga qaytdilar. Amir Musako ixtiyori bilan padari buzrukvorim uning xizmatida qoldi. Oy oralamay mirzo Amirak Ahmad Andijonga yurish qildi. Amirlar raiyatga ozor bermaslik qasdida shahardan tashqariga chiqdilar. Padari buzrukvorim muhoraba maydonidan omon qaytmadi. Mirzo Amirak Ahmad amirlarni ham qatlg'a yetkazibdi. Ammo amir Rustam Andijonni mirzoga bermay, bizni ham omon saqlab qolgan edi.

— Bundan mening ham xabarim bor. Shahidlarni dafn etmoqqa qabriston torlik qildi, derdilar. Biz bu fojining fahmiga ko'pam yetmas edik. Murdadan qo'rqar edik.

Qamariddin otni niqtadi.

— Padari buzrukvorimning jasadlarini menga ko'rsatishgan. Boshlaridan qilich yegan ekanlar. Ming qatla shukrkim, sultonimiz besabab qilich sug'urmaydilar. Padari buzrukvorim «Mirzoda sohibqironning jangariliq rasmi ko'rinmaydi», deb aytardilar.

Qamariddin endi Ulug'bekning yurishlari va himmatlari haqida gapirib borar edi. Ular jilovni bo'sh qo'yishgan, otlar bu yo'ldan ko'p yurib o'rganib qolgandek, adirdan oshib o'tardilar.

Uzoqdan daraxtlarga burkangan qishloq ko'ringach, Shamsibek hamrohining so'zini bo'ldi:

— Mana keldik, — dedi u ichki bir hayajon bilan.

— Jannatgami? — dedi Qamariddin hazilla-shib.

— Arzimaydimi?

— O'xshaydi, — Qamariddin kuldi. Shamsibek ham jilmayib qo'ydi-da, otga yengil qamchi urdi.

Kun choshgohga borgan, qishloq sokin edi. Chug'urchuqlarning chirqillashi, tartaraklarning ovozlarigina baland ishkamlar orasida odamlar borligidan darak berardi. Ular ko'chaga burilishdi. Oftobda qizib, bilqillab turgan tuproqni tuyoqlar to'zitib borardi. Qamariddin hovlilarni shiypon kabi to'sib turgan ishkamlardan ko'z olmaydi. Yana xiyol yurishgach, chog'roq maydonchaga chiqishdi. Maydoncha o'rtasida buloq qaynab turar, suv ildiz kabi taralgan ariqchalarga tarqab ketgan edi. Buloq bo'yida ikki bola loydan qubba yasab o'ynar, sochlarini mayda o'rib, pilik taqib olgan besh-olti qizaloq esa, qo'l ushlab chug'urlashishardi:

Chittogulu chittogul,

Etagingga chit bosay,

Qo'lim qo'lbog'da,

Belim belbog'da,

Ha-yu, chittogul

Ha-yu chittogul...

Shamsibek ularga kulib qaradi-yu, otdan tushib ro'paradagi eshikni itardi. Ochilmagach, qamchinining dastasi bilan taqillatdi.

— Atta hech kim yo'q, — dedi qubba yasayotgan bola loy qo'lini ishtoniga artib.
— Qaerga ketishdi?

Bola yelka qisib burnini tortib qo'ydi.

— Eshiklaringda kim bor?
— Buvim.
— Otang-chi?

Bola yana yelka qisdi.

— Yugur, buvingni aytib chiq. Shamsibek akam kelibdilar, de.

Dam o'tmay yon eshikda ayol sharpasi sezildi. Keyin siniq ovoz eshitildi:

— Keling, omon qaytdingizmi?
— Assalomu alaykum, bucha. Sog'-omonmisiz, akam salomatmilar? Eshikdagilardan xabaringiz yo'qmi?
— Ular sizdan keyinq Shironbuloqqa ko'chib ketishgan. Dadangizning bo'lalari olib ketdilar.
— Nimaga?
— Nevlay. Qofir, degan gap tarqaldi. Qayin otangizni Andijonga olib ketishibdi, deb

eshitaman.

— Nimaga?

— Nevlay. Akangiz gapirmaydilar. Qo‘shnilar «Endi shaharda ishlarmish», degan gap aytishyapti. Mehmoningiz borga o‘xshaydi. Mehmonxonaga kira turinglar, akangiz hali zamon kelib qoladilar.

— Qulluq, bucha, Shirmonbuloqqa chiqa qolaylik.

Qamariddin gaplarni eshitib turgan edi. Shuning uchun indamay Shamsibekka ergashdi. Bu safar tuproq yo‘ldan piyoda borishdi. Tuproqning issig‘i etikdan o‘tib oyoqqa noxush ilqlik berardi. Ularning ortidan bir zumgina qarab qolgan qizaloqlar yana o‘yinlarini boshladilar:

Boychechagim hillolik,
Hamyon-hamyon tillolik,
Boychechagim bonasi, bonasi,
Qulog‘ida donasi, donasi,
Olay desa, voy o‘lay,
Yugurib chiqdi onasi, onasi.

Qamariddin qizaloqlar tomon bir qarab olib:

— Haq taoloning qudratini qarang, odamzotga shuncha tashvish bilan birga, ko‘zi quvonsin, deb ajoyib ne‘matlarni ham bergan-a, — dedi. — Bu ne‘matlarning odam bilan ishi yo‘q, odam o‘lyaptimi, qolyaptimi, bari bir yog‘ilaveradi.

— Ha... boychechakka yetgan yetadi, yetmagan yo‘q.

Dala yoqasidagi yo‘lga chiqishgach, otga minishdi. Yarim yig‘och yo‘ldan so‘ng yana jannatsifat qishloqqa kirishdi. Aylanma ko‘chalardan tez o‘tishdi. Shamsibek bir eshik oldida jilovni tortib, uzangiga oyoq tirab turdi-da, bo‘y cho‘zib devor osha ichkariga qaradi. Peshayvonda emaklab yurgan o‘g‘lini, unga hay-haylab turgan onasini ko‘rdi-yu, ko‘ngli tinchib, otdan tushdi. Eshikni bir-ikki taqillatib, javob kutmayoq ichkariga kirdi. Qamariddin ularning so‘rashib olishlarini, ayollarning ichkari hovliga o‘tishlarini kutib, bir zum tashqarida qoldi.

Shamsibekning dadasi yumush bilan O‘shga tushgan ekan. Ikki kundan so‘ng qaytdi.

Shamsibek shundan keyingina shahriyorning istagi bilan Samarqandga ko‘chajagini aytdi.

Ismoilbek moshgurunch bo‘lib qolgan bir tutamgina soqolini silay turib, asta xo‘rsindi.

— Shahriyor shunday istak qilgan ekanlar, ilojimiz qancha.

— Hammamiz birga borsak-chi? — dedi Shamsibek.

Ismoilbek kulimsiradi.

— Shahriyorga siz keraksiz! Bizdan nima naf?

— Har nechuk...

—Yo‘q, o‘g‘lim, shuncha tashvish ham yetib ortyapti. Daraxtni qariganda ko‘chirsangiz

tutmaydi. Ukangiz tahsilni yarimlatdi. Hali zamon orzu-havas ko‘rishimiz kerak.

— Ukam Samarqandda tahsil ko‘rsa, deb edim.

— Samarqandga bordi nimayu shu yerda tahsil ko‘rdi nima? Bari bir emasmi? Qaynatangiz eng katta mudarrisilarga ham dars bera oladiganlardan. Mana siz tahsillarini olib kam bo‘lmadingiz-ku? Madrasa tuprog‘ini yalamayoq shahriyor nazariga tushdingiz. Madrasaga borgan Abdulvahob nima karomat ko‘rsatyapti. Ketganiga besh-o‘n yil bo‘lyapti, chamamda. Odamlar tahsildan yuz o‘girib darveshlikni xayol qilibdi, deyishyapti. Siz uni ko‘rmadingizmi?

Shamsibek javob berishga taraddudlandi. Otasiga yolg‘on gapira olmay, dedi:

— Odamlar aytishsa balki...

— Noqobil bola bo‘ldi. Farzandning gardanidagi tuz haqini unutishi volidaynning sho‘ri.

— Dada, buvimdan so‘ramadim, qo‘qqisdan shu yerga ko‘chishingizning boisini bilmoqchi edim.

— Qo‘qqisdan ko‘chmadik. Hamma narsa Ollohning xohishi bilan navbatma-navbat keladi. Siz ketgach, kozi barimizni dabdurustdan shakkokka chiqarib qo‘ydi. «O‘g‘ling iblisning tilini biladi, iblislar bilan irlashadi», deb tinchimizni buzdi. Bir tomondan qayin otangizga ham tosh otildi. U kishi Andijondan panoh topdilar. Kelib izlab yurmang, deb biz bu yerga qo‘noq bo‘ldik. Shahriyorning nazarlariga tushibsiz, inshoolloh endi peshonamiz yaraqlasa.

— Inshoolloh, shunday bo‘lajak, — dedi ota-bola suhbatiga jimgina quloq berib o‘tirgan Qamariddin.— O‘g‘lingiz nazarkarda yigit. Qaytar mahalimiz ayolat podshohini bu gaplardan voqif qilib o‘turmiz. Shahriyorning marhamatlari boshingizdagi qora bulutlarni haydab yuborsa ajab emas.

— Shoyad aytganingiz kelsa...

Shamsibekning ketishi muhokama talab voqea emasdi. Shuning uchun ayollar lablarini tishlab, ko‘z yoshi oqizib, lekin ovoz chiqarmay safarga tayyorlanishdi. Ismoilbek har namozdan so‘ng o‘g‘lining nomini qayta-qayta tilga olib Haq taolodan shafiqona marhamatini ayamaslikni so‘radi.

Kuyovining qaytgani va Samarqandga ko‘chib ketajagini eshitgan Sherbek zargar Andijondan yetib keldi. Qamariddin ularni shoshirmas, unga sari Shamsibek xijolat chekardi. Nihoyat, juma namozidan so‘ng bir jonliq so‘yib, xayri-xudoyi qilishni, shanba bomdoddan so‘ng, ya‘ni tuproq uyg‘onmay yo‘lga chiqishni rejalashdi.

Erkaklar tunda bir oz mizg‘ib olishdi. Ayollar ichkarida ivirsib yurib, tinim bilishmadi.

Ularning tun bo‘yi qilgan mehnatlari tongda dasturxonda ko‘rindi. Nonushtadan keyin yana bir karra qur‘on tilovat qilingach, qo‘zg‘alishdi. Shamsibek ichkari hovliga kirdi. Ayollar uning yelkasiga qo‘llarining uchini tekkizib, yuzlariga fотиha tortishdi. Piqillab yig‘lashdi. Eng oxiri Shamsibekning volidasi keldi. Titroq qo‘li bilan o‘g‘liga tandirda qizarib pishgan non uzatdi:

— Tishlab keting, bolam, nasibangiz... shu yerda qolyapti, ilohi eson-omon bag‘rimga qaytib keling...

Shamsibek nonni tishlayotganida koʻziga yosh keldi. Lablari titradi. Luqmani yutolmay qoldi. Bir tishlam non goʻyo tosh kabi tomogʻida turib qolganday boʻldi. Lekin darhol oʻzini bosib, xayolini joyiga yigʻdi-da, xayr-xoʻshlashib, kutib turgan erkaklar qatoriga chiqdi. Ismoilbek, oʻgʻli chiqqach, tesha bilan ostonani sal choʻqiladi-da, bir siqim tuproq olib xaltachaga soldi. — Yuragingizga madad boʻladi. Tumoringizni yoʻqotsangiz ham, bundan ajralmang, — deb Shamsibekka uzatdi.

Shamsibek uni koʻziga surtib chap tarafdagi ich choʻntagiga soldi.

Ikki arava va ikki otliq qishloqni maʼyus tashlab chiqib ketdi.

Sherbek zargar viloyat podshohining xizmatiga oʻtgan ekan. Shu bois, Andijon ahli orasida birmuncha eʼtibor topibdi. To saroyga borilguncha bir qancha odam ularga egilib salom berdi. Shamsibek qaynatasining eʼtiborini shundan bildi.

Viloyat podshohiga mirzo Ulugʻbek nomasini topshirishgach, Qamariddin polvonlar kurashini koʻrmoqni ixtiyor qilib, Margʻilonga tushib ketdi. U shahriyorning istagi bilan purdil yigitlarni Samarqandga olib ketishi lozim edi.

Shamsibek esa madrasa tomon yoʻl oldi. U Shirmonbuloqda ekanligida otasi Andijonga xabar qilib, kenjasini chaqirtirmoqchi boʻlganida «tahsilidan uzilmasin, qaytishda koʻrishamiz», deb unamagandi. Shamsibek bir qavatli pastak madrasaning darvozasidan ichkari kirib, turib qoldi. Sahnda hech kim yoʻq. Biror ovoz ham eshitilmaydi. U bir fursat taraddudlandi-da, ukasining hujrasi tomon yurdi. Hujra ham boʻsh edi. Nima qilarini bilmay turganda hovlida choynak-piyola koʻtargan yigit koʻrindi. U hujra oldida turgan Shamsibekka yaqinlashib salom berdi.

— Agar xotirim faromush boʻlmasa, siz mullo Xurshidbekning akalarisiz?

— Ha, shunday. Xurshidbekni yoʻqlab kelib edim. Hujralarida yoʻqlar.

— Ular bu on doʻstlari bilan bahs qurganlar. Yuring, men uzatib qoʻyay.

Yigit shunday deb Shamsibekni qarshidagi hujralardan biriga boshladi. Mullavachchalar mehmonni koʻrib, darhol oʻrinlaridan turishga chogʻlandilar. Shamsibek ukasi bilan quchoq ochib koʻrishdi. Boshqalar bilan ham alohida-alohida soʻrashgach, unga toʻrdan joy berdilar. Yuzga fotiha tortildi. Shamsibek oʻtirganlar bilan ukasini avval yoʻqlab kelganda tanishgan, suhbat qurgan edi.

— Men kirib suhbatlaringizga xalal berdim shekilli? — dedi u davraning jimib qolganini koʻrib.

— Asti unday emas, — dedi mullavachchalardan biri. — Biz shunchaki bahsga berilgan ekanmiz.

— Bahslari sir boʻlmasa, davom etsa, men xijolatlikdan qutular edim.

— Sir emas. Undan voqif boʻlishingiz biz uchun ayni muddao.

Shamsibekka sopol piyolada choy uzatdilar.

— Mulla Samad, siz fikr aytmoqni ixtiyor qilib edingizmi? — dedi choy uzatayotgan yigit.

Aftidan u hujra egasi, davraboshi edi.

— Men mulla To‘rabekning «Dunyo g‘am-alam bilan boshlanib, g‘am-alam bilan o‘tur va tugashi ham shudur», degan fikrlarini quvvatlash niyatida edim. Bu haqiqatga yaqin hikmat.

— G‘alat! G‘alat! Unday emas. — Eshikka yaqin o‘tirgan yigit do‘rillagan ovozi bilan uning gapini uzdi. — Dunyo mo‘jiza bilan boshlanib, tugashi ham bir mo‘jiza bilan bo‘lur. Shunday emasmi, taqsir?

Shamsibek piyolani dasturxonga qo‘yib, o‘ylanib qoldi. Keyin savol bergan yigitga qaradi.

— Siz haqsiz, mulla. Olloh taoloning yetuk hikmat va to‘liq qudrati bilan Odam alayhissalomni yaratgani ham, uning farzandlaridan ba‘zilarini rasul qilib, haq yo‘lga da‘vat etsinlar uchun xalq orasiga yuborgani ham bir mo‘jiza. Bu osmon bir tarzda aylanavermaydi. Bandaga goh shodlik, goh g‘am beradi. Dunyodan g‘am-alam bilan o‘tish har kimsaning o‘zigagina bog‘liq. Muhammad alayhissalom aytibdilar: «Olloh marhamatini ayamay senga yaxshilik qilgan ekan, sen ham kishilarga yaxshilik qil». Alalxusus, hamonki dunyoda biron kishi boqiy qolmas ekan, undan faqat yaxshilik yodgor bo‘lgani durust. Yaxshilik mavjud ekan, g‘am-alam unut bo‘lur.

— Ko‘p ma‘qul gap aytdingiz, taqsir, — dedi hujra egasi, — hojatmandlarga insof va adolat eshiklari ochiq bo‘lsa, g‘am-alamdan xolis bo‘lg‘aymiz.

— Ammo «Baxtiyorlik ichra sen baxtsizlikka uchrashdan qo‘rqin», deyilmish hikmatni unutmoqligimiz butkul nojo‘ya, — dedi To‘rabek ismli mullavachcha.

Shamsibek kulimsirab qo‘ydi. Keyin hujra egasiga qarab dedi:

— Mulla, meni bahsdan ogoh qilib, bag‘oyat xursand etdingiz. Men akbod payvandimining shunday subhi sodiqdek pok do‘stlari borligidan behad mamnunman. Endi, ma‘zur ko‘rasiz. Xurshidbek bilan majlisni tark etsak, Xudo xohlasa, bunday suhbatlarda yana ko‘p bo‘lamiz.

Barchalari hurmat yuzasidan turib, ularni kuzatib qo‘ydilar. Aka-uka quyoshning tig‘ida ko‘chada yurmaslik uchun hujraga kirishdi. Xurshidbek akasidan sakkiz yosh kichik. Ular orasidagi uch farzand turmagan edi. Uch farzand dog‘idan so‘ng dunyoga kelgani uchun Xurshidbek anchayin erka o‘sgandi. Shamsibek maktabdan so‘ng tahsilni bo‘lg‘usi qaynatasidan olgan edi. Uning mutolaaga ishtiyoqi baland edi. Ammo Xurshidbek akasining aksi bo‘lib chiqdi. Shunday bo‘lsa-da, otasi uni madrasaga berdi.

Aka-uka o‘tgan-ketganlardan gaplashib o‘tirdilar. Shundan so‘ng Shamsibek ukasidan so‘radi:

— Ixtiyor qilsang, shahristonga olib ketay. Zukko va dono mudarrislardan saboq olsang, nur — alannuri bo‘lurmikin?

— Hojat bormikin? Ilmga chanqoqligim siznikicha bo‘lganida boshqa gap edi. Men siz kabi o‘zimni ilmga baxshida qilolmayman. Shunga majbur bo‘lgan taqdirimda ham biror ma‘no chiqishiga ko‘zim yetmaydi.

— U holda madrasada tahsil ko‘rishingdan qanday naf bor?

— Bu dadamning istaklari. Farzand erki volidning qoʻlida ekan, men bu istakni bajo keltirishga majburman.

Sherbek zargar Xurshidbekni, albatta olib keling, deb tayinlab, dasturxon tuzab turajagini aytgan edi. Issiqning kuchi kesilgach, aka-uka yoʻlga tushdilar.

Zargarning dasturxoni atrofida Andijonga kelib turgʻun boʻlib qolgan yana uch buloqboshilik bor edi. Aka-uka ularni yaxshi tanishmas edi, shu bois suhbatlariga koʻp aralashmadilar. Xurshidbek mehmonlarning xizmatida boʻldi. Palov suzib kelinib, endi bir-ikki osham olinganida eshik taqilladi. Bir ozdan keyin zargar oq kigiz qalpoqni bostirib kiygan bir kishini boshlab keldi. Bu Abdulvahobning otasi edi. Shamsibek qorachiroqning yorugʻida uni darrov taniy olmadi.

— Togʻdagi chorva bilan ovora edim. Qaytsam, Shamsibek oʻgʻlim kelib ketibdilar. Kishining yuzi issiq boʻlar ekan, istab topib keldim. Ammo, usta, shaharning kishi bilmas koʻchasidan eshik olgan ekansiz. Oqshomdan beri izlab madorim qurib ketdi. — Boybuva joylashib, gaplarini aytib boʻlguncha Xurshidbek obdastada suv keltirib, Boybuvaning qoʻliga quydi. Boybuva oshga qoʻl uzatar mahali oʻgʻlidan gap ochdi:

— Abdulvahobni koʻrgandirsiz?

— Koʻrdim, duo dedi.

— Oʻzi durustmi? Madrasadami yo...

Shamsibek ovqat ustida bunday gapning qoʻzgʻalishini istamagani uchun uning soʻzini boʻldi:

— Qani, boybuva oshga qarang.

Zargar kuyovining soʻzini quvvatladi:

— Avval taom, baʼd az kalom. Osh mahtal boʻlib qolmasin. Olsinlar. Kecha uzun, bafurja gaplashaverasizlar.

Shundan soʻng «oling-oling»dan boʻlak soʻz aytilmadi. Dasturxondan tovoq olinib, fотиha oʻqilgach, qoʻlga suv berildi. Shamsibek choy quyib uzatdi. Boybuva yana oʻgʻlini tilga oldi.

— U hozir shahar poyidagi xonaqohdan panoх topgan, — dedi Shamsibek bosiq ovozda. Boybuva gangib qoldi. U bu gaplarni avval ham odamlardan eshitgan, lekin ishonmay, hech kimga soʻz bermay kelayotgan edi. Haqiqatning notanish odamlar orasida ochilishi uning miyasiga chaqinday urildi.

— Nega? Xonaqohda nima bor ekan unga? Madrasa-chi?

— Ilmdan yuz oʻgiribdi.

— Sabab?

— Sababi yolgʻiz Haq-taolloga maʼlum.

— Uyga qaytishni ham ixtiyor qilmadimi?

— Yoʻq.

— Mudarrislar nima deyishdi?

— Boybuva, men bu yogʻini surishtirmadim.

— U qaysi iblisning vasvasasiga uchgan...

Suhbatga mehmonlarning biri aralashdi:

— Taqdir, muncha kuyunadilar, qalandarlik gunoh ish emas-ku?

Boybuva soʻz qotgan kishiga jahl bilan qaradi:

— Mening oʻgʻlim ahli donish davrasiga loyiq yigit.

Boybuva shunday deb fotihaga qoʻl ochdi. Mezbanning iltimoslariga qaramay, «shu tongdayoq Samarqandga otlanaman, borib uni toʻgʻri yoʻlga solaman», deb sovuqqina xayrlashganicha chiqib ketdi.

Qamariddin juma bozorining indiniga tanlagan purdil yigitlari bilan qaytdi.

Hafta oʻtmay besh arava bilan oʻn toʻrt otliq Samarqand sari yoʻl oldi. Sherbek zargar bilan Xurshidbek ularni ancha yergacha kuzatib chiqdilar. Sherbek zargar «Siz tuz haqini bajardingiz, ilohi falakning aylanishi siz istagancha boʻlgʻay», deb duo qilib qoldi.

Bu kichik karvonga yana Gʻanimurod bilan uning oilasi qoʻshilishi lozim edi. Kunduzi yoʻl yurish ayollarni xiyla qiynab qoʻydi. Hamisha oftobning tigʻida boʻlish otliqlarni ham lohas qildi. Shu sababli oqshom tushmay rabotga qoʻnishdi. Ayollar taom tayyorlaguncha Gʻanimurodni xabarlaylik, deb Shamsibek bilan Qamariddin qishloqqa ketishdi.

Gʻanimurod qoʻngan qoʻrgʻon huvillab qolganday edi. Tashqari hovlida hech kim koʻrinmasdi. Qamariddin eshikni ikkinchi karra taqillatganida ichkaridan moʻysafidning «Hozir!» degan ovozi eshitildi. Lekin hadeganda chiqavermadi.

Bir mahal ichkaridan yengil sharpa eshitildi. Eshik ochildi. Qamariddin hayratda qoldi: Gʻanimurodning zavjasi yengil koʻylakda, sochlari yoyiq holda koʻzlarini chaqchaytirib turardi. Qamariddin ayoldan koʻzini olib qochdi. Ayol birdan qichqirib yubordi. Soʻng yigʻlamsirab orqaga tisarildi. Keyin yana bir qichqirib, otilgancha koʻchaga chiqdi-da, yugurib ketdi. Shamsibek ham, Qamariddin ham hech narsa tushunmay bir-birlariga qarab qolishdi. Dam oʻtmay ayol ketgan tomondan uning qah-qah urib kulgan ovozi keldi. Shundan soʻng Shamsibek «ayollar boʻlmasin», degan xijolat bilan hovliga kirdi. Ichkariga olib boruvchi eshik ogʻzida hassaga suyangan moʻysafidni koʻrib yugurib bordi-da, qoʻltigʻiga kirdi. Supaga oʻtirishdi. Fotihadan soʻng moʻysafid boʻynini xam qildi.

— Tinchlikmi? — dedi Shamsibek.

Moʻysafid bosh qimirlatdi.

— Yuragim sezgan edi, — dedi Qamariddin. — Nojinslar bir ish qilishgan koʻrinadi.

— Ha, — dedi moʻysafid. — Aslida sizlar bilan ketaverishsa boʻlarkan. Men bu odamlarda imon bordir, ular ham musulmon bandalar-ku, deb oʻylabman. Afsus... Ahmadboyvachcha yigitlari bilan kelib shoʻrimizni quritdi. Gʻanimurodni Xudo bir asradi. Lekin hali ham hushini yigʻib ololmayapti. Issigʻi baland, alahsiraydi. Toʻpolonda oyogʻim lat yeganga

o'xshaydi, shuning uchun darrov chiqolmadim, aybsitmaysizlar.

— Arzga bormadinglarmi? — deb so'radi Qamariddin.

— Kimga? Azozili qachon odamga rahm qilib edi?

— Qani, pochangizni himaring-chi. — Shamsibek shishib qolgan oyoqning bo'g'inlarini ushlab ko'rdi. To'piqni va to'piqdan bir qarich yuqori suyakni ushlaganida mo'ysafid ingradi.

— Etik bilan tepishganga o'xshaydi?

— Bilolmadim, taqsir, kelinning ostonasiga yiqilganimni bilaman.

— A? Kelinning ostonasiga, dedingizmi? U yerga ham kirishdimi?

Mo'ysafid jim qoldi. Keyin titroq ovozda dedi:

— ...Kelinning ahvolini ko'rdingizlar. O'sha kundan beri shunday: tuz totmaydi, telba bo'lib qolgan.

— Astag'firulloh! Bundan bo'lak shahkorlik ham bo'ladimi? O'zganing sha'riy zavjasini majburlamoq nima bilan jazolanadi?

— Xudo xohlasa, Tangrining g'azabiga uchraydilar,— dedi mo'ysafid og'riqdan ingrab. Lekin Qamariddin bu savolni Shamsibekka bergan, undan javob kutardi.

— Toshbo'ron qilinmoqlari darkor, — dedi Shamsibek.

Qamariddin tushundim, deganday o'rnidan turdi.

— Rabotdagilarni olib qaytaman. Kelganimizni hech kim bilmay tursin.

Qamariddin ketgach, Shamsibek yana mo'ysafidning qo'ltig'iga kirdi. Uy egasi ovoz berib, begona erkakning kirayotganidan xotinlarni ogoh qilgach, ichkariga qadam qo'ydilar.

Shamsibekning gapi bilan mo'ysafid kampiriga ot yog'i va qo'y po'stagini olib kelishni buyurdi. Keyin G'animurod yotgan xonaga kirishdi. G'animurod chalqancha tushib yotar, ko'zi ma'nosiz boqardi. Shamsibek avval uning tomirini ushladi. Mijjasini qaytarib ko'rdi. So'ng boshini ehtiyotlik bilan paypasladi. G'animurod ingradi.

— Boshiga nima bilandir qattiq urishibdi, — dedi Shamsibek. Keyin G'animurodni muk tushirib yotqizib, suyaklarni ushlab ko'ra boshladi. Belga kelganda qo'lini ikki-uch bor yurg'izdi.

— Beli lat yebdimi? — dedi mo'ysafid xavotir bilan.

— Ha, bir oz, — dedi Shamsibek, lekin belining singanini aytmedi. Bu orada kampir yog' bilan po'stakni ostonaga qo'yib ketdi. Shamsibek mo'ysafidni yotqizib, oyog'ini obdan siladi-da, taxtakachlab, po'stakka o'rab qo'ydi.

— Endi kamroq yura turing. Peshinda oftobga solib, kun tig'ga kelganda ko'chaning qizigan tuprog'iga botirib o'tirasiz. Shu tuproq butun zahrni tortib, suyakni qizitib, oyog'ingizni yigitlarnikiday qilib qo'yadi, — dedi Shamsibek hazil bilan. — Yozda, ayb bo'ladi demay, yalang oyoq yuravering. Bod degan narsa yaqinlashmaydi.

— Ilohi kam bo'lmang, taqsir. Ustozingiz baraka topsin. G'anijonga ham dori-darmon qilasizmi?

— Ha, albatta, G'anijon muolajaga muhtoj. — Shamsibek tashqi hovliga chiqib supaga o'tirdi. Ko'z oldiga to'y kechasi, gulxan, yor-yor aytib xursandchilik qilgan yag'rindor yigitlar keldi. Nikoh paytida G'animurodning ikkinchi so'roqdayoq «roziman», deb yuborganini eslab,

kulimsiradi. Anchagacha ko‘chaga ko‘z tikdi. Nihoyat, arava ko‘ringach, o‘rnidan turib peshvoz chiqdi. Ayollarning bari aravada, Qamariddin bilan yana ikki otliq orqaroqda kelardi. Bo‘lak yigitlar qishloq poyida qolishibdi.

Qamariddin shu paytgacha xurjunida saqlagan sipohlar kiyimini egniga ilgan, shahriyor sovg‘asi bo‘lmish kumush kamarni bog‘lab, qilich osgan edi. Ko‘rinishdan go‘yo jangga shaylangandi. Shamsibek ayollarni ichkariga uzatgach, nikohda vakil ota bo‘lgan qo‘shnini chaqirtirdi. Qo‘shni G‘animurodning qishloqdagi do‘stlarini xabarlashga ketdi.

Shamsibek yigitlarni G‘animurod yotgan uyga boshladi.

— Polvonning jarohati og‘irmi? — dedi Qamariddin uyga kirayotib.

— Xastalikka bunday tashxisi qo‘ygan hakimlar muolajani benaf deb kelganlar. Jarohatning oldi olinmagan. Vaqtida muolaja boshlanganida balki...

— Tabobat ojizlik qiladimi?

— Mushkul ish. Zaif odam allaqachon omonatini topshirgan bo‘lardi. Hozircha umidni sindirmaylik. Xudo xohlasa, tuzalib ketar, — Shamsibek shunday deb yenglarini shimardi.

Uning so‘zi bilan ikki yigit polvonning oyoqlarini, Qamariddin esa yelkasini bosib turdi. Shamsibek G‘animurodning kuragidan boshlab, umurtqa bo‘ylab asta silab tushdi-da, belga kelganda harakatni sekinlatdi. Nihoyatda ehtiyotkorlik bilan silay turib, bir zo‘r berdi. «Qirs» etgan tovush eshitildi. Polvon qattiq baqirib yubordi-yu, darrov tinchidi. Peshanasidan sovuq ter chiqdi.

Shamsibek muolajani tugatgunga qadar qishloq yigitlari yig‘ilishdi. Ularga qishloq poyida qolgan polvonlar ham qo‘shilgach, Ahmadboyvachchaning qo‘rg‘oni tomon yurdilar.

Qo‘rg‘on atrofida o‘n chog‘li yigitni qoldirib, darvozani qoqishdi. Darvozani ochgan xizmatchi otliq sipoh va toza to‘n kiygan yigitlarni ko‘rib, tezda orqasiga qaytdi-da, boyvachchani chaqirdi. Ahmadboyvachcha mash‘ala yorug‘ida Qamariddin bilan Shamsibekni darrov tanidi. Shahriyorning muhri bosilgan yorliq bilan yuruvchi bu zotlarni ko‘rib, yuragi bir narsani sezdi. Orqaga chekinishni xayol qildi-yu, lekin sir boy bermay, ta‘zim bilan ichkariga taklif qildi. Darhol shiyponga joy to‘shaldi. Qo‘y so‘yishga farmon berildi.

— Hojati yo‘q, — dedi Qamariddin hovli o‘rtasida turib farmoyishlar berayotgan boyvachchaga. — Bizning fursatimiz kam. Qani, mundaroq keling. So‘raydurgan gapimiz bor.

— Bosh ustiga, taqsir.

— G‘anipolvonnikiga kimlar bilan bordingiz?

— Qachon, taqsir?

— Tulkilik qilmang-da, nomlarini ayting.

Ahmadboyvachcha uning qahrli qarashidan cho‘chib, ozgina taraddudlandiyu keyin bir qancha odamning ismini aytdi. Bu orada tashqarida qolgan yigitlar ikki kishini shiypon oldiga keltirishdi.

— Muslimxo‘janing qizi sizga rizoliksiz nikohlangan ekan. Boz ustiga qochib ketganini

eshitiboq uni taloq qilib edingizmi? — dedi Shamsibek, rangi quv o'chgan boyvachchaga.

— Ha, taqsir, shunday bo'lib edi.

— Demak, siz u kishi uchun nomahramsiz, shundaymi? Nomahram bo'la turib mankuhaiga teginish qaysi jazoga loyiq?

Boyvachcha birdan tutqanog'i tutganday uv tortib, Shamsibekning oyog'iga yiqildi.

— Menda ayb yo'q, taqsir. Mening faqat polvonda o'chim bor edi.

— Bo'lmasa kimlar?

Boyvachcha yana haligi ismlarni qaytardi. Qamariddinning farmoni bilan yigitlar boyvachcha tilga olgan odamlarni olib kelgani ketishdi. Qo'shni chol esa qozining uyi sari yo'l oldi.

Tun yarimlaganida gunohkorlar ham, qozi ham va aytilmagan ulamolar ham to'planishdi. Qamariddinning savlati ularni sarosimaga soldi.

— Taqsir, avval bir so'rog'imga dini islom nomidan javob bergaysiz, — dedi Qamariddin qoziga yuzlanib, — mankuhaning nomusini bulg'agan kimsa qanday jazoga loyiq?

— Bunday do'zaxilarning jazosi bir — o'lim. Rasulillohning sunnatlariga ko'ra toshbo'ron qilinmoqlari shart.

— Durust, taqsir, u holda nechun bu fasod do'zaxilar hamon hayot?

— So'zingizni anglamadim, taqsir.

— Bularni ko'ryapsizmi? G'anipolvonni jarohatlab, ustiga-ustak nomaqbul ishga qo'l urganlarini nahot bilmasangiz? Agar bu voqea shahristonda bo'lib, siz xabarsiz qolsangiz ajablanmas edim.

— O'limdan xabarim bor, ammo bu gaplardan xabarim yo'q, — dedi qozi.

— Bo'lmasa, mana endi xabar topdingiz. Bular ayblariga iqrorlar. Siz fatvo bering, hukm chiqaring.

— Shu tobdami?

— Ha, shu tobda.

— Men fatvo berolmayman, taqsir.

— Nechun?

— Bunday fatvoga muhtasibning rizoligini olmog'im darkor.

— G'anipolvonga hukm chiqarganingizda ham muhtasib rizoligini olib edingizmi?

Javob bo'lmadi.

— Fuqaroni uyg'oting. Mash'alalar yoqilsin. Muxtiylarni shahriyor nomi bilan qatl qilg'aymiz. Zavjaga teginganlar toshbo'ron qilinsin, begunoh bandaga azob berganlar yuz darra, muxtiylarning jaroyimini yashirgan bu ulamolarga yigirma besh darra...

Qozining ko'zi o'ynab ketdi.

— Huquqingiz yo'q! — dedi u.

— Shahriyorm «nohaqlik sodir bo'lgan yerda haq o'rnatish lozimligini» butkul lashkarlariyu ulamolariga uqtirganlar. «Qozilar qo'li shariat hukmlari ijrosida baquvvat bo'lmoqligi darkor», degan amri oliyga shak keltirganingiz uchun siz ellik darraga loyiqsiz!

Qozining lablari pirpiradiyu bir oz gapirolmadi. Soʻng:

— Musulmonlar, bu osiylar sulton Ulugʻbek nomi bilan dini islomni poymol qilib, azizlarga til tekkizmoqdalar! Qarab turmang, musulmonlar, Xudoning gʻazabidan qoʻrqinglar! — deb baqirdi.

— Bogʻlang! — dedi Qamariddin bu gaplarga eʼtibor qilmay. Yigitlar darhol buyruqni bajo keltirishdi. Qozi jazavani ancha ilgari boshlagan edi. Uning qutqusiga uchuvchilar hali uygʻonishmagandi. Dam oʻtmay nogʻora ovozi yangrab, qishloq uygʻondi. Barchani yana oʻsha maydonga toʻplashdi.

— Oʻrtaga gulxan yoqing, — dedi Shamsibek.

— Nechun? — dedi Qamariddin. — Bu toʻy emas-ku?

— Toʻy boʻlmasa ham toʻyga yetgulik. Qishloq nojinslardan tozalanyapti.

Shamsibek aytganday boʻldi. Gulxan yoqildi. Avval darraga hukm qilinganlar nasibasini oldi. Keyin oʻlimga hukm qilinganlar bellariga qadar koʻmildilar. Oraga birdan sukunat choʻkdi. Shu dam toʻpdan oʻrta yosh bir kishi ajralib chiqib, qoʻliga tosh oldi. Ahmadboyvachcha jon achchigʻida oʻkirdi. Olomonning tinchligi buzildi...

Hukm ijro boʻlgach, toshni birinchi boʻlib otgan kimsa Qamariddinga yaqinlashib, tiz choʻkdi.

— Taqsir, men Muslimxoʻjaman. Meni ham ola keting.

— Kasbingiz nima?

— Naqqoshman, duradgorman, taqsir.

Qamariddin Shamsibekka qaradi.

— Sizni olib ketish bizga-ku ogʻir botmaydi. Lekin qizingiz..

— Boʻlmasa nima qilay? Bosh koʻtarib yurolmayman.

— Mulohaza qilib koʻraylik-chi. Balki Andijondan panoh toparsiz.

Tong yorishib, odamlar tarqalishdi. Shamsibeklar ham Gʻanimurodning uyiga qaytishdi.

Kampir supaga joy qilib, choy-non qoʻydi. Hech kim dasturxonga qaramadi. Bir hoʻplamdan choy ichishdi.

— Gʻanimurodni nima qilamiz? — dedi Qamariddin.

— Olib ketish lozim. Yoʻqsa, nobud boʻladi. Bu yerda muolaja qila oluvchi tabib yoʻqdir.

— Zavjasini-chi?

— Tun boʻyi shu mushtiparni oʻyladim. Biron nima demoqqa fikrim ojjiz. Otasi Andijonga borsa, balki olib ketar. Uzoqdan koʻra oʻsha yer maʼqul. Unda ham zukko hakimlar bor.

— Buni Muslimxoʻjaga aytib koʻrish kerak.

Oqshom tushgunga qadar shu hovlida dam olishdi. Muslimxoʻja ham Andijon safariga otlanib, qizini izlardi. Qiz yerda ham, koʻkda ham yoʻq edi. Odamlar «kechasi qichqirib yurgan edi-ku»? deb yelka qisishar, chor atrofga yuborilganlar ham quruq qaytishardi. Faqat

shomga yaqin guzarda shovqin ko'tarildi:

- Mo'slimxo'janing qizi topildi!
- O'zini hovuzga tashlagan ekan!
- Shishib ketibdi, bechora!

Shamsibek bilan Qamariddin to guzarga yetguncha shu xildagi gaplarni eshitib borishdi.

Juvon shundaygina hovuz labida yotar, to'zg'igan sochlari yuzini to'sgan, onasi uning ko'ksiga bosh qo'yib dod solardi...

RAD QILINGAN ILTIMOS

Shu yerga kelganda Jahongir asablarini boshqarolmay qolgan. Aftidan, ko'z oldida gavdalangan begunoh, munis juvon jasadining, faryod chekayotgan onaning qiyofasi unga qattiq ta'sir qilgan edi.

Jahongir daftardagi so'nggi jumлага nuqta qo'yib, boshini ushlaganicha o'tirib qoldi. Dastlab eshikning taqillashiga ahamiyat bermadi. Keyin o'g'lining ovozi eshitib daftarini bekitdi-da, eshikni ochdi.

- Dada, axir ishlashingiz mumkinmas-ku, — dedi Jamshid yalinchoq bir ohangda.
- To'g'ri... men ishlaganim yo'q. Faqat... uyqu qochdi.
- Soat besh bo'ldi. Siz hali mijja qoqqaningiz yo'q.
- Na iloj? Bugun dam olish uyiga ketsam... O'sha yerda to'yib uxlayman. Toza havo... Maroqli sayrlar...
- U yoqqa bir shart bilan borasiz.
- Qanday shart?
- Kitob tugul bir varaq qog'oz ham olmaysiz.
- Shuning o'zimi? Yaxshi. Lekin menda ham bir shart bor: meni yo'qlamaysan.
- Buni o'ylab ko'raman.
- Ana shu-da! Biror yering sal og'ridimi, davolovchi emas, buyruq beruvchilar bilan aql o'rgatuvchilar ko'payib qoladi! Menga qara, shu ondan boshlab men haqimda o'ylashni yig'ishtir. Ilmiy ishingni o'yla. Ishing bir yoqlik bo'lmaguncha sen bilan gaplashishni ham istamayman.
- Axir, dada...
- Gap tamom. Hoziroq xonangga chiq. Kechasi uxlamay meni poylagan bo'lsang, damingni ol.
- Hech bo'lmasa kuzatib qo'yay.
- Yosh bola emasman, yo'limni topib keta olaman.

«19... yil, 14 iyun, O'zFA Biofizika ilmiy-tekshirish instituti. Professor Alievning tajribaxonasi.

Soat 11.00. Tajribaning beshinchi bosqichi boshlandi. Meditsina komissiyasi professorning sog'lig'ini tekshirib, tajribani davom ettirishga ruxsat berdi. Endi komissiyaning ruxsati bilan tajriba haftada bir marta o'tkaziladi. Institutning tog' etagidagi oromgohidan professor

uchun maxsus xona ajratildi. U tajribadan so'ng uyga bormay, shu yerda dam oladi. Meditsina komissiyasi tajribaga aloqasi yo'q kishilar bilan muomalada bo'lishni qat'iy man qildi.

Soat 19.20. Tajribaning beshinchi bosqichi yakunlandi. Professor o'zini yaxshi his qilyapti. Elallomalar uzluksiz, reja asosida ishladi. Tajriba davomida hech qanday hodisa yuz bermadi. Tajribaning navbatdagi bosqichi 21 iyunga belgilandi. Professorning tajribalar orasini qisqartirish haqidagi iltimosi rad etildi...»

«DAVLAT ASOSIDEK POYDOR BINO» (KUNDALIKNING BESHINCHI SAHIFASI)

Dafn marosimiga butun qishloq ahli keldi. Tobut qo'lma-qo'l bo'ldi. Qabr ustiga choyshab yoyilib, murda lahadga qo'yilayotganida Muslimxo'ja hushidan ketdi. Yolg'iz qizining qabriga bir siqim tuproq tashlashga majoli bo'lmadi. Tuproq tortilib, qur'on tilovat qilinib bo'linganida ham u nest bo'lib o'tirardi. Uni suyab turg'izib, uyiga boshladilar.

Shamsibekni ham, Qamariddinni ham polvonning taqdiri tashvishga solardi. Ular endi Muslimxo'janing ketish-ketmasligini bilolmay qolgandilar. Ertasiga Muslimxo'jaga bu haqda so'z ochganlarida, u «Yolg'izimni qanday tashlab ketaman, hech bo'lmasa qabrida tanho qolmasin», dedi. Shundan so'ng, ular oqshomda G'anipolvonni olib yo'lga chiqish qaroriga keldilar.

Ikki kun yo'l yurishgach, katta karvonga qo'shildilar. Hafta o'tmay Samarqandga yetib bordilar. Hammalari karvonsaroyga qo'nishdi. Ertasi bomdoddan so'ng Shamsibek Qamariddin bilan Ko'hak sari yurdi. Ko'chalarda odam siyrak, shuning uchun ular otlarini yo'rttirib borardilar. Kumush kamarli sipohni ko'rganlar darrov chetga chiqib, qulluq qilishardi. Bibixonim masjidi tomon burilishganlarida Shamsibekning oti bexos bir kimsani turtib yubordi. Shamsibek orqasiga qarab, garangsib turgan Abdulvahobni ko'rdi-da, jilovni tortdi. Uning to'xtashga chog'langanini ko'rgan Qamariddin:

— To'xtamang, yuravering, — dedi. Shamsibek jilovni bo'sh qo'yib, yana orqaga qaradi. Abdulvahob uni tanib qolgan edi shekilli, hamon ko'cha o'rtasida u tomon qarab turar edi.

Ular Chinniy qasrga kirishganida saroy ahli taxt mulozamatini bajo keltirmoqqa shaylanib turardi. Jarchi chiqib onhazrat o'z huzurlariga Qamariddin bilan Shamsibekni chorlayotganlarini aytgach, ular- ning aksari soqolini siypab, «astag'firulloh!» deb qo'ydi.

Ular ichkari kirishdi. Taxt va uning atrofi bo'sh. Ulug'bek pastdagi kichik favvora yonida besh chog'li odamlar orasida turib so'z aytayotgan, davraning yoshi bo'lmish navisanda esa supaga omonat o'tirgan edi. Aftidan davlatpanoh vazifasini o'tashga kirishmagan edi. (Uning zar to'nsiz yurishi ham shundan dalolat edi.) U qulluq qilgan Qamariddin bilan Shamsibekka bosh irg'adiyu yana navisandaga o'girildi.

— Shahriyorning qobiliyatli shogirdlari, Aflotuni zamonining nabiralari Miram Chalabiy o'sha yigit bo'ladi, — dedi Qamariddin shivirlab. Shamsibek gapga og'iz juftlagan edi, Chalabiyning so'zlari xayolini tortdi:

— Kurrai arzning Shams2 atrofida aylanajagini aytaman, deb edingiz. Bu hodisani qanday tafsir etmoq kerak?

— Kurrai arz Shams atrofida aylanadir, deb tafsir etsak, go‘rimizga yana g‘isht qalasharmikin? — Ulug‘bek shunday deb kuldi. Uning kimlarni nazarda tutganini anglab, boshqalar ham jilmayishdi. Ulug‘bek bir necha nafas o‘ylanib, Chalabiyga yuzlandi. — Munday tafsir etsak, u aqli noqislar tushunib yetishmas, ilm ahli anglar. Alqissa shunday deb yoz: «Parvardigori olam yaratgan kurrai arz murakkab harakatlar uchun tayanch bo‘lgulik qulay nuqta bo‘lolmasa ham, ahli ilm to hozirgacha dunyoning markazini shu deb bilurlar...» Bularni xattotlarga elt. Oqshomga qadar oqqa ko‘chirishsin.

Ulug‘bek atrofdagilarning ta‘zimiga javob bergach, Shamsibek va Qamariddin tomon yurdi.

— Qaytganlaringni shomda eshitib edim. Bugun dam olib, huzurimga erta kelarsizlar, degan o‘yda edim. Safar bexatar o‘tdimi?

— Xudoga shukr. Panohingizda eson-omon borib qaytdik. Farg‘ona ayolotining purdil yigitlari navkarlikni ixtiyor qilib keldilar. Karvonsaroyda so‘zingizga ilhaq bo‘lib turishibdi. Ayolot podshohi sizga noma yubordilar. — Qamariddin ta‘zim bilan poygiri uzatdi.

Ulug‘bek uni ochib, ko‘z yugurtirdi. Keyin Shamsibekka yuzlandi:

— Podshoh padari buzrukvoring va validai jahoningni panohiga olajagini aytibdi. Ko‘nglung xotirjam bo‘laversin.

— Qulluq, shahriyorem.

— Qamariddin, yigitlarga boshpana tayyorla. Maosh tayinla. Toki mening panohimda muhtojlik sezishmasin. Juma kuni maydonga chorlayajakmiz.

— Shahriyorem, bir purdil yigitimiz bor edi. Hozircha maydonga chiqolmaydi. Majruh bo‘lib qoldi.

— Sabab?

Shamsibek G‘animurod voqeasini aytib berdi. Ulug‘bek uning so‘zlarini diqqat bilan eshitdi.

— Bu xastalik yana qanday g‘avg‘olarni boshlar ekan? Buning shifosi bormikan? — dedi Ulug‘bek taxt tomon yurib.

— Qaysi xastalikni aytasiz? — deb so‘radi Shamsibek.

— Mutaassiblikini aytaman. O‘lat kabi tarqab, raiyat tinchini buzyapti.

— Bu xastalik endi avjiga chiqdi. Qaytishi xiyla mushkul.

— Haq gap... Mulla Shamsibek, sen aytganday qilib dorilshafaqa uchun yer tanlandi. Me‘mor bilan bamaslahat ish boshlanglar. Viloyatlarga jarchilar ketgan, iqtidorli hakimlarni to‘playmiz. Bu yer faqat dorulshafaqa emas, bohtardin to bahovar2gacha nom chiqozg‘on dorulshifoia bo‘lsin. Chiqimlardan qimtinma, savob ishlar uchun ganjina darig‘ tutilmaydi. Huzurimga istagan vaqtda kelishing mumkin.

Ulug‘bekning keyingi so‘zlari ular uchun qaytishga javob ham edi. Buni anglab, ta‘zim bilan orqalariga yurishdi. Lekin Ulug‘bek ularni to‘xtatdi.

— Darvoqe, mulla Shamsibek, — dedi u, — kelar oqshom sen donishmandlar suhbatidan ogoh bo‘lmog‘ing darkor, shuni unutma.

Shamsibek javob o‘rniga qulluq qilib chiqdi. U Qamariddin yordamida me‘morni Chilstun yaqinidan topdi. Me‘mor kichkina ko‘k salla o‘ragan, kalta soqolli, past bo‘yli kishi edi. Shamsibekning qo‘lini olib, «ko‘zim yo‘lingizda edi», dedi. U sal duduqlanib gapirar, tili ham chuchuk edi. Talaffuziga qaraganda, u samarqandlik emasdi. Shamsibek uning so‘zlaridan qaysi muzofotlik ekanini aniqlay olmadi, so‘rashni o‘ziga ep ko‘rmadi. Zero, buning zaruriyati ham yo‘q edi. Me‘mor o‘zini usta Xidir, deb tanitdi.

— Joy qaerdan tanlandi? — deb so‘radi Shamsibek undan.

— Go‘shlar dastlab shahriston ichkarisida buzildi. Eng so‘nggisi shu yerda aynidi.

Shahriyorning farmonlari bilan xiyla etakroqqa, obirahmatning poyiga quradigan bo‘ldik.

Xuddi rasadxona singari, uch osh‘yonliq qilib tiklash niyatimiz bor.

— Nimaga uch osh‘yonliq?

— Sababiki, u ham rasadxona singari savlat to‘kib tursin, shahriston chiroyini ochsin.

Odamlar hayratdan yoqa ushlashsin.

— Usta Xidir, so‘raganimni aybga buyurmaysiz, binoni qurishdan maqsad nedur?

— Buni mendan ko‘ra siz mo‘lroq bilasiz. Dorulshafaqa deb aytdilar menga.

— Ha, balli. Bu yerga fuqaro hayratdan yoqa ushlash uchun emas, shifo topgani keladi.

Menimcha, binoning bir osh‘yonliq bo‘lishi kifoya.

— Nega?

— Bir osh‘yonliq bo‘lsa, xastalar uchun ham, hakimlar uchun ham ayni muddao. Atrof katta bog‘ bo‘lmog‘i lozim. Daraxtlar binoni shamsiyai sifatida quyoshning o‘tli nafasidan asraydi. Uch osh‘yonliqda xastalar issiqdan yana bir qadar azoblanadilar. Chiqib tushish ham malol keladi.

— Bir osh‘yonliq bino ajij-majij kunlari xastalarni qiynab qo‘ysa-chi? Sovuq ham tepadan, ham ostidan, ham derazalardan kiradi. Uch osh‘yonliq binoning o‘rta osh‘yonida birmuncha issiq bo‘ladi. Sovuq faqat derazadan kirishi mumkin.

— Dono fikr, biroq ajij-majij qisqa, issiq kunlar uzun.

— Bu xususda o‘ylab ko‘rmog‘imiz lozim ekan.

— Biz xonalar keng va baland bo‘lsa deymiz. Toki xastalar toza havoga muhtoj bo‘lishmasin.

— Ma‘qul. Rasadxonaga hech yo‘lingiz tushganmi?

— Ha. Faqat tashidan ko‘rganman. Ich tomonlari bilan tanishmoqni xayol qilganman-u, biroq fursat bo‘lmadi.

— Shu topda fursatingiz bo‘lsa, ko‘rsatar edim. Shundan so‘ng bamaslahat ish boshlar edik.

Bu fikr Shamsibekka ma‘qul kelib, ular bog‘ning yuqori tomoniga, savlat to‘kib turgan uch osh‘yonliq tegarak imorat tomonga yurdilar. Marmar zinalardan ko‘tarilar ekanlar, me‘mor faxr bilan: «Bino qiyomatda tog‘lar sayr qilgunga qadar yiqilishu nurashlardan omon bo‘ladi», dedi. To ichkariga kirgunlaricha u rasadxonaning afzalliklarini gapirib bordi. U «imorat davlat asosidek poydor, poydevori esa saltanat qoidasidek ustivor qilib mustahkamlangan», deganida Shamsibek jilmayib qo‘ydi. U bu so‘zlarni jannatmonand shahriston sari ilk yo‘lga chiqqanida qaynatasidan ham eshitgan edi.

Rasadxonaning yuqori qismiga aylanma zinalardan chiqdilar. Har osh‘yonda o‘nlab hujralar, o‘rtada esa majlis ahli uchun keng xonalar barpo qilingan edi. To‘qqiz falakning hay‘atiyui

to‘qqiz osmon shakllari— darajalar, daqiqalar, soniyalardan tortib to oshiralargacha shu devorlarda aks etgan edi. Yuqori osh‘yon devorlarida esa aylanuvchi falaklar, sabbai sayyor, sobita yulduzlar bilan kurrai arz hay‘atiyu, iqlimlar suratigacha dilnazir naqshlaru benazir raqamlar bilan chizilgandi.

Me‘mor Shamsibekni ayvon tomon boshladi. Ayvonga chiqaverishdagi bir surat Shamsibekning xayolini oldi. Falak va kurrai arz tasvirlari bilan band bo‘lgan rasadxona devorlari ichida bu suratning chiqishi uni hayratda qoldirdi. Rasmda jang maydoni, shahidlar va majruhlar tasvir etilgan edi. Oldinda majruhlangan shohona kiyimli kimsa. Uning yonida yana bir shohona kiyimli odam.

Me‘mor Shamsibekning hayratini fahmlab, izoh berdi:

— Bu shahriyorning farmonlari bilan tushirilgan. Hazrat sohibqironning eng ulug‘ zafarlaridan yodgorlik. Hoqon Boyazidning yengilib, asirga tushgan onlari. Sohibqiron bu kishi bilan zo‘r muhoraba qilgan ekanlar.

— Eshitganim bor.

— Sohibqiron hariflarining bu ko‘yga tushganini bilgach, o‘zlari yetib kelib ko‘z yoshi to‘kkan ekanlar.

— Nechun?

— «Ming karra shukrkim, Xudovandi karim nuqsonlarimizga qaramay, bizni tanlash nazari bilan taqdirladi. Sizga bo‘lgan hurmatim bisyor edi. Sizdek sohibqudratning bu ahvolga tushishidan Tangrining o‘zi asrasin», degan ekanlar. Bobolarining shu so‘zlarini inobatga olib, onhazrat bul yodgorlikni yaratishga farmon berdilar.

Shamsibek ayvonga chiqib, chor atrofiga nazar tashladi. Bu yerdan shahriston kaftdek ko‘rinib turardi. Ular shu yerda turishganida peshin namoziga azon chaqirildi. Pastga tushib, rasad ahli bilan namoz o‘qidilar-da, shahristonga qaytdilar.

Qamariddin purdil yigitlarni joylashtirish bilan band edi. U Shamsibekka oilasi uchun Shohizinda dahasidan joy hozirlab qo‘yganini, G‘animurodni saroy xizmatkorlaridan biri panohiga olganini aytdi. Ko‘chlar aravaga ortilgancha turardi.

Shamsibek ichki-tashqilik chog‘roq uyga joylashdi.

Yangi uy Mahfuzaga yoqinqiramasa ham eriga indamadi. Xonalar tor va past, hovli sahni yigirma-o‘ttiz odamni ba‘zo‘r sig‘dira oladigan bu uyda uning nafasi siqilgandek bo‘ldi. Shamsibek xotinidagi bu o‘zgarishni sezdi. «Ko‘nikib ketadi, — deb o‘yladi o‘zicha. — Qishloqda keng uyga, chorboqqa o‘rganib qolgan. Bu yerda esa birgina daraxt oftobda qovjiray deb turibdi. Qiziq, Haq-talo bandalari uchun jannatsifat yerlarni ato qilgan. Bandalar esa bu joylarni tashlab tor, siqiq yerlarda yashaydilar. Shahristonning ohanrabosi bormikin? Bu ham Xudoning xohishi ekan. Na iloj?...»

Mahfuza hamon tugunlar oldida o‘tirar, boshidagi ro‘moli yelkasiga tushgan, charos

ko‘zlarida horg‘inlik bor edi... Issiqdan bezovta bo‘lib, injiqlik qilayotgan o‘g‘lining boshini silab, ro‘molining uchi bilan yelpirdi.

— Ichkariga kiraylik, uy salqinroq, — dedi Shamsibek katta bir tugunni ko‘tarib. Ayol unga ergashdi.

...Sherbek zargar Buxoro madrasasida tahsil ko‘rgan donishmand kishi edi. Sohibqiron hayotligida birmuncha muddat Samarqandda ham istiqomat qilgan, undan so‘ng ko‘tarilgan to‘s-to‘polondan bezor bo‘lib Buloqboshiga qaytgan, shu yerda oila qurgan edi. Ismoilbek zargar bilan birga ulg‘aygan. Shuning uchun to‘ng‘ichi Shamsibekni uning tarbiyasiga inonib topshirgan edi. Shamsibek Ulug‘bekning nazariga tushgan barcha xislatini shu zargardan olgan edi. Abdulvahobning xonadonidan sovchilar kelgan damlarda Shamsibek bilan Mahfuza shirin orzulardan qanot qilib, baxtiyorlik samosida uchib yurardilar. Eshikka sovchilar qadami tekkanidan xabar topgan qiz ajdaho domiga tushgandek oh urdi, «otamga insof ber», deb Xudoga yalbordi. Uning baxtiga birinchi safar ham, ikkinchi, uchinchi safar ham zargar sovchilarga rad javobini beraverdi. Shamsibek xonadonidan sovchilar kelgan kun patir sindirilgach, qiz yigit bilan yaqinlashish onlarini ham qo‘rquv, ham sog‘inish bilan kuta boshladi.

Oradan uch yil o‘tgach, taqdir ularni begona bir yerga olib kelib tashladi. Mahfuza buning yaxshi yoki yomon ekanini ham bilmaydi. Yaxshi, desa, musofirlik zahmatlaridan cho‘chiydi. Yomon desa, umr yo‘ldoshi sultonning nazariga tushish baxtiga muyassar bo‘lgan. Shuning uchun u nolish yoki rad so‘zlar aytish bilan erining ko‘nglini og‘ritishni istamasdi.

Ular uyga namat to‘shayotganlarida eshik og‘zida oftobda qoraygan ozg‘in bola ko‘rindi. Qo‘lida kosa. U kirishni ham, kirmasini ham bilmay turardi. Shamsibek tashqariga chiqqanida, bola yoshiga yarashmagan yo‘g‘on ovozda salom berib, kosani uzatdi.

— Enam berdilar, — dedi.

— Eshiklaring qaysi? — dedi Shamsibek uning qo‘lidan chinnini olar ekan.

— Qaysi eshik? — Bola Shamsibekning so‘ziga tushunmadi.

— Uylaringiz-da, — dedi Shamsibek.

— Narigisi, — bola o‘ng tomondagi hovlini ko‘rsatdi.

— Rahmat aytdilar, degin, xo‘pmi?

Bola «xo‘p», deb iziga qaytdi. Oqshomga yaqin yana ikki qo‘shnidan ovqat chiqdi. Shundan so‘ng Mahfuzaning ko‘ngliga chiroq yoqilganday bo‘ldi.

— Qo‘shnilardan yolchisak, musofirlik tuzi sho‘r botmas, — deb qo‘ydi.

Shamsibek sahar bilan ro‘zg‘or tashvishida bozorga ketdi. Po‘lotiy nondan, meva-chevadan olib, uyiga qaytishda Abdulvahobni ko‘rdi. Yonida otasi.

— Bir haftadan beri ko‘zimiz yo‘lingizda, — dedi Boybuva salom-alikdan so‘ng. Soch-soqoli olingan, kulohjanda o‘rniga do‘ppi va to‘n kiygan Abdulvahob Shamsibek bilan sovuqroq ko‘rishdi. Buni sezgan Boybuva o‘g‘liga qovoq uyib qaradiyu indamadi. Keyin Shamsibekka jilmayib, dedi:

— Qo‘lingizdagini uyga tashlab chiqsangiz, choyxonada birga nonushta qilsak.

Shamsibek ularni uyga taklif qildi. Boybuva «yangi ro‘zg‘orsizlar», deb unamagach, qo‘lidagilarni tashlab chiqdi.

Ular chekkaroqdagi xoliroq choyxonaga borishdi. Abdulvahob yo‘lda ham, kelib o‘tirishganda ham og‘iz ochmadi. Boybuva oradagi sovuq sukutni quvish uchun turli mavzularda gap ochar, Shamsibek tinglar, kerak bo‘lgan taqdirda bir-ikki jumla bilan cheklanardi. U qarshisida tund bo‘lib o‘tirgan saboqdoshiga qarab, o‘ylardi: «Unda o‘z baxtidan bo‘lak barcha narsa muhayyo. Mol-dunyo bandaga baxtiyorlik qasrini qurib berishdan ojiz ekan-da? Ilgari u varrak yasashni bilmasdi. Uquvsizroq edi. Ammo qishloqdagi eng yaxshi varrakni bir burda zog‘ora non evaziga sotib olib, ko‘z-ko‘z qilardi. Eng balandga ko‘tariladigan varrak Abdulvahobniki edi. Baxt varrak emas ekan. Uni sotib olib uchirish hali hech kimga muyassar bo‘lmagan. Boybuva muddaoni aytishga istihola qilyapti. Sezib turibman. Men ular oldida yalang oyoq bir bola edim...

Hayot katta shikorgayu bandalar sayyodga o‘xshar ekanlar. Saydni quvishda kim ba‘zan o‘zadi, kim qoladi. Kimning o‘qi nishonga boradi, kimniki yo‘q... Sayd ortidan quvishda qancha yo‘qotishlar bo‘ladi...

Abdulvahob qancha yo‘qotdi? Yana qancha yo‘qotadi? Men-chi? Javobga hisob ojizdir. Xudoning har bandasi daqiqa sayin o‘zini yo‘qotib, hech kim bilmagan boshqa odamga aylanib boradi. Faqat shakli shamoyili bilan bir-birovini taniydi. Uzoq yil ko‘rishmasa tanimay qolishi ham shubhasiz. Shu topda qayta tanishmoq lozim. Nechun? Yana yo‘qotish uchunmi? Abdulvahobni, garchi u men uchun aziz bo‘lmasa-da, ikki marta yo‘qotdim. Boybuva bugun bizni yana qayta topishtirmoqchi... Yo‘q, hayot sayd ortidan quvishga nisbatan ancha mushkulroq...»

— Mulla Shamsibek, kelishimizning boisi sizga ayon bo‘lsa ehtimol. Siz ham o‘g‘lim qatori o‘g‘limsiz. Oppoq soqolim bilan aytgan so‘zlarimni nazarga olursiz. — Boybuva muddaoga o‘tayotgani uchun Shamsibek xayollari og‘ushidan qutulib uning gaplarini tinglashga tutindi: — Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragon hukmdorligi kunlarida Movarounnahr va Turkiston mamlakatining raiyati zulm zulmatidan adlu ehsonning obi-hayot chashmasiga yetishdi. Va barcha xaloyiq omonliq bo‘stoni ham farog‘at chamanida orom oldi. Bu Xudoga ham, bandasiga ham ma‘lum va manzur. Aqli noqis do‘stingiz bu marhamatni ko‘zga to‘tiyo qilmoq o‘rniga gumrohlik yo‘lini a‘lo topgan ekan, meni rizo qilmay, Xudoning g‘azabiga uchradi. O‘tgan gunohlari uchun uzr so‘rasa, yolg‘iz Tangriyu davlatpanohini istagi bilan yana ilm olmoqqa yetishurmikin...

Boybuva jim qoldi. Shamsibek ham, javobga shoshilmadi. Dam o‘tmay boybuva yana gapira boshladi. U endi anchayin mungli ohangda so‘z aytardi:

— Umrin afsonasi oxirlab qoldi. Ajal shamoli umidim somonini ham, umr donasini ham sovuryapti. Ko‘zim ochiqligida orzu-havasim ushalsa degan yolg‘iz umid bilan yashayapman. Yaxshilik yerda qolmaydi, o‘g‘lim. Bizga ko‘rsatgan lutfu-karamingiz, Xudo xohlasa, o‘n

chandon bo‘lib o‘zingizga qaytadi.

— Boybuva, muddaoni anglamay turibman.

— Muddao shulki, — Abdulvahob so‘z boshlab otasiga qaradi. U ko‘zi bilan «gapiraver», degan ishorani qilgach, davom etdi: — Shahriyor oldida o‘zim uzrxohlik qila olmayman.

Oramizda vositachi bo‘ling... Men farzandning burchi — otaning himmat va ravishiga yaxshi mutoibat qilish ekanligini angladim. Buni amalga oshirmoqqa yolg‘iz siz ko‘mak bera olasiz.

— Madrasaga qaytish ixtiyoringizni fursat topib olampanohga yetkazaman. Ammo ilm olmoqlikka faqatgina istakning o‘zi kifoya qilmas. Siz bu haqda mulohaza qilib ko‘rdingizmi?

— O‘g‘lim, haq so‘zni aytdingiz. Lekin madrasa eshigidan har vaqt zukko va allomalar chiqavermaydi-ku? Abdulvahob xatmi kutub qilsa bo‘lgani. Allomalikka da‘voimiz yo‘q.

— Uzrlarini shahriyorga yetkazaman. Biroq, Abdulvahobning madrasaga qaytishi xususida bir so‘z deya olishga o‘jizman. Shu topdagi va‘da dashtda oylanmagan ohuni sizlarga bag‘ishlash bo‘lib qoladi.

— Albatta, albatta. — Boybuva yonidan xaltacha chiqarib Shamsibekka uzatdi. — O‘g‘lim, bu tangalarni olib qo‘ying.

— Nimaga?

— Abdulvahobning kamu ko‘stidan xabardor bo‘lib turasiz. Uni sizga inonib tashlab ketaman.

— Boybuva, Abdulvahob sag‘ir emaski, men uning kamu ko‘stidan boxabar bo‘lib tursam. O‘ziga qoldiravering. Kamxarjlikda qiynalsa, u holda xabardor bo‘lish o‘rinli.

Boybuva xaltani yana qo‘yniga soldi.

— Men ertaga bomdoddan so‘ng Buloqboshiga jo‘nayman. Kuzning nafasi kelib qoldi. Ish boshida turmog‘im lozim. Sizga ishonib ketyapman.

Nonushta bahonasida aytilmoqchi bo‘lgan gaplar tugab, ortiqcha o‘tirishga hojat qolmagan edi. Boybuva fotihaga qo‘l ochdi.

Shamsibek uyga qaytgach, Mahfuza Abdulvahoblarning muddaosini so‘radi. Voqeani bilgach, «Shunday qilmasangiz bo‘lardi», dedi.

— Eski ginalarni unutmaslik gunoh, — dedi Shamsibek Abdulvahobning sovchi qo‘yganiga shama qilib.

— Mening gina-kuduratim yo‘q. Qishloqning kattayu kichigi ularning yaxshiligini eslamaydi. Dillari toza emas-da, buni o‘zingiz ham bilasiz-ku?

— Bu gaplarga hojat yo‘q. U aybiga iqror.

Shu bilan tonggi mehmonlar xususidagi gapga nuqta qo‘yildi. Shamsibek peshinda Bibixonim masjidiga chiqib, undan keyin Ko‘hak tomonga yurdi.

Pushtai Ko‘hak domanasiga yaqinlashganda Qamariddinga duch keldi.

— Shahriyor bu kecha bazm qurish ixtiyoridalar. Purdil yigitlarni maydonga chaqiramiz, — dedi Qamariddin omonlasha turib.

— Men ahli urfonı majlisga to‘planar, degan xayolda edim, — dedi Shamsibek. Darhaqiqat, u

Ulugʻbek ziyofatidan bahramand boʻlishni oʻylamagandi.

— Boʻlsa bordir. Bazm balki majlisdan soʻngdir,— dedi Qamariddin unga javoban. Keyin «shoshib turibman», deb otga qamchi urdi.

Rasadxona atrofida Shamsibek tanimaydigan odamlar koʻp edi. Shuning uchun u yotsirab chetroqda turdi. Bir vaqt ixcham salla oʻragan, Shamsibek tengi yigit unga yaqinlashib, salom berdi. Shamsibek uni tanidi. Bu kechagi kuni olampanohga navisandalik qilgan yigit, Aflotun-zamonning nabirasi Miram Chalabiy edi.

— Men Mahmud ibn Muhammadmanz. Shayx-ul-ulamoʻz sizni kutib olishni kaminaga topshirib edilar. Uzrkim, tashrifingizdan bexabar qolibman.

— Takallufingizdan boshim koʻkka yetdi. Agar yanglishmasam, shahriyor katta majlis qurishni ixtiyor qilgan koʻrinadilar.

— Ha, qani, marhamat qilsinlar.

Bu damda boshqalar ham qasr tomonga yoʻl olgandilar.

Qasr oldidagi maydonchaga bir doira qilib gilamlar, gilamlar ustiga esa yakandoz va dasturxonlar toʻshalgan, dasturxon usti noz-neʼmatlar bilan toʻla edi.

Kelganlar oʻz izzatlariga yarasha joy tanlab oʻtirdilar. Shamsibek poygakdan joy oldi. Miram Chalabiy uni bir oz yolgʻiz qoldirdi. Keyin qaytib keldi-da, omonat oʻtirdi. Qasr tomonda Ulugʻbek koʻrinishi hamon barcha oʻrnidan turib, salomga shaylandi. Olampanoh salomlarni qabul qilgach, yana qayta oʻtirdilar. Hamma Ulugʻbekning soʻz aytishini kutib, jim qoldi. Ulugʻbek joyiga bordi-da, davraga nazar tashlab:

— Oʻgʻlim Alouddin Ali Qushchi nechun kurinmaydi?— deb soʻradi.

Miram Chalabiy ildam oʻrnidan turib, qulluq qildi:

— Batlimusi davron rasadxonada andak tutilib qoldilar. Daqiqa oʻtmay yetib kelurlar, — dedi u.

Ulugʻbek yaxshi, degandek bosh irgʻab, «dasturxonga marhamat qilinglar», deb qoʻydi. Yigʻilganlar guruh-guruh boʻlib past ovozda gaplasha ketdilar. Shamsibek Ali Qushchining kelishini kuta boshladi. U xizmatkorlik chohidan allomalik darajasiga koʻtarilgan donishmandni koʻz oldiga keltirishga harakat qilardi. Lekin Ali Qushchining tashrif buyurganini sezmay qoldi. Miram Chalabiy «Keldilar», deb shivirlagandan keyingina, Ulugʻbek qarshisida taʼzimda turgan oddiy kiyimli, qoracha, chayir kishining Ali Qushchi ekanini fahmladi. Ulugʻbek unga yonidan joy koʻrsatdi. Oʻzaro gaplashib olishgach, Mirzo oʻrnidan turdi. Uning soʻz aytmoqqa shaylanganini bilib, yigʻilganlar gapni bas qildilar.

— Aflotuni zamon Salohuddin Muso Qozizodayi Rumiyning jannat bogʻiga rixlat qilgʻonlariga olti yil boʻldi. Ilm arki shayxul-ulamo Gʻiyosid-din Jamshid vafotidan soʻng koʻp qashshoqlashdi. Inna lillahi va inna ilayhi rojiʼun. Bizning barimiz Ollohning bandalarimiz va uning oʻziga qaytgumizdir. Bizdan qolgan osor-atiqalar bizning kim boʻlganimizdan darak bergusi. Alalxusus, bizdan keyingi qolgʻuchi osor-atiqalarga nazar qilish muddaosida siz kabi

farosatli ahli idrokni to'pladik. Amri a'lo shulkim, bugundan e'tiboran, dorus-saltanada Baytul-hikma joriy qilinsin. Ahli irfonning Baytul-hikma atrofida birlashuvi Tangrining sof himmatidan umid qilinur. Tuprog'imiz ulug' donishmandlar Abu Nasr Forobiy, al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ibn Sino qadamlaridan munavvar bo'lgan. Tiriklik ta'mining o'zlari uchun shirin va mazali bo'lishini istab, butun olamni o'zlaridan past deb bilgan xoqonlar davronida ular bu tuproqqa begona bo'libdilar. Alalxusus, Tangri karomati ila yorug' dunyoda ko'z ochayotgan allomalarni to'plash burchimizdir. Allomalar quvg'in va alam sahrosida sargashta yurmay izzat-ikrom shohsupasida o'tirmoqlari lozim.

Ulug'bek so'zdan to'xtadi. O'tirganlar tasdiq ishorasini qilib gapga tutindilar. Mirzo davradagilarga o'tkir nazarini bir-bir qadab chiqdi-da, joyiga qaytdi.

— Baytul-hikma xususida kim so'zlamakchi? — dedi u o'tira turib. Uning savoli birmuncha fursat javobsiz qoldi. Shunda u sukut saqlab o'yga tolgan Ali Qushchiga qaradi: — Bu xususda o'g'lim ne der ekan?

Ali Qushchi qo'lini ko'ksiga qo'yib, o'rnidan turdi. Yengil ta'zim qilib so'z boshladi. U shahriyorga nisbatan tez gapirar, so'zlayotganida nigohi bir joyda turmas edi.

— Dorul-saltanada Baytul-hikma qaror topsa nuralannur bo'lur. Baytul-hikma xalifa Ma'mun farmoni bilan barpo etilgan allomalar uyushmasiga o'xshamay, ilm arkining norasidalarini haq yo'lga boshlovchi dargoh bo'lsa.

— Ma'qul, — dedi Ulug'bek mamnun bosh irg'ab. Bunga javoban Ali Qushchi ta'zim qildi-da, so'zini davom etdi:

— Tangri-taoloning qudrati bilan yorug' dunyoga bizdan ilgari kelgan allomalar ilm arki xazinasini noyob fikr durdonalari bilan boyitdilar, biz bu durlardan hanuz bahramanddurmiz. Ammo ilm arkimizning norasidalarini bilmoqliklari shartdurkim, ushbu fikrlar qanchalar noyob bo'lmasin, mutlaq emasdur. Falak aylangani sayin ular tahlil va tahrirga muhtoj bo'lib borurlar. Al Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» deb atalmish risolasida Batlimus jug'rofiyasiga o'zgartishlar va aniqliklar kiritishi ilm arkimiz norasidalariga o'rnak bo'lmog'i darkor. Yunonning ulug' allomalari yaratgan nodir asarlarni dadil tahrir qilgani uchun Al Xorazmiy ulardan katta noaniqliklarni topdi va Tangrining xohishu istagi bilan yozilgan «Al kitob al muhtasar fi hisob al jabr va muqobala» zar andar zar bo'ldi. Baytul-hikmada shular chetda qolmasa, degan umidimiz bor.

Ali Qushchi Ulug'bekka yana ta'zim qilib, so'zini tugatishga izn so'radi. Mirzo unga bo'lak gaping yo'qmi, deganday savol nazari bilan qaradi-da, keyin «Miram Chalabiy» deb chaqirdi. Shamsibekning hamsuhbati o'rnidan turgach:

— Qulog'imiz senda, — dedi.

— Sizning bul amringiz bizday ilm arki norasidalarining yo'lini oftob yanglig' yoritgusidir. Ustodning gaplari ham ko'p ma'qul. Men tavbalari qabul bo'lgur bobomning «Batlimusdan o'rgan, ammo taqlid qilma», degan o'gitlarini toabad yodda tuturman. Istagim shulki, tengqurlarim ham nasihatgo'ylikdan nari yursalar. Yana bir istagim shulki, ilm arkining biz kabi norasidalarini Al Forobiy, Ar Roziy, Al Beruniy, Al Xorazmiy, Al Farg'oniy kabi shayxul-ulamolarning yo'liga solinsa, ya'ni alloma Tangri yaratgan ilmlarning baridan boxabar bo'lsa.

Falakiyot, riyoziyot, handasa, tibbiyot, jugʻrofiya, adabiyot ilmidan xabar topsagina alloma deb tilga olinsa.

— Maʼqul. Yana kim soʻz aytish istagida?

Qora soqol qoʻyib, katta salla oʻragan kishi oʻrnidan turdi. Shamsibek uning kimligini bilmasdi. Ammo majlis oldidan uning anchayin sezilarli oqsashiga eʼtibor berib, «tugʻma oqsoq ekan», deb qoʻygandi.

— Qulogʻim senda.

— Baytul-hikma Sizning ulugʻ marhamatingiz tufaylidir. Shu bois unga boʻlak yurtlardan allomalar jalb qilinmasa.

— Nechun?

— Sizning marhamat nuringizdan bahramand boʻlayotgan Movarounnahr allomalari ham yeturmikin, degan xayoldamiz.

— Xayoling chakki! Baytul-hikma Haq-taoloning istak va xohishi bilan boʻlur, alalxusus, unga kurrai arzning iqtidorli allomalari taklif qilinur.

Baytul-hikma xususida boʻlak fikr aytuvchilar chiqmadi. Mirzoning ishorasi bilan bazm boshlandi. Miram Chalabiy, «Bu bazm qaror topgan Baytul-hikma sharafiga», deb tushuntirdi. Shamsibek bu kech shahriyor suhbatida boʻlolmasligini sezdi.

Ertasi kuni ham, ikki kundan soʻng ham mirzo huzuriga kirish sharafiga muyassar boʻlolmadi.

Bir haftadan keyin meʼmor dorulshafaqa imoratining tarhi tayyor boʻlganini maʼlum qilgach, olampanoh dargohiga yuzlana oldi. Bir oshʻyonliq bino qurish fikrini shahriyor maʼqulladi. U atrofga mevali daraxtlar ekishni taʼkidlagach, meʼmorga dedi:

— Yangi hammom uchun nobop joy tanlanibdi.

— U yer koʻpchilikka maʼqul boʻlib edi.

— Maʼqul emas. Toʻrt koʻchaning boshi berkilib qoladi. Shahristonda boshi berk koʻchalarning mavjudligi meʼmorning noqobilligi oqibatidir. Shuni inobatga ol.

Ulugʻbek qaytishga ruxsat berdi. Shundan soʻng Shamsibek Abdulvahobning uzrini aytishga jurʼat qildi.

— Vositachi boʻlmogʻingga sabab nedur? — dedi Ulugʻbek uning soʻzlarini tinglab boʻlib.

— Sababi oʻzingizga maʼlum: saboqdoshmiz, bir qishloqdanmiz.

— Shuginami?

— Ha, shugina xolos.

— Iqtidoriga kafilmisan?

— Ojizman, shahriyorim.

— Balli. Shundayligi menga ham maʼlum edi. U madrasani toat-ibodat uchun emas, aqli noqisligi uchun tark etgan. Dori dardga sabab ekan, shifoga qanday umid boʻlishi mumkin?

— ...

— Faqatgina saboqdosh boʻlgani uchun ilm arkiga yetaklab kirishga intilmoq masjidga eshak

olib kirmoq bilan barobardur. Shuni bilki, bo‘lak sababi bilan emas, balki aqli noqisligi uchun ilm dargohidan qaytib, unga tosh otganlar tuban va johildurlar. Yana bilki, kimki johilga ko‘mak bersa, Olloh uning ustidan shul johilni hukmron qilib qo‘yur. Saboqdoshing jarimalari sahifasiga avf raqamini tortmoqqa noloyiq. Bundan so‘ng fikringni bu qadar bema‘ni ishlar bilan band etma.

Shamsibek uzr ayta-ayta, chiqdi.

Ertasi kuni rasadxona yo‘lidagi yerga dorulshafaqa binosini qurish harakati boshlandi.

JAHON ICHRA YANA BIR OSMON

Jahongir boshida qattiq og‘riq turganini his qildi. Daftarni yopib, xona bo‘ylab yura boshladi. Bir oz yotdi ham, bo‘lmadi. Tashqariga chiqdi. Dam oluvchilar sayrga ketishgan, shuning uchun atrofda shovqin yo‘q edi. Pastdagi soyning shovillashigina tog‘lar sukunatni buzib turardi. Jahongir soy bo‘yiga tushdi. Sohilda bir oz yurdi-da, keyin katta xarsangga o‘tirdi. Suv ko‘pirib, toshlarni yumalatguday bo‘lib oqar, uning muzdek shabadasi tanga xush yoqardi. «Sal narida bundan ham kattaroq soy bor, — deb o‘yladi Jahongir. — Ikkisi qo‘shilib kichik daryo bo‘ladi. Keyin u katta daryoga, daryo esa dengizga qo‘shiladi. Fan tarixi ham shunga o‘xsharkan. Turli zamon, turli yurtlarning olimlari o‘ziga xos bir jilg‘a bo‘lib, dengizga quyilavergan. Dengizda biz bir tomchimiz xolos. Qancha kashfiyotlar qilindi. Bu kashfiyotlarning qanchasi qayta ishlanishga muhtoj. Ali Qushchining ta‘biri o‘rinli bo‘lgan ekan: Alloma ulug‘ bo‘lgani bilan uning fikri mutlaq emas! Al Xorazmiy Ptolomeyning geografiyasini tubdan qayta ishladi. So‘ngra fanning yangi tarmog‘i algebrani yaratib naqadar buyuk ish qildi. Tenglamalarni hal qilishda Yevklid geometrik yechimlar bilan cheklangan, Diofant taklif qilgan yechimlarni isbot qilib berolmagan, Geron esa, ayrim sonlarning ilovasinigina bergan edi. Al-Xorazmiy mana shularni tahlil qilib yechimda Arximeddan ko‘ra aniqroq qiymatni chiqardi. Fibonachchi, Pachiola, Tartalyan, Kardan, hatto Ferrarii Xorazmiyni ustod deb tan olgan edilar. Kibernetikaning asosiy terminlari — «algoritm» va «algorifm» Al Xorazmiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib qoldi. Buning barchasi nusxa ko‘chirish emas, hayiqmay tahlil qilish va qayta ko‘rib chiqishning natijasi bo‘ldi. Biz salafimizning shu xislatlarini chuqurroq egallashimiz kerak ekan. Holbuki, hozir nomdor akademikning ishini qayta ishlash tugul, tahlil qilish, jilla bo‘lmasa sharhlash katta muammo bo‘lib qolyapti. Mana Jamshid... Yana keraksiz xayolga berildim. Boshqa narsani o‘ylashim kerak. Nimani? Masalan, rasadxonani... Qanday go‘zal bino. Darvoqe, bu haqda Sultonga maktub yozishim kerak edi...» Jahongir shuni eslab, o‘rnidan turdi-da, yuqoriga ko‘tarildi.

Boshining lo‘qillashi hali to‘xtamagan bo‘lsa ham, xonasiga kirgach, bir varaq qog‘oz olib, tez-tez yoza boshladi:

«Do‘stim Sulton! Tajriba davrida bir fikr uyg‘ondi. Jasadi tajribaga asos bo‘lgan alloma Ulug‘bek rasadxonasini ko‘rgan ekan. Taassurotlari asosida men ham uning guvohi bo‘ldim. Rasadxonani tasvirlashga ko‘p vaqt kerak. Men hozir bunga qodir emasman. Sen faqat bir

narsani o‘ylab, tekshirib, hujjatlarni solishtirib ko‘r: rasadxona qachon buzilgan? Kim buzdirgan? Abdullatifmi? U holda nega Bobur Mirzo «Boburnoma»da darz ketgan tosh taxtga qadar batafsil tasvirlagan? Alisher Navoiy-chi? Esingdami:

Temirxon naslidin sulton Ulug‘bek,

Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek...

... Rasadkim bog‘lamish zebi jahondir,

Jahon ichra yana bir osmondir...

Bulardan tashqari, bilishimcha, Abdullatifning o‘limidan so‘ng rasadxonada astronomik tekshirishlar olib borilgan. Balki boshingni bemavrid aylantirayotgandirman? Men shunchaki o‘ylab ko‘r, demoqchiman.

Salom bilan, Jahongir. 16 iyun 19... yil».

Jahongir xatni pochta qutisiga tashladi-da, yana bir oz soy bo‘yida yurdi. Xayol bilan bo‘lib, katta hovuzga yaqinlashganini sezmay qoldi. Bu hovuzda cho‘miluvchilar ko‘p bo‘lguchiydi. Bugun negadir ikki yigitdan bo‘lak hech kim yo‘q. Ulardan biri oftobda toblanib yotibdi. Biri yuqoriga chiqib kalla tashlashga hozirlanardi. Mana u tashladi. Lekin Jahongir o‘ylaganday kallasi bilan emas, qorni bilan tushdi. Suv chayqalib atrofga sachradi. Jahongir birdan to‘xtab qoldi. Keyin suzayotgan yigitga qarab turdi-da, tez burilib orqasiga qaytdi. Oromgoh boshlig‘ining xonasiga kirib, institutga telefon qildi. Mansur tajribaxonada ekan. U ikki soatlardan so‘ng oromgohga yetib keldi.

Jahongir uni soy bo‘yiga boshladi. Hol-ahvol so‘ragach, muddaoga ko‘chdi:

— Men o‘zimni yomon his qilganimda elallomada o‘zgarish sezilmadimi?

Mansur o‘shanda elallomaning kuyib qolganini ustozidan yashirgan edi. Shuning uchun Jahongirning savoli uni gangitib qo‘ydi. Jahongir buni sezdi.

— To‘g‘risini aytaver, yashirma.

— Elalloma kuyib qolgan edi.

— Qanday qilib?

Mansur bor gapni aytdi.

— Buni o‘sha zahoti aytishing kerak edi, — dedi Jahongir ranjiganini yashirmay.

— Men sababini aniqlay olmadim, — dedi Mansur.

— Uning kuyib qolishida hech kimning aybi yo‘q. Elalloma texnik jihatdan bexato ishlangan.

— Unda xavf chiroqlarining yonishi, keyin uchqun chiqishi nimadan sodir bo‘ldi?

— Bularning bariga sabab — bioto‘lqinning kuchayishi. Voqealarning kishi ruhiga ta’siri

bioto‘lqinning kuchayishiga yoki susayishiga sabab ekan. Voqea fojiaga borib taqalganda men

o‘zimni yomon his qilganman. Xuddi shu paytda elallomaning tahlil va xulosalash bo‘limida ogohlantiruvchi chiroq yongan. Bioto‘lqinning kuchlanishi oshgan. Tushundingmi? Biz elallomani bir me‘yordagi bioto‘lqinga moslagan edik. Avvallari u tekis oquvchi suv kabi bo‘lgan voqealarni tiklagan edi. Endi suv to‘satdan qattiq chayqaldi. Ana shu chayqalishning kuchi uchqun chiqargan. Mana shularni hisobga olib, elallomaga tezlik bilan moslama o‘rnatishimiz kerak. Tajriba vaqtincha to‘xtatiladi. Men ikki kundan keyin tushib boraman. — Kecha kibernetika institutdagilar kelishdi. Yaxshi bir yangilikni taklif qilishyapti. Robot bilan o‘tkaziladigan tajbiramizda teleekranda foydalanishmoqchi. Robot ham elallomadan axborotni qabul qilib oladi, yozib boradi, ham teleekranga uzatadi. — Juda yaxshi. Tayyor turishsin. Balki, shu yilning o‘zida boshlarmiz.

«19... yil, 21 iyun. O‘zFA Biofizika ilmiy-tekshirish instituti. Professor Alievning tajribaxonasi.

Bugunga mo‘ljallangan tajriba qoldirildi. Barcha elallomaga o‘rnatiladigan yangi moslama yaratish ishiga safarbar qilindi».

«19... yil, 2 iyul. Moslama yaratildi. Ertaga tajribaning oltinchi bosqichi boshlanadi».

«19... yil 3 iyul. Soat 11.00. Tajribaning oltinchi bosqichi boshlanishi kerak edi.

Elallomalar ishga tushganida tajribaxonani radioto‘lqindan muhofaza qiluvchi pardaning kuchsizlangani sezildi.

Soat 13.15. Muhofaza pardasi tiklangach, tajriba boshlandi. Professor o‘zini yaxshi his qilyapti. Meditsina komissiyasi unda o‘zgarish sezmedi. Barcha xodimlar tajribaning borishi haqida professordan ma‘lumot kutishyapti. Biroq, professor «Tajriba biz o‘ylagandek tekis davom etyapti», deyish bilan cheklandi. O‘zini «Professorning yaqin do‘stiman», deb tanishtirgan yozuvchi To‘lqin Murodovni ham qabul qilmadi.

Soat 18.15. Tajribaning oltinchi bosqichi hech qanday hodisasiz muvaffaqiyatli tugadi. Professor o‘zini yaxshi his qilyapti. Tajribaning yettinchi bosqichi 11 iyulga mo‘ljallanadi. Professor bugungi voqea uchun tajriba rahbariga tanbeh berdi. Uning aytishicha, voqealar orasida uzilish sezilgan. Tajriba haqida bo‘lak ma‘lumot yo‘q».

Darhaqiqat, tajribaning boshlanishidayoq Jahongir elalloma yuborayotgan axborot oqimining xiralashganini sezdi. Keyin yana qalandarlik libosiga kirgan Abdulvahob, madrasada va‘z aytayotgan Ulug‘bek, xazinada oltin saralayotgan Shamsibek, nimadir tikayotgan Mahfuza va anglab bo‘lmaydigan tasvirlar ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ldi. Keyinroq tasvirlar oydinlashib, so‘zlar ham aniqlashdi.

Jahongir oromgohga qaytgach, shularni xayolida qayta tiklashga urindi.

FALAK (KUNDALIKNING OLTINCHI SAHIFASI)

Birinchi qor tushganida binoning poydevori qo'yilib, devor yerdan odam bo'yi ko'tarilgan edi. Chilla kirdi. Sovuq ko'z ochirmay qo'ydi. Ustma-ust qor yog'ib, tizza bo'yiga chiqdi. Tomlardan kuralgan qor tor ko'chalarni deyarli to'ldirayozdi. O'n kundan beri quyosh ham yuz ko'rsatmaydi. Go'yo zamin sovuq lahadga tushganday. Faqat odamlarning harakatigina hayotning so'naganidan dalolat beradi.

Bino qurilishi boshlangach, Shamsibek xazinadagi oltin-kumushlarni saralashga kirishgandi. U kun bo'yi saroydagi do'kondan chiqmas, uyga qosh qorayganda qaytardi. Ba'zan o'g'li uxlab qolgan bo'lardi. Zavjasi sandalning olovini balandlatib, o'zi bir chekkada chevarlik qilib o'tirgan bo'lardi. Shamsibek uning nima tikayotganiga ko'p ham ahamiyat bermasdi.

Samarqandga kelgan kunlari yolg'izlikdan Mahfuzaning dili xun bo'lib, turli rang ipak oldirgan, Buloqboshidagi odaticha, do'ppi, qiyiqlar tikib, o'zini ovutardi.

... Shamsibek bugunga mo'ljal qilgan oltinlarni quyib bo'lib ketishga chog'langanida ganjuri uni ichkariga chorladi. Ixcham sandiqlardan birini ochib:
— Qarangchi, kecha Hindistondan keltirishdi. Tillasi durustmikan? — dedi.

Shamsibek tilla bezaklarga havas bilan tikilib qoldi. Bezaklar shu darajada nafislik bilan ishlangan ediki, tillaligi uchun emas, nafisligi, go'zalligi uchun ham bebaho edi. Shamsibek tilladan shunday bezak ishlay oladigan zargar bor, deb xayoliga ham keltirmagandi. U bir baldoqni olib, mash'ala yorug'iga tutdi. Soch tolasi yo'g'onligidagi halqachalarga moshning yarmicha keladigan yoqut qadalgan. Mash'ala yorug'ida ular xuddi bargga qo'ngan shudring tomchisiday titraydi, yaltiraydi.

— Bundan zo'rroq san'at bo'lmasa kerak, — dedi Shamsibek baldoqni joyiga qo'yar ekan.
— Tillasi-chi? — deb so'radi ganjur.

Shamsibek bezaklarni yana bir ko'zdan kechirdi. Ularning yuzasi bir oz xira tortgan, tillasi pastroq navli edi. Agar shunday desa, shubhasiz, bularni ham eritishi kerak. Lekin bunga uning qo'li bormaydi. U faqat o'zi ishlay oladigan bezak va buyumlarnigina eritayotgan edi. Shuning uchun ham u ganjurga yolg'on gapirdi:

— Tillasi toza, eritmoqqa hojat yo'q.
— Men ham shundaydur, deb edim, — dedi ganjur sandiqni yopib, tashqariga yo'l boshlar ekan.

Kechqurun izg'irin ancha kuchaygan edi. Shamsibek telpagini bostirib kiyib tez-tez yurib ketdi. Dam o'tmay, tanasi qizib, sovuq ham sezilmay qoldi.

Mahfuza bugun ham odatdagiday sandalda o'tirardi. Eri kirishi bilan turib qarshiladi-da, oshxonaga chiqdi. Shamsibek shiringina uxlab yotgan o'g'lining burnini chimdib, uyg'otmoqchi bo'ldi. Kichkintoy bir g'ingshidi-yu, uyg'onmadi.

Mahfuza dasturxon yozdi-da, bir chinni ovqat bilan ikkita non keltirib qo'yib, o'zi ham

o'tirdi.

- G'animuroddan xabar olmadingizmi? — dedi Shamsibek.
- Borib keldim. Yana yurolmayapti ekanlar, oyoqlarida shish bormish.
- Beli-chi?
- Opoqbuvi aytmadilar.

Shamsibek ovqatni ichib bo'lib, dasturxon ustidagi nonlar olingach, yuziga fотиha tortdi-da, o'rnidan turdi.

— Men ham borib xabar olay-chi. Avvalgi kuni yuzidan xiyla qon qochgandi. Qarashidan ham xavfim bor edi, — dedi. Mahfuza «maylingiz», deb qoziqdan to'nni olib tutdi.

G'animurod sandalda yonboshlab yotardi. Sandalning bir tomonida Qamariddin o'tirardi. Uy egalari ko'rinmasdi. Shamsibek kirib bir oz o'tirgach, G'animurodning tomirini ushlab ko'rdi. Keyin uning shishgan, bir oz ko'kargan oyog'ini ko'rdi.

— Men malham tayyorlab qo'yaman. Zavjam ertaga tashlab ketar. Kechga qadar besh marotaba surib, yaxshilab silang. Sovuq tegmasin. — Shamsibek shunday deb, ketishga chog'landi. Qamariddin ham turdi. Ikkovlon xayrlashib chiqishdi.

— Oyog'ini ko'rib mashqingiz pasaydi, tinchlikmi? — dedi Qamariddin.

— Payqadingizmi? — dedi Shamsibek. — Unga og'ir dard ilashibdi. Qorason bo'lganga o'xshaydi.

— Davosi mushkulmi?

— Davosi yo'q.

— Hech-a?

— Oyoqni kessa, balki...

— Astag'firulloh!

— Bo'lak shifo yo'q. Suyaklar iriy boshlagan. Tabobat ojiz.

— Yo Xudo, bedavo darddan o'zing asra. Ammo G'anipolvonga ixlosim baland edi. Bundayin mard kamdan-kam bo'ladi... Peshanasida baxtsizlik bor ekanda... Nailoj... Asli baxtsizlik yopishgan kishi oxir bir kun uning sharbatidan totadi, derdilar. G'anipolvon bu sharbatdan xiyla erta totib qo'yibdi. Attang.

Shamsibek indamadi. Bir oz yurishgach, Qamariddin yana so'z ochdi.

Kecha anavi qozini ko'rdim. Afti angori ancha xarob.

— Qaysi qozini aytyapsiz?

— Andijon yo'lidagi-chi?

— Sizni tanidimi?

— Tanimay-chi! Teskari qarab oldi. Erta-indin u ham devonalarga qo'shiladi. Qalandarlikka qaytgan jo'rangiz uni qanotiga oladi.

— Nega unday deyapsiz?

— Farg'ona ayolatidan kelganlar tez topishadilar.

— Musofirlikda yuz issiq bo'ladi-da.

— U nonko'r qalandar bilan ko'rishib turasizmi?

- Ha.
- Siz u bilan salom-alik qilmang. Undan yaxshilik chiqmaydi. Nazari sovuq.
- Shunday deysiz-u, lekin u ham tirik jon. Xudoning bandasi.

Ular madrasa muyulishida ajrashdilar. Shamsibek kelganida Mahfuza uxlamagandi. Eri tanchaga o'tirib yonboshlagach, G'animurodning ahvolini surishtirdi. Keyin erining xayolga cho'mganini ko'rib, asta so'radi:

- Yaqin orada Abdulvahobni ko'rmadingizmi?

Shamsibek qo'qqisdan berilgan bu savolga hayron bo'ldi.

- Nima edi?
- Xavotirdaman. Ko'pdan beri eshigimiz tagidan o'tishni odat qilgan. Uch-to'rt bor ko'pchilik bo'lib o'tdilar. Baqirib, nimalarnidir aytadilar, men anglay olmayman. Ko'ngliga yomonlik oralamaganmikan?
- Biz unga nima gunoh qilibmiz-ki, ko'ngliga yomonlik oralasa?
- Shahriorning rad javobini sizdan ko'rsa-chi?

Shamsibek «yo'q» deb kulimsiradi. O'sha uzrxohlikdan so'ng Abdulvahobga olampanohning javobini yetkazganida, u: «Sen astoydil vositachilik qilmagansan, mening mulla bo'lishim senga yoqmaydi. Chunki sen qishloqning yagona mullasi bo'lishni istaysan. Ko'nglung qora!» qabilidagi xunuk so'zlarni aytgan edi. Albatta, bu gaplardan Mahfuza bexabar. Shamsibek uning xavotirligi oshmasin, deb bildirmagan edi. Shuning uchun ham hozir, «bu yurish ularning odati, avhomga berilmang», deb qo'ya qoldi.

Mahfuza erining mudrayotganini ko'rib qo'ltig'iga yana bir yostiq qo'ydi-da: «Bir narsa ko'rsatsam izza qilmaysizmi?» — dedi.

- Nima ekan? — dedi Shamsibek.

Mahfuza tokchada o'rog'liq matoni olib ochdi.

- Qarang-chi!

Shamsibek qaddini rostlab, matoga tikildi: ko'm-ko'k matoga zarhal ipakda ajib tasvirlar chizilgan: o'rtada kungaboqarni eslatuvchi doira. Atrofida doirachalar. Ipaklar to'lqinsimon qilib tikilgani uchun doirachalar yoniq yulduzlar kabi jimirlab turibdi. Matoning chetlarida ikki qatorli zarhal hoshiya bor.

- Qaerdadir ko'rganman, — dedi Shamsibek undan ko'z olmay.
- Rasadxonada emasmi? — dedi Mahfuza kulimsirab.
- Ha-ha, o'sha yerda. Ammo siz qayda ko'rib edingiz!
- Men ko'rganimcha yo'q, sizning hikoyangizni eslab turib tikdim. O'xshaydimi?

Shamsibek katta doira atrofidagi doirachalarni sanadi: oltita. Rasadxona devorlarida ham xuddi shunday tasvir bor edi. Ranglar ham aynan ko'chibdi. Shamsibek ilk marta rasadxonani ko'rganida shu tasvirni Mahfuzaga so'zlab bergandi. Ne ajabki, zavjasi buni qulog'iga ilib,

ipak bilan matoga tushiribdi.

— Faqat birginami?

— Ha, yana birini bugun boshladim.

— Jumagacha bitiring.

— Muncha shoshqich?

— Shahriyorga ko'rsataman.

— Voy, o'lay! — Mahfuza cho'chib tushdi. Chunki bu yetti uxlab, tushiga kirmagan edi. — Voy o'lay, nima deyapsiz! Arziydimi?

... Ertalab Shamsibek to'g'ri xonaqohga yo'l oldi. Uning Abdulvahobga aytadigan so'zi ko'p emasdi. Shu bois tashqarida, kimsasiz ko'chada, tik turgan holda gaplashdilar.

— Abdulvahob, so'nggi kunlar ichi ko'chamizdan botma-bot o'tishingizning sababi nima?

— Shahristonda Xudoning ko'chalari ko'p. Qay biridan o'tishim o'z xohishim bilan bo'ladi. Sizga buning daxli yo'q.

— Har qanday qilmishning miyonasi xo'bdur. Oqibatni unutmaslik zarur.

— Oqibatni? Xusravi beoqibatningi etagidan tutganingiz holda bu ibratni tilga olishingiz g'oyat taajjubli.

— Tuhmat botqog'iga yana to'la botibsiz. Beisbot so'zlardan tiyilishingiz lozim.

— Beisbot deysizmi? Olloh o'z mag'firatiga cho'mdirgur hazrat xoqoni Said Mirzo Shohruhga, ya'ni padari buzrukvoriga suiqasd qilgan Shayx Qosim Anvarni panohiga olganiga ne deysiz?

— Mirzoga Ahmad Lur suiqasd qilgan. Shayx beayb.

— Ahmad Lurning shayxga murid ekanligi-chi? Yoinki dinimizni poymol etuvchi ilm bilan mashg'ul bo'lish-chi?

— Muridlik xususidagi so'zingiz mavhum. Ilm xususidagi so'zlaringiz esa bema'nilik. Haq taolo Odam alayhissalom bilan birga ilmlarni ham yaratgan. Falakiyot dinni poymol etmay, dinimiz ravnaqi uchun xizmat qilguvchi ilmdur. Rasad ahli falakdagi o'zgarishlarga qarab namoz vaqti, ro'zai-ramazon damlari, kun chiqish va botish vaqti, niyat va farzlar muddatini, Quyosh yo Oyning tutilishi voqe bo'lsa, uning vaqtini aniqlab berish maqsadida ter to'kadilar. Buning nimasi gunoh? Bilingki, tushunishdan o'zlikni e'tirof etmoq ham idroklilikdur.

— Shundaymi? Siz ham bilingki, sevgan narsangiz o'zingiz uchun kulfatdir.

— Bag'oyat ibratli so'z aytdingiz. Sizning nazaringiz tushgan Rasulillohning hadislaridagi: «Siz biror narsani yoqtirmassiz-u, ammo siz uchun xayrlidir», degan jumlagi e'tibor qilganingiz ma'qul edi.

— Xudovandi karimning o'zi haq-nohaqni qiyomat kunlari ajratib oladi. Mening tavbalarim o'shanda asqotadi.

— Ilohim asqotsin. Ammo o'rmonga o't ketsa ho'lu quruq baravar yonadi.

Abdulvahobning ko'zlarida g'azab yondi. U dinga nisbatan qattiq so'zlar aytgani uchun emas, balki donishmandlik bobida hamqishlog'idan ancha past ekanini his qilganidan g'azabda edi.

Juma namozi oldidan Ulugʻbek diyor akobirlari va sohibqironning mozoriga borib muhtojlarga duoyu sadaqalar ulashdi. Soʻng Bibixonim masjidiga yoʻl oldi. Shamsibek ham uning shogirdlari qatorida turdi. Namoz tugagach barchalari madrasaga bordilar.

Dorul-saltanada Baytul-hikma qaror topganidan beri goh Ulugʻbek, goh Ali Qushchi allomalar bilan birgalikda talabalardan bir guruhini falakiyot ilmidan boxabar qilar edilar. Bu juma Ulugʻbekning oʻzi saboq berdi. U falakiyot xususida juda bosiq va ohista soʻzlar, tinglovchilar uning har bir fikrini oson uqib olish imkoniga ega edilar. Ulugʻbek ustrlob va undan foydalanish haqidagi soʻzlarini tugatgach, ziyj tuzmoq hunaridan soʻzlay ketdi: — Ziyj tuzmoq miloddan bir yuz oʻttiz toʻrt yil muqaddam rasm boʻlgan. Yunon allomasi Guparxu Aqrob majmuasida tasodifan yorugʻ yulduzni koʻrib hayratdan yoqa ushlagan. Alloma majmuada ilgari bu yulduzni sira uchratmagan ekan. Gavhari anjumda bir koʻrinib, bir koʻzdan yoʻqoluvchi falak boshloqlarini nazardan qochirmaslik uchun u ziyj tuzmoqni rasm qildi. U ziyjiga besh yuz yulduzni jamlab, yorugʻlik darajalarini oltiga boʻldi. Shundan soʻng falakiyot ilmining akobirlari bu ziyjga oʻzgartishlar kiritdilar. Batlimus, Nasriddin Tusiy, Muhammad al-Batoni, Abdurahmon Soʻfiy kabi allomalar ziyj ganjiga nodir gavharlar qoʻshdilar. Oktob va boʻlak sayyoralarning taqvimini kuzatib borib, hikmat egasi boʻlmish Nasriddin Tusiy tuzgan «Ziyji jadidi Elhoni»dagi hamda Abdurahmon Soʻfiy risolasidagi oktob va boʻlak sayyoralar taqvimida yoʻl qoʻyilgan tafovutlarni inobatga olib, Ollohning hukmi bilan, biz ham ziyj tuzmoqqa bel bogʻlab, Tangrining marhamati bilan muddaoga erishdik. Ziyjda bir ming oʻn sakkiz yulduzning oʻrnini belgiladik. Abdurahmon Soʻfiy risolasidagi sakkiz yulduzni hamon izlamoqdamiz. Harakatimiz toʻ shu kunga qadar samara bermadi. Mavlono Soʻfiy ushbu yulduzlarni oʻzlari koʻrmay, Batlimusdan olganlar. Inshoolloh, uning oʻrnini belgilash bizga nasib etur.

Sovuq sabab boʻldi shekilli, Ulugʻbek bu kungi darsini qisqa qildi. Talabalardan «anglay olmagan fikrlarni qayta soʻranglar», deb sukut saqladi. Soʻrovchilar chiqavermagach, Shamsibek oʻrnidan turib qulluq qildi.

— Qulogʻim senda, — dedi Ulugʻbek undan savol kutib.

— Shahriyorim, sizga bir narsani koʻrsatish niyatida edim. — Shamsibek shunday dedi-da, matolardan birini olib, Ulugʻbekning oyogʻi ostiga qoʻydi.

— Nima bu? — dedi Ulugʻbek.

— Kaminaning ojizalari toʻqigan ekanlar, maqbul boʻlarmikan, deb olib keldim.

Chaqqonroq ikki mulozim uni olib, shahriyor qarshisida ochdi. Ulugʻbek bir matoga, bir Shamsibekka, soʻng yana matoga tikildi.

— Ajab, bu falak-ku! — dedi u hayrat bilan. — Bu rasad devorlaridagi falakning tasviri-ku! Kimning ishi bu? Ojizamniki, dedingmi?

— Ha, shahriyorim.

— Shunday moʻʼjizani yaratgan iqtidor egasini ojiza demoqlikka qanday tiling aylandi? Mashoyixlar:

«Onangdan bosh tovlama, oshmasin dardi,

Hayot toji erur oyog'in gardi!» — demish ekanlar. Uqdingmi?

— Gunohkorman, shahriyorim.

— Ayollar ham Xudoning bandalari. Sen kabi iqtidor egalarini yaratar ekanlar, nechun o'zlari «ojiza» yoinki aqli noqis bo'lsinlar?! Mana bu falakka qaranglar, — Ulug'bek endi atrofdagilarga murojaat qildi. — Biz bu yulduzlar o'rnini topmoq uchun necha tunlar mijja qoqmadik. Nebaxtkim, falakiyot ilmini kulbaxonadagi ayol chaqib ko'rsa. Ular ham ilmdan xabar topsa. Kurrai arz aylanadi, deganda, «astag'firulloh!», deb yoqa ushlamasa... Zavjangga rasadxonani qachon ko'rsatib eding?

— U kishi ko'rmaganlar. Men hikoya qilib berib edim.

— Nur a'lo nur. Ko'rmay-ki, shunday mo'jiza yaratibdimi, sharaf unga. Sen kunduzi uni olib kel. Rasadni ko'rsat. Qizlarni yoniga olib shunday falak tasvirlaridan tiksin. Farmonim shul: rasad ahli, saroy ahli, madrasa ahliga yetib ma'lum bo'lsinkim, Shamsibek Ismoil o'g'lining zavjasi tikkan falak tasviri barchaning uyida bo'lmog'i darkor. Rasad ahli, saroy ahli, madrasa ahli bu falaklarni bozordan sotib olishga majbur. Falakni fuqaroga ko'rsatmoq, tanitmoq maqsadida u faqat bozorga olib chiqilsun!

Ulug'bek gap tamom, deganday ishora qilgach, talabalar ta'zim bilan chiqa boshlashdi.

Ulug'bek Shamsibekni saroyga olib ketdi. Dorulshafaqa qurilishi va xazinadagi ishlarni surishtirdi-da, dedi:

— Bilishimcha, o'tgan oy Baytul-hikma qanotiga Xorazmdan kelgan tabib xastalik tarqatuvchi insu jins bilan o'zini emlab betoblanibdi.

— Ha, shahriyorim shunday bo'ldi.

— O'z-o'zini xasta qilmoqdan muddaosi ne ekan?

— U xastalikning boshlanish onlarini bilib, shifo izlashni niyat qilib edi.

— Shifoga umid bormi?

— Xudo xohlasa, yaqin kunlar ichi oyoqqa turur. Dardi u qadar og'ir emas.

— Shifo topgani hamon huzurimga keltirursan. Bo'lak hakimlarga mening farmonimni yetkaz: xorazmlik tabib singari insu jinslarni sinab ko'rish jazo bilan taqdirlanur.

— Shahriyorim, bir arzim bor, — dedi Shamsibek qulluq qilib.

— Gapir.

— Birinchi bor suhbatingizda bo'lganimda falakdagi o'zgarishlar kurrai arzga ta'sir ko'rsatadi, deb edingiz.

— Ha, shunday.

— Ma'lumingizki, Andijondan qaytar mahalimiz G'animurod ismli purdil yigitni olib kelib edik. Nojinslar mayib qilganini aytib ham edik.

— Yodimda bor. Qamariddin uning tuzalib maydonga chiqishini kutyapti chamamda.

— Afsuski u maydonga tusholmaydi.

— Sabab?

— Sababi, u qorason xastaligiga muftalo bo'lgan. Xastalikning birdan bir shifosi — oyoqni kesish. Bo'lak shifo tabobatga qorong'u. Biroq, xayolimga bir fikr kelib edi.

— Qanday fikr?

— Falakda bo'ladigan katta o'zgarishlarni bilsam. Shu kuni dori tayyorlab, muolaja qilsam.

- Qaysi o'zgarishlardan aytasan, falakda o'zgarish mo'l.
- Aytaylik, xusuf kuni yoki quyosh tutiladigan kun. Shu onlarda havo tarkibida o'zgarish bo'lmasmikan? Bo'lsa, dori va malhamga ta'sir etmasmikan?
- Fikringda jon bor. Bu kunlar ummonda to'fon ko'tarilishi, bo'ron bo'lishi, qattiq shamol esishi, sel kelishini ko'pdan aytadilar. Ajab emas, tabobat ham o'zgarish sezsa. Hamalning o'n biri xusuf kuni bo'ladi. Ammo bu damda sen toat-ibodatda bo'lishing zarur-ku?!
- Raiyat uchun mening toat-ibodatimdan ko'ra tabobatdagi ishim ko'proq naf berarmikin? Qolabersa, kurrai arz aylanadi, dedingiz. U holda Oyning yorishmog'i mening ibodatimga muhtoj emas.

Ulug'bek yigitning javobini eshitib, jilmaydi.

ISHONCH

Jahongir daftarni yopib o'rnidan turdi. Derazani ochib yubordi. Salqin tog' havosi ichkariga ufurib kirdi. Tun yarimlagan. Oromgohda sokinlik hukmron. Uning uyquasi o'chgan, yotgani bilan bari bir ko'zi ilinmas edi. Shuning uchun «Qorovul ota bilan bir otamlashay», deb choynakni ko'tardi-da, tashqariga chiqdi. Yelvizak turib eshikni taraqlatib yopdi. Peshayvon panjarasiga suyanganicha sigaret tutatayotgan kishi shu tomonga qaradi. Jahongir geliobiologiya sohasida ishlovchi bu olimni tanir, uning astronomiya bilan meditsinani chog'ishtirgan holda olib borayotgan ilmiy tadqiqotlaridan xabardor edi.

- Ahmad Zokirovich, hali ham uxlamabsizda, — dedi Jahongir unga yaqinlashib. — Yo osmondagi o'zgarishlarni kuzatyapsizmi?
- Yo'q, osmon hozir tinch. Uyqum qochdi. O'zlari choynak ko'tarib qolibdilar?
- Qorovul ota bilan bir otamlashay, yuring siz ham.
- Men yaqinginada choy damlab suhbatdoshga xumor bo'lib turuvdim. Bu yoqqa marhamat qila qoling.
- Geliobiologiya olamshumul kashfiyot bo'sag'asida turganga o'xshaydi, — dedi Jahongir ichkari kirgach.
- Nimaga unday deyapsiz?
- Olim tunni bedor o'tkazdimi, demak, bir gap bor.
- Yo'q, bedorlikning sababi boshqa. Oqshomda soy bo'yida bir kishi bilan bahslashib qoldim. Meditsinaga oid kitoblarni o'qib o'zida o'n ikki xil kasallik borligini «kashf» qilibdi. O'zini bilag'on qilib ko'rsatib vrachlarni ayblamoqchi bo'ldi. Nima emish, vrachlar uning o'n uchinchi kasalligiga diagnoz qo'yisha olishmayotganmish.
- Odamlar ham qiziq, — dedi Jahongir kulimsirab, — kasallik sal cho'zilsa yo og'irlashsa vrachni aybdor qila boshlashadi.
- Qars ikki qo'ldan chiqadi. Qani, Jahongir Alievich, marhamat qilsinlar, — mezbon shunday deb choy uzatdi-da, shirinlik va non burdalari ustiga yopilgan oq sochiqni olib, gapini davom ettirdi. — Meditsinaning bu qadar tez taraqqiyoti muhim muammolarni ko'ndalang qilib qo'yyapti. Vrachlarning ishi tobora og'irlashib, mas'uliyatlari ortyapti. Ko'pchilik meditsinaga ishonib, kasallik bilan yuzma-yuz kurashib, yengib chiqish qudratidan mahrum bo'lib borayotganini anglamayapti. Ayniqsa, oqshomgi suhbatdoshimga

o'xshagan «bilimdon»larning ko'payishi xavfli.

— Kasalning xili ham mingdan oshgandir?

— O'n ming deyavering.

— Shunga yarasha meditsina texnikasi taraqqiy etyapti-ku?

— Hamma og'irlik shunda-da! Ilgarilari vrach bemorning qon bosimini o'lchab, yurak urishini tinglab, taxminan bo'lsa ham diagnoz qo'yib, darhol davolashni boshlardi. Endi ahvol butunlay o'zgardi. Avval vrachning o'zi xastani turli yo'sinda tekshirib ko'radi. So'ng maslahat uchun boshqa sohadagi hamkasblariga yuboradi. Ular ham bemorni turli maqomga solishib, obdan tekshirishadi. Asosiy vrachning xonasiga kasallik to'g'risidagi axborotlar oqib kiraveradi-yu, diagnoz ba'zan haftalab noaniq bo'lib qolaveradi.

— Vrach o'z bilimi, mahoratiga nisbatan ko'proq texnikaga ishonib qolgan, deng?

— Afsuski, shunday. Natijada bemorning vrachga bo'lgan ishonchi ham yo'qolishi mumkin.

— Davolashdagi eng muhim dori yo'qolar ekan.

— Ha-da! Bemor vrachga ishonmasa, davodan umid qilish qiyin. Undan tashqari ishonchsizlik tez tarqaladigan yuqumli kasal. Soy bo'yidagi suhbatdoshimga ham shu kasal ilashgan. Eski tabiblarni qo'msab, ta'riflab o'tiribdi.

— Xalqdan chiqqan tabiblarni butkul inkor etib, menimcha noto'g'ri ish qilyapsizlar. Ularning aksariyatidan o'rganish mumkin edi. Onamning aytishlaricha, olti oyligimda hayotimni bir tabib ayol saqlab qolgan ekan.

— Jahongir Alievich, siz — yigirmanchi asrning professoridan shunday gap chiqishini kutmagan edim.

— Yo'q, bu oldi-qochdi gap emas, ishonavering. Aytishlaricha, ikki kun onamni emolmay so'lib qolgan ekanman. Vrachlar yuqumli kasal deyishibdi. Shunda dadam bir kishining gapiga kirib, meni dalada turadigan bir ayol tabibnikiga olib boribdilar. Tabib piyoz o'toq qilayotgan ekan. Voqeani dadamdan eshitib, «Qani, og'zini oching-chi», debdiyu o'sha zahoti barmog'ini tiqib, tomog'imdan olma po'chog'ini olib beribdi. Butun kasalligimga shu po'choq sabab ekan. Tabiblar haqida bunday ibratli hikoyalar ko'p. Hatto azayimxonlardan ham...

— O'rganish mumkin. Lekin ularning usuli biz erishgan yutuqlarga munosib emas. Ancha orqada. EHMlarning meditsinada tutgan o'rni qadimgi usullarni o'rganishga ehtiyoj qoldirmaydi. Geliobiologiyaning tarixini qadimda osmondagi o'zgarishlarga qarab kasallik tarqalishini bashorat qiladigan munajjimlar bilan bog'lashadi. Lekin bu fanga ana o'shalar asos solgan deyishimiz, ularning usulini qo'llashimiz noto'g'ri-da. Bugungi geliobiologiya aniq dalillarga suyanadi.

Jahongirning ko'z oldiga tajriba yakunlari keldi. Geliobiologning so'zlari Shamsibek boshlamoqchi bo'lgan davolash usulini yodiga soldi. «Demak, Shamsibekning usuli shunchaki emas, ham mantiqan, ham ilmiy asoslangan faraz. Tajriba tugagach, uning natijasini geliobiologlarga ham ma'lum qilish kerakka o'xshaydi...» Jahongir shularni xayolidan o'tkazib, suhbatdoshining so'zini bo'ldi:

— Ahmad Zokirovich, men bu borada siz bilan bahslasha olmayman. Qani, choydan quying,

— dedi u piyolani uzatib. — Lekin menimcha, EHM vrach bilan bemor o'rtasida qora tikanak bo'lmay, ularning qatorida turishi kerak. Chunki eng yuksak texnika ham faqat vrachning

tahlillash idrokini to‘ldiradi, unga yordam beradi. Asrlar o‘tavigani bilan bemorlar vrachdan maslahatgina emas, tasalli kutish xislatlarini yo‘qotmaydilar.

- Bu gapingiz o‘rinli. Hatto o‘zim ham ba‘zan tasalliga muhtoj bo‘laman.
- Choy uchun ham, suhbat uchun ham tashakkur. Endi bir oz dam olaylik, — dedi Jahongir o‘rnidan turib. — Agar istasangiz, qimizxo‘rlikka olib borishim mumkin.
- Qaerga?
- Bu sir.
- O‘razboy cho‘ponnikiga emasmi?
- Obbo, faqat men bilaman deb, kerilib yursam-a?
- Biz quyoshdagi o‘zgarishlarga qarab bilib olamiz-da.

Hazil-mutoyiba tugagach, Jahongir o‘z xonasiga kirib yotdi. Peshinda farrosh xotin unga telegramma keltirdi. «Dadajon, men yengib chiqdim. Ishimni davom ettirishga ruxsat berildi. Akademik Javdod Nusratovni ilmiy rahbar qilib tayinlashdi. O‘g‘lingiz Jamshid».

Jahongir yengil tin oldi.

«19.. yil, 11 iyul. O‘zFA Biofizika ilmiy-tekshirish instituti. Professor Alievning tajribaxonasi.

Soat 12.00. Tajribaning yettinchi bosqichi boshlandi. Professor o‘zini yaxshi his qilyapti. Fanlar akademiyasidan tajriba xulosalari haqida ma‘lumot so‘rashdi. Professor hozir hech qanday ma‘lumot berolmasligini aytdi.

Soat 17.40. Boshqaruv murvatlarining yuqorisidagi qizil chiroqlar birin-ketin yona boshladi. Bu tajribaning tugaganidan dalolat. Xonaga professorni tabriklagani hamma to‘plandi. Lekin u «Keyin, keyin», deb chiqib ketdi. To‘rt kundan so‘ng tajriba xulosalarining tahlili boshlanadi».

QOTILLIK (KUNDALIKNING SO‘NGGI SAHIFASI)

Ulug‘bekning farmonidan so‘ng Mahfuza besh-olti chog‘li qizlarni qanotiga oldi. Falakning xaridorlari ko‘payib, narxi oshib ketdi. Falak savdosi shahriyorning farmoni bilan bo‘layotgani va chiroyli gilamdan qolishmasligi sababli, kimdir davlatpanohning ko‘ziga yaxshi ko‘rinmoq, kimdir bahonada uyini bezatmoq, yana kimdir qizining sepiga qo‘shmoq uchun bir emas, bir nechta sotib olardi. Shahriyor xayol qilganicha falakning barcha uylardan joy olishiga imkon yo‘q edi. U ahli manoldan ortmay qoldi. Dastlab shov-shuv ko‘tarib «Bu falakning tasviri ekan», deganlari unutilib, uni oddiygina «Falak», deb ataydigan bo‘ldilar.

Falak talash bo‘lgan bozor kunlarining birida Shamsibekning yo‘lini Abdulvahob to‘sdi. Salom-aliksiz ko‘z urishtirdilar.

- Men pirimning istaklari bilan Buxoroi sharifga ketyapman, — dedi Abdulvahob.
- Siz uyingizga ketsangiz bo‘lardi.
- Bu gapni men sizga aytmoqchi edim.

— Men volidaynning rizoligi bilan kelganman.

— Volidayn rizo demoqlik, Xudo rizo degan gap emas. Shariatga shak keltirib, nojinslar etagini tutyapsiz. Zavjangiz ham insu jinslar vasvasasiga tushibdi. Bu yo‘ldan qaytmasangiz Oллоh-taolo qahriga duch kelasiz. Xusuf kuni Haq-taologa yolborib, gunohingizni so‘rangu uyingizga qayting...

Abdulahob shunday deb nari ketdi. Shamsibekning ko‘ngliga g‘ashlik tushdi. Yo‘q, u Abdulvahobning vasvasasidan cho‘chimadi. Hamqishlog‘iga achindi.

Ertadan keyin xusuf kuni — oy to‘la tutiladi. Shamsibek ustodlari qilolmagan ishni shu tun sinab ko‘rmoqchi. Abdulvahob esa toat-ibodatga undayapti. Unga tushuntirib bo‘larmidi? Darvoqe, tushuntirish shartmi?

...Qosh qoraydi. Shamsibek G‘animurod bilan tashqi hovlida, Mahfuza esa ichkarida kichkintoyini o‘ynatish bilan band edi. Shamsibek dam-badam osmonga qaraydi. To‘lin oy hovli ustiga ko‘tarildi. Yengil shabada esdi. Osmonga katta nurli chegara chizgan oyning mag‘rib tomoni qizardi.

Shamsibek shunda gulxan yoqib malham tayyorlashga kirishdi. Oyning yarmi qizarganida taraqturuq ovozlari eshitila boshlandi. Ko‘p o‘tmay, Oyning butun sathi qonga bo‘yalganday bo‘ldi. Osmon odamning vahmini keltiradigan darajada qon tusiga bo‘yaladi. Bu damga kelib azon, dod-voy, nola, Qur‘on oyatlari, taraqlagan qozon-chelak ovozlari bir-biriga qorishib ketgandi. Samarqand ahli jam bo‘lib dunyoni qiyomat-qoyimdan saqlab qolish harakatiga tushgan edi. Oy xiyla vaqt tusini o‘zgartirmadi. Shovqin-suron avjiga chiqdi.

Bu davrda malhamni tayyorlagan Shamsibek G‘animurod yotgan so‘rini gulxan o‘tiga yaqinroq surib muolajani boshladi. Mahfuza eshik tirqishidan qo‘rqibgina mo‘ralar, Shamsibek uning titroq ovozda pichirlab o‘qiyotgan duolarini eshitardi.

Bir zamon ularning ko‘chalarida shovqin kuchaydi. Shamsibek to‘xtab qoldi. Qalandalarning bor ovoz bilan baqirishlariga quloq tutdi. Ishni davom ettirishga chog‘langanida, eshigi taraqlab ochildi.

Gulxan yorug‘ida dastlab og‘zidan ko‘pik sachrayotgan Abdulvahobni ko‘rdi. Uning ketidan yana tanish bashara ko‘rindi. Shamsibek uni ham tanidi. U darvish libosini kiygan qozi edi.

Hovliga yopirilib kirgan qalandarlar jimib qoldilar. Ular bir oqarayotgan Oyga, bir gulxan yonida harakatsiz turgan Shamsibekka qarab asta bosib kela boshladilar. Ichkari uyda bolasini bag‘riga bosib o‘tirgan Mahfuza, gulxan yonida sog‘ayib ketish umidi bilan yotgan G‘animurod va hatto Shamsibek ham bu lahzada xavotirga tushgan edi. Mahfuzani qo‘rqinch, G‘animurodni ilojsizlik hissi chulg‘agan, Shamsibek esa nima qilarini bilmay qolgan edi. U gulxan atrofini o‘rab olgan qalandarlar orasidagi Abdulvahobdan ko‘z uzmay turardi.

Hamqishloq va saboqdoshlarning biri shu onda nochor, biri esa g'olib kishining yashirin quvonchiga ega edi. To'qnashgan ko'zlar bir lahzada butkul nizolarga hukm chiqardi: — Men qo'lingizdan shunday ish kelar, deb o'ylamagan edim, — dedi Shamsibekning ko'zlari.

- Men esa qulay fursatni uzoq vaqt kutdim, — dedi Abdulvahobning ko'zlari.
- Siz hamqishlog'ingizga azobni ravo ko'rib, gunohga botasiz.
- Men saboqdoshimga qo'l ko'tarmayman. Unga Tangrining gadolari jazo beradilar.
- Johillik idrokdan ustun bo'lmasligi lozim.
- Ammo idrok johillikka barham berolmaydi...

Bir-biriga qadalgan ko'zlarning lahzalik bahsi qozining baqirig'i bilan uzildi:

- Musulmonlar! Bu gumroh iblislar bilan tillashib qiyomatni chaqiryapti!
- Iblisga o'lim!

Shamsibek, boshiga qattiq narsa urilib, gangib qoldi. Juldur kiyimlilar uni o'rtaga olib do'pposlay boshlashdi. Uyda o'tirgan Mahfuza dod deb, tashqariga yugurib chiqdi. Lekin Shamsibekka yaqinlasha olmadi. Chetda turgan qalandar uning yo'lini to'sdi. Mahfuza uni yonlab o'taman, deganda nimagadir qoqilib yiqildi. Boshiga qattiq narsa urilib, hushidan ketdi. Ichkaridan bolaning chinqirig'i eshitildi.

Qalandarlar turishga intilayotgan Shamsibekni kaltaklashar, Abdulvahob bilan qozi bir chetda qarab turishar, ahyon-ahyonda nimadir deb baqirib qo'yishardi. Shamsibek ur-sur orasida ham ulardan ko'zini olmas, o'sha tomonga intilar edi. Peshanasidan oqqan qon ko'ziga tushdi. Oyog'idan jon chiqib ketganday bo'ldi. U g'ira-shirada qozining so'riga yaqinlashganini, G'animurodni gulxanga itarib yuborganini ko'rdi. O'sha tomon intildi-yu, lekin a'zolari harakatga kelmadi. Dimog'iga kuygan et isi urildi.

Ko'z oldiga qo'lida non tutgan validai jahoni, ostona tuprog'ini xaltachaga solib bergan validi, qo'lchasini silkitib yuguradigan do'mboq o'g'li keldi.

XOTIMA

Kundalikning so'nggi jumlasiga nuqta qo'ygan Jahongirning butun charchoqlari o'z-o'zidan tarqaganday bo'ldi. Tashqariga chiqdi. Shiypondagi billiard stoli atrofiga to'plangan odamlar orasidan Ahmad Zokirovni topdi.

- Qimizxo'rlikka bormaymizmi? — dedi uni chetga tortib.
- Ammo ko'nglimdagi gapni aytdingiz. Men hozir kiyinib chiqaman.

Oradan o'n daqiqa o'tmay ular safarga hozir bo'lishdi. Oromgoh darvozasiga yaqinlashishganda Jahongirning ko'zi tog'avachchasiga tushib to'xtab qoldi. Ta'bi tirriq bo'ldi. Shu damda uni ko'rishga sira toqati yo'q edi. Endi nima qilish kerak? Orqasiga qaytay desa, hamrohidan istihola qiladi. Gap chuvalashadi. Undan tashqari Akbar deganlari

qarindosh-urug' u yoqda tursin, butun shaharga istagan ig'vosini tarqatishi mumkin. Oldinga yuraveray desa... «Ke, nima bo'lsa bo'ldi. Bir og'iz so'z aytaman, tamom! Shunga ham o'zimni qiynab yuramanmi...» Jahongir shu qarorga kelib yo'lida davom etdi. Darvozaga yaqinlashgach... ko'ngli yorishdi. Mo'ylovli kishi Akbar emas, faqat sirtidan o'xshar ekan. Uning vujudiga qaytgan yengil ruh g'ayratini oshirdi.

Ular ikki dovonni oshib o'tishgach, daraxtzorlar orasida zo'rg'a ko'zga chalinadigan so'qmoq bo'ylab o'ng tomonga yurishdi. Shu so'qmoq sara qimizi bilan dong taratgan cho'pon o'toviga olib boradi.

Cho'qqilar ortida momiq bulutlar ko'rindi. Tog' xuddi chilim chekib tutun burqsitayotganga o'xshaydi. Uzoqdan sharsharaning ovozi kelyapti. Pastda telba daryo buralib oqyapti. Bir oz yurib, irmoq bo'yiga chiqishdi. Suv bahaybat toshlarga bosh urgancha, maydalarining yuzini silab, katta daryoga qo'shilish uchun oshiqadi. «Shosha-shoshmasa suvning yo'li bir, — deb o'yladi Jahongir irmoqqa qarab borar ekan. — Insonning hayoti ham shunga o'xshaydi. Odam qancha shoshmasin, yuragiga tuggan ishlarning barchasini to'la bitira olmaydi. Inson ham hayotda orqasiga qaytish huquqidan mahrum. Odam buni bilsa ham o'zini bilmaganga soladi. Xatoga yo'l qo'ysam, keyin tuzataman, deydi. Masala oppa-osonga o'xshaydi. Biroq, xatoni tuzatish uchun ketgan umr hisobga olinmaydi. Agar odamlar umr bo'yi bironta xatoga yo'l qo'ymay yashasalar nima bo'lardi?.. Nima bo'lishiga aqlim yetmaydi. U holda balki hayot zerikarli bo'lib qolar...»

So'qmoq chapga burilib, irmoq o'ng tomonda qoldi. Tepalikda odamlarning qorasi ko'rindi. Bir oz yurishgach, kichik sayhonlikda bir to'p yosh yigit-qizlarga ko'zlari tushdi. Yigitlarning biri besh qarichlar chamasi keladigan jonsiz ilonni ushlab olgan, qolganlari yerga tikilgancha nimanidir tomosha qilishardi. Ular o'zlariga yaqinlashgan ikki yo'lovchini sezishmadi. Yoshlarning diqqatini tortgan narsa — uzunligi jimjiloqday, yo'g'onligi qalamday keladigan, yerda tipirchilab yotgan ikkita ilon bolasi edi.

— Bu urg'ochisi bo'lsa kerak, — dedi o'lik ilon ushlab turgan yigit.

— Erkagi ham bordir?

— Balki shu atrofda yurgandir...

— Ilonlar qasoskor bo'ladi, deyishadi.

— Qo'rqmanglar, bu ilon zaharli emas, — yoshlar ovoz kelgan tomonga qarashdi. Ahmad Zokirov esa so'zini davom ettirdi. — Buni o'ldirib chakki qilibsiz.

— Biz zaharli deb o'ylabmiz.

— Hatto zaharligini ham o'ldirmaslik kerak. Tabiatda har narsaning o'rnini, vazifasi bor. Biror joy bo'shab qolsa, uning o'rnini boshqa hech narsa to'ldira olmaydi. Bolalarini daraxt panasiga olib qo'yinglar. — Ahmad Zokirov shunday deb, hamrohiga yuring, deganday ishora qildi.

— Tabiatni faqat kitoblardan o'qib bilishadi-da, — dedi Jahongir yoshlardan uzoqlashishgach.

— Shu kitoblarni chuqurroq o'rganishsa ham koshki edi. Tabiatda necha ming xil o'simlik, necha ming xil hashoratu jonivor bor. O'ylab ko'rilsa, bularning hammasi inson uchun xizmat qiladi. Insoniyat ularning qanchasidan ayrildi. Bu — qancha dori, qancha malhamdan

bebahra qoldi, degan gap.

— Qo‘riqxonalar vujudga kelib, qirg‘inning yo‘li to‘silarmikin?

— O‘simlik bilan jonzotlarni faqat johil odamlardan emas, tabiatning o‘zidan ham himoya qilish kerak.

— Quyoshu yulduzlardagi o‘zgarishlar bularga ham ta’sir ko‘rsatadi, deng?

— Bo‘lmasam-chi? Eng oddiysi, havo past kelsa daraxtlarga shira tushadimi? Yog‘inning ko‘p bo‘lishi osmon jismlaridagi o‘zgarishga bog‘liqmi? E, Jahongir Alievich, hali qiladigan ishlarimiz ko‘p. Bir muammoga javob topsangiz, ikkitasi ko‘ndalang bo‘lib turadi.

— Ahmad Zokirovich, tabiatdagi o‘zgarishlarning farmatsevtikaga ta’siri shu topgacha sinab ko‘rilganmi?

— Masalan, qaysi o‘zgarish?

— Aytaylik, quyosh, oy tutilishining dori yoki malham tayyorlash jarayoniga ta’siri bo‘lmasmi-kin?

— Shunday faraz bor. Ammo bu og‘ir masala. Nega farmatsevtikaga qiziqib qoldingiz?

— O‘zim, shunchaki...

Jahongir bu savolni berishni aslida oromgohda o‘ylagan, mavrid kelishini poylayotgan edi. Uni Shamsibek boshlagan tajribaning nihoyasi qiziqtirar edi. Geliobiolog savolga qisqa javob qilgach, Jahongir gapni boshqa tomonga burishga majbur bo‘ldi. Ular to‘cho‘pon o‘toviga borgunlariga qadar ilmda muammolar xususida so‘z ochmadilar.

Begona odamlarning yaqinlashganini sezgan it bir hurdiyu tindi. Aftidan u qimiz istab keluvchilarga ko‘nikib qolgan, o‘zining sergak turganini sezdirib qo‘yish uchungina vovillardi.

Jahongirdan uch-to‘rt yosh katta bo‘lgan, ammo ko‘rinishi baquvvat cho‘pon o‘tovida bir qimiz ichgan odamni xotirida yaxshi saqlar, keyingi safar kelganida iliqroq kutib olardi. Lekin bu gal nima uchundir odatini kanda qildi. Cho‘pon chordana qurgan mehmonlar yoniga sirlangan tog‘orada qimiz va cho‘mich keltirib qo‘yib, o‘zi ham o‘tirdi.

— Xafa ko‘rinasizmi? — deb so‘radi Jahongir qimizni shopira turib.

— Bugun nihoyatda xunobim oshdi, uka, — dedi cho‘pon kigiz qalpog‘ini tizzasiga olib. — Bola-chaqam katta bo‘ldi, endi rohatini ko‘raman, degan vaqtingda tashvishdan qutulolmay qolarkansan.

— Bolalar xafa qildimi?

— Endi tushunmaydi-da, nima deysiz, o‘zi-ku xafa qilish niyati yo‘q, lekin o‘jar. Kenjam bultur maktabni bitirib, shaharda o‘qiyman, dedi. Havasmand bo‘lsang boraver, dedim. Bordi. Lekin o‘n besh kundan keyin ikki qo‘lini burniga tiqib qaytib keldi. Adabini yegandir desam, yana o‘qiyman, deydi. Bu daydi yurishida odam bo‘lmaydi, deb qo‘rqaman. Qo‘liga kitob olganini ko‘rmayman. Axir kitobga qayishsa, shaharda o‘qiydi-da!

— O‘g‘lingiz shu yerdami? Balki chindan ham o‘qishga ixlosi balanddir? — dedi Ahmad.

— Be, ixlos qayda? O‘rtoqlariga havas qiladi. Hali spravka olgani idoraga ketuvdi. Sizlar olim odamsizlar, bir nasihat qilib qo‘yinglar.

— Nasihat qilsak qiziq bo‘ladiyu, — dedi Jahongir kulib.

— Nega?

— Olim bo‘la turib yosh yigitchaga o‘qima, desak kulmaydimi? Sizga bir yigitcha kelib cho‘pon bo‘laman, desa yo‘ldan qaytarmassiz?

— Endi uka, bizning yo‘rig‘imiz boshqa. Qimizdan iching, hadeb shopiravermang. Gapning po‘stkallasini aytsam, o‘sha yigit jonivorlarning tilini bilmasa, toshingni ter, deyaveraman. Sizam aytovring. Na u yoqlik, na bu yoqlik bo‘lmaydigan shogirdlarni nima qilasiz? Hayron bo‘lyapsiz-a? Yo‘q, o‘g‘limni yerga urmoqchi emasman, yaxshi bola, lekin olim bo‘ladigan siyoqi yo‘q.

— Xo‘p, nasihat desangiz, qochmaymiz. Ammo bir sinab ko‘raylik. Balki olim bo‘ladigan qobiliyati bordir.

— Qani edi...

— Ilgarilari odamlar bolalariga pul sarflab, majbur qilib o‘qitishar ekan, endigi ahvolni qarang,— dedi Jahongir hamrohiga qarab. Ahmad Zokirov javobga og‘iz ochishga juftlashga ulgurmay, gapni cho‘pon ilib ketdi:

— Qaysi paytlarni aytyapsiz?

— Masalan... — Jahongirning ko‘z oldiga Abdulvahob keldi. — Masalan, bundan olti yuz yil oldin.

— E, otam zamonidagi gapmi. U paytlarda madrasani bitirgan odam olimlikka chog‘i kelmasa, bizga o‘xshagan omi xalqning miyasini achitib yuravergan. Endi institutni bitirsa-yu, kalla o‘rnida oshqovoq bo‘lsa. Kelib menga aql o‘rgatadimi? Burnog‘i yili shunaqalarini ko‘rganman. Sizga o‘xshagan bir domla sochi o‘sgan bolalarni olib kelibdi. Mening otarimda «amaliy saboq» olisharmish. «Necha yil o‘qishdi bu bolalar», desam, domlasi, «besh yil. Bu yil o‘qishni tugatishadi», deydi. «Uch-to‘rt oydan keyin menga o‘xshagan cho‘ponlarga aql o‘rgatar ekan-da, qani, bir sinab ko‘ray», dedim. Ko‘nishdi. Bir yigitdan «Qo‘yning yoshini qanday bilish mumkin?» deb so‘radim. «Shaxsiy daftarchasidan», dedi. «Agar daftarcha yo‘qolgan bo‘lsa-chi, menga o‘xshagan betartib cho‘pon daftarcha saqlaydimi?» dedim-da, ikki yoshli qo‘yni ko‘rsatdim. U qo‘yning og‘zini ochib ko‘rib «qari ekan, yuqori jag‘ida tish qolmabdi», deydi...

Ahmad Zokirov cho‘ponning bu gaplarini eshitib kulib yubordi.

— Obbo, azamat, toza boplabdi-ku, — dedi u o‘zini kulgidan to‘xtatolmay.

Jahongir bu kulgining ma‘nosiga tushunmay so‘radi:

— Nima, qo‘yning yuqori jag‘ida umuman tish bo‘lmaydimi?

— Siz ham tuzuksiz-ku, Jahongir Alievich!

— Endi bu kishining yo‘rig‘i boshqa. Shaharda o‘sgan. Bo‘lak ilmga o‘qigan. Menga kelgan bilag‘onlarni qarang. Shular o‘qib nima karomat ko‘rsatadi? Mening o‘g‘lim ham shu ko‘yga tushsa nima qilaman? Uyatdan yerga kirib ketmaymanmi? Bolaning olgan ilmi dasturxonga qo‘yishga yaroqli yaxlit nonga o‘xshasa, to‘rvadagi burdalangan qattiq-quruq non bo‘lmasa, deyman-da... Qimizdan ichinglar. Og‘rimagan boshlaringizni og‘ritavermay otardan xabar olib kelay. — Cho‘pon shunday deb o‘rnidan turdi. Shu ketganicha ikki soatdan so‘ng qaytdi. Mehmonlar uning o‘g‘lini kutib bir oz mizg‘ib ham olishdi.

— Qishloqda qolganga o‘xshaydi, — dedi cho‘pon xijolat bo‘lib. — Mana shunaqa parvoyi

palak bola-da...

- Endi keyingi safar kelganda gaplasharmiz.
- Ertaga oromgohga tushirib yuboraymi?
- Maylingiz. Agar men bo‘lmay qolsam, Ahmad Zokirovichni topadi.

Ular oromgohga oqshomda qaytishdi. Jahongirning ko‘zi eshik oldida turgan uch kishiga tushdi. Sal yaqinlashib, o‘g‘lini, Sulton bilan To‘lqinni ko‘rdi. Do‘stlari quchoq ochib so‘rashib, tajribaning muvaffaqiyatli yakunlangani bilan tabriklashdi. Jamshid otasini qanday qutlashni bilolmay, hayron bo‘lib turganida Jahongirning o‘zi uni quchoqlab o‘pdi.

To‘rtovlon uning mo‘‘jaz xonasida davra qurishdi. Sulton Buloqboshidagi ekspeditsiya boshqa qimmatli ma‘lumot to‘play olmagani, To‘lqin esa elalloma to‘g‘risidagi maqolasiga mingga yaqin xat olgani haqida gapirdi. Ularning gapi adoqsiz ekanini payqagan Jahongir: «To‘xtanglar endi, o‘g‘lim bilan so‘rashib olay», dedi. Keyin o‘g‘lining yelkasiga qo‘lini qo‘yib so‘radi:

- Xo‘sh, qanday yangiliklar bor?
- Akbarali aka yana keldilar. Sizga to‘n-do‘ppi, xullas, boshdan-oyoq sarpo qilib keptilar.
- Olib qoldingmi?
- Yo‘q. O‘zlari qaytganlarida olib kelasiz, dedim.
- Yaxshi qilibsan. Telegrammangni olgandim. Ishlar davom etyaptimi?
- Siljiyapti...
- Xo‘sh, o‘zing biz uchun qanday xotiralar to‘plading? — dedi To‘lqin ularning so‘zini bo‘lib.
- Xotiralarning hammasi mana shu yerda, — Jahongir kundalikni ko‘rsatdi. — Shamsibek ismli allomaning ko‘rgan-kechirganlari, eshitganlarini to‘laligicha yozib qo‘ydim. Afsuski, elalloma Shamsibekning faqat o‘zi ishtirok etgan voqealarni tikladi. Uning o‘limi bir oz mavhum bo‘lib qoldi. Ayniqsa dafn marosimi to‘g‘risida ma‘lumot yo‘q.
- To‘xta, to‘xta. Nimalar deyapsan?

Jahongir kulib yubordi.

- Voqeani xuddi senlar ham biladigandek gapirib o‘tiribman. Avval daftarga ko‘z yugurtirib chiqinglar. Keyin gaplashamiz.

Barchalari tunni tog‘ qo‘ynidagi oromgohda o‘tkazdilar. To‘lqin uxlamay Jahongirning kundaligini o‘qib chiqdi.

- Xo‘sh, o‘rtoq muharrir, «yosh yozuvchi»ning ijodiga qanday baho berasiz, — dedi Sulton ertalab nonushtaga to‘planganlarida.
- Yomon emas. Chidasa bo‘ladigan, — dedi To‘lqin do‘stining haziliga hazil bilan javob berib. Keyin Jahongirga qaradi: — Shularning hammasiga o‘zing guvoh bo‘ldingmi? Elalloma voqeani shundayligicha tiklay oldimi?
- Deyarli tiklab berdi. Ba‘zi o‘rinlarda voqeaning mantiqiy davomini o‘zim qo‘shdim. Elalloma tiklagan voqealarda men birinchi shaxs sifatida ishtirok etdim. Yozishda uchinchi shaxs sifatida, chetda turib qog‘ozga tushirdim.

— Nimaga?

— Tahlil uchun shu usul ma'qul bo'ldi. Undan tashqari qanday yozishni ko'p o'ylashga fursatim ham yo'q edi. Ertaga tajribaxonada xulosalarimni bayon qilaman. Katta tahlil boshlaymiz. Keyin miyani elektroddan xalos etib, yangi hujumga shaylanamiz.

— Bu endi ertaning ishi. Bugungi ishimiz g'alaba bilan tugadi. Eng muhimi shu! — Sulton shunday deb do'stlarini quchdi.

Bu damda quyosh tog' cho'qqisidan ko'tarilgan, olam nurga cho'mib borardi.

1973